

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

MAGISTRATURA BO'LIMI

**Qo'lyozma huquqida
UDK:**

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (Tarix)
Mutaxassislik: 5A110601**


Ismoyilov Ubaydulla Mamat o'g'li

**"Ertosh-Do'lana o'zbek xalqi etnogenez tarixining noyob arxeologik obidasi"
mavzusida**

**magistr darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: t.f.n. S.B.Tilabayev
" " 2020-yil**

**Kafedra mudiri: t.f.n. S.B.Tilabayev
"Himoyaga tavsiya etildi"
" " 2020-yil**



917-56

**Magistratura bo'limi boshlig'i: R.SH.Berdiqulov
"Himoyaga ruxsat berildi"
" " 2020-yil**



Toshkent 2020

**ERTOSH DO‘LANA O‘ZBEK XALQI ETNOGENEZ TARIXINING
NOYOB ARXEOLGIK OBIDASI
mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasining
ANNOTATSIYASI**

Annotatsiya. Mazkur dissertatsiya ishi maqsadi Ertosh-Do‘lana yodgorligi qabrlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida o‘zbek xalqi etnogenezi bilan bog‘liq tarixiy jarayonlarni tizimli ravishda ochib berishdan iborat.

Tadqiqot ishining yangiligi shundaki,

-Ilk bor Yuroqi Ohangaron havzasidan Qovunchi madaniyatining II bosqichiga tegishli Ertosh-Do‘lana yodgorligi qabrlari ilk bor arxeologik jihatdan aniqlandi va qazishmalar o‘tkazildi;

-Ertosh-Do‘lana qabristonida ochib o‘rganilgan 7 ta qabr tahliliga ko‘ra bu joydagi qadimiy aholi dafn an‘analarida oilaviy tartibda ko‘mish udumi tarqalganligi aniqlandi;

-Tub joyli Ertosh-Do‘lananing turkiy aholisi o‘rta asrlarda musulmon dinini qabul qilganligi va islom dini an‘analari asosida marhumlarni dafn etish urfga kirganligi aniqlandi;

Tadqiqot ishining natijasida Yuqori Ohangaron vodiysida bizgacha topib o‘rganilgan yodgorliklarni o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotlarni yangicha ilmiy tahlili asosida tog‘li chorvador qabilalarning kelib chiqish tarixiy ildizlari va ularning o‘troqlashish jarayonlari ochib beriladi;

Kalit so‘zlar: Qovunchi madaniyati, arxeologik madaniyat, arxeologik qazish, arxeologik sanalash, dromos, etnogenezi, katakomb, madaniy qatlam.

In English

Annotation. **The aim of this dissertation** is to systematically reveal the historical processes related to the ethnogenesis of the Uzbek people as a result of archeological excavations in the tombs of the Ertosh-Dolana monument.

The novelty of the research is that

- For the first time in the Yuraki Ahangaron basin, the tombs of the Ertosh-Dolana monument belonging to the second stage of the Melon culture were first archeologically identified and excavated;

- An analysis of 7 graves excavated at the Ertosh-Dolana cemetery revealed that the ancient burial traditions of the locals were based on family burial customs;

- It was found that the Turkic population of the native Ertosh-Dolana converted to Islam in the Middle Ages and burial of the dead in accordance with Islamic traditions;

The research reveals the historical roots of mountain tribes and their settlement processes on the basis of a new scientific analysis of the literature devoted to the study of monuments found in the Upper Ahangaran Valley;

Keywords: Kaunchi culture, archeological culture, archeological excavation, archaeological enumeration, dromos, ethnogenesis, catacomb, cultural layer.

MUNDARIJA

KIRISH	9-16- bet
I BOB. YUQORI OHANGARON HAVZASINING TABIIY-GEOGRAFIK HOLATI VA UNING ARXEOLOGIK JIHATDAN O‘RGANILISHI	17-31-bet
I.1. Yuqori Ohangaron havzasining tabiiy-geografik sharoiti.....	17-21-bet
I.2. Yuqori Ohangaron vodiysining arxeologik o‘rganilishi.....	21-31-bet
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	31-bet
II BOB. ERTOSH-DO‘LANA QABRISTONIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK QAZISHMALAR	32-61-bet
II.1. Ertosh-Do‘lana qabristoni Qovunchi madaniyatining noyob yodgorligi	32-36-bet
II.2. Ertosh-Do‘lana qabristonini o‘rganish metodikasi va uning stratigrafiyasi	36-47-bet
II.3. Ertosh-Do‘lana qabristonida Antik davr va Qoraxoniylar davri qabrlari, ularning dafn marosimlari.....	47-60-bet
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar	61-62-bet
III BOB. ANTIK DAVR QABRLARIDAN TOPILGAN ASHYOVIY DALILLAR KLASSIFIKATSIYASI VA XRONOLOGIYASI	62-74 bet
III-1. Kulolchilik mahsulotlarining tavsifi va davriy sanasi	62-71-bet
III-2. Hunarmandchilik mahsulotlarining turlari va ularning tavsifi.....	71-74-bet
Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	74-bet
IV BOB. TAJRIBA-SINOV ISHLARINI O‘TKAZISH VA NATIJALAR TAHLILI	75-96-bet
IV.1 Tajriba-sinov ishlarining mazmuni va o‘tkazish metodikasi.....	75-91-bet
IV.2 Olingan natijalar tahlili.....	91-96-bet
IV bob yuzasidan xulosa.....	97-98-bet
XULOSA	99-100-bet
FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR	101-103-bet
ILOVALAR	103-135-bet
Glossariy	135-136-bet

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo xalqlarining kelib chiqish tarixi va madaniyatlarini o'rganish zamonaviy tarix fanining dolzarb muammolaridan biridir. Bu masalada qadim o'tmishni yoritadigan yozma manbalar etarli darajada emas. Shuning uchun bunday muammolarni echishda moddiy madaniyat yodgorliklariga tayanish zarurati tug'iladi. Insoniyat tomonidan yaratilgan bu kabi madaniy meros ob'ektlarini asrab avaylash, ularni o'rganish, saqlash va ta'mirlash orqaligina qadimgi davr tarixini xolis yoritish mumkin bo'ladi.

Yuqoridagi kabi muammolarni tadqiq qilish nafaqat dunyo, balki, o'zbek olimlari va yosh tadqiqotchilarining ham vazifalaridan hisoblanadi. Bu borada o'zbek xalqining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan Qovunchi madaniyatining o'rini ilmiy asosda o'rganish zarurdir. Chunki, Qovunchi madaniyati davrida hozirgi o'zbek xalqiga xos bo'lgan ko'plab xususiyatlar, xususan, eng muhim belgilardan antropologik tipi Toshkent vohasi hududida shakllandi. Magistrlik dissertatsiyasida Toshkent vohasining qadim aholisi turmush-tarzi, madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy e'tiqodi Qovunchi madaniyatining Yuqori Ohangaron havzasida joylashgan Ertosh-Do'lana arxeologik yodgorligi misolida o'rganish dolzarb masala sifatida belgilandi.

Ushbu tadqiqotda o'zbek xalqining etnogeneziga tegishli Yuqori Ohangaron havzasidagi Qovunchi madaniyatiga oid bo'lgan materiallar aks etgan adabiyotlar o'rganildi va ilmiy tahlilga tortildi. Tadqiqotda muallif ishtirokida Ertosh-Do'lana yodgorligidagi arxeologik izlanishlarda qo'lga kiritilgan muhim ma'lumotlar ilk bor ilmiy muomalaga jalb etildi. Bunday yangi izlanishlarda qo'lga kiritilgan natijalar birinchidan, mavzuning birlamchi manbaviy asosi bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan, o'zbek xalqining dastlabki etnomadaniy asosini tashkil etgan Qovunchi madaniyatining chorvador aholisi vakillari Ohangaron daryosining yuqori havzalarida ham tarqalganligi isbotlandi. Uchinchidan, chorvador aholining o'troq hayotga o'tib borishi va arablar bosqinidan keyin islom dinini qabul qilganligi ularning ko'mish marosimlaridagi o'zgarishlar asosida ilmiy tahlil etildi. Alohida qayd etish joizki, Qovunchi madaniyati ob'ektlari arxeologik jihatdan yaxshi o'rganilgan va ularga bag'ishlangan ko'plab ilmiy asarlar chop etilgan. Ammo, Ertosh-Do'lana kabi o'zida uch xil davr aholisining madaniyatini aks ettirgan yodgorlik bu hududda birinchi bor o'rganilishi ushbu

mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Tadqiqot obyekti qilib Yuqori Ohangaron havzasidagi o'troqlasha boshlagan chorvador va o'rta asrlarda musulmon dinini qabul qilgan aholidan qolgan Ertosh-Do'lana yodgorligi belgilandi.

Tadqiqot predmetini ushbu yodgorliklarning tarkibiy qismi bo'lgan Qovunchi madaniyatiga oid qabrlar, o'rta asrlardagi musulmon qabrlari, ulardan topilgan moddiy-madaniyat ashyolari tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi: Ertosh-Do'lana yodgorligi qabrlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida o'zbek xalqi etnogenezi bilan bog'liq tarixiy jarayonlarni tizimli ravishda ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbek xalqi etnogenezida Yuqori Ohangaron havzasining tutgan o'rnini aniqlash;

Ertosh-Do'lana qabristonining hududiy joylashishi va uning topilish tarixini izohlash;

Ertosh-Do'lana qabristonining stratigrafiyasini aniqlash;

Ertosh-Do'lana yodgorligidagi qabrlar tuzilishi va dafn marosimlarining o'ziga xos tomonlarini ochib berish;

Ertosh-Do'lana yodgorligidagi 3 xil qabrlarni chuqur tahlil etish orqali qabristonning xronologik davrlashtirilishi va shu asosda Qovunchi madaniyati chorvador vakillarining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, diniy e'tiqodida kuzatilgan o'zgarishlarni yoritib berish;

Ertosh-Do'lana yodgorligi kulolchilik mahsulotlarining tavsifi va davriy sanasini aniqlash;

Ertosh-Do'lana yodgorligidan topilgan hunarmandchilik buyumlarining turlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

Yuqori Ohangaron havzasidan Qovunchi madaniyatining II bosqichi tegishli Ertosh-Do'lana yodgorligi qabrlari ilk bor arxeologik jihatdan aniqlandi va qazishmalar o'tkazildi;

Ertosh-Do'lana qabristonida ochib o'rganilgan 7 ta qabr qo'rg'onlarini tahliliga

ko'ra bu joydagi qadimiy aholi dafn an'alarida oilaviy tartibda ko'mish udumi tarqalganligi aniqlandi;

Tog'li chorvador qabilalarning kelib chiqish tarixiy ildizlari va ularning o'troqlashish jarayonlari ochib berildi;

Qabrlarga dafn marosimlarida qo'yilgan buyumlar ichida Qovunchi madaniyatiga oid bo'lgan kulolchilik buyumlari bilan birga Sarmat madaniyatiga oid kulolchilik buyumlari qo'yilganligi artefaktlar asosida isbotlandi;

Ertosh-Do'lana qabristonida Qovunchi madaniyati qabrlarining ust qismida musulmon diniy an'alariga ko'ra dafn etilgan qabriston borligi aniqlandi;

Tub joyli Ertosh-Do'lananing turkiy aholisi o'rta asrlarda musulmon dinini qabul qilganligi va islom dini an'analari asosida marhumlarni dafn etish urfga kirganligi aniqlandi;

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari;

Yuqori Ohangaron vodiysida bizgacha topib o'rganilgan yodgorliklarni o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlarni yangicha ilmiy tahlili asosida tog'li chorvador qabilalarning kelib chiqish tarixiy ildizlari va ularning o'troqlashish jarayonlari ochib beriladi;

ularning turli xil qurilish ko'rinishidagi mozor-qo'rg'onlari, dafn marosimlari va diniy e'tiqodi o'rganiladi;

ko'mish vaqtida ular qabriga qo'yilgan ashyoviy dalillar asosida ularning hayotlik davrida jamoadagi ijtimoiy mavqei, kasb-kori, qaysi etnik guruhlariga tegishli ekanligi aniqlanadi;

Nihoyat yuqorida bayon etilgan yangilik va ilmiy ishlanmalar yaxlit bir tizimga solinib, umumlashtiriladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Yuqori Ohangaron havzasining arxeologik jihatdan o'rganilishi XX asrning o'rtalaridan boshlangan bo'lib, mustaqillik yillarida bu borada yanada samarali izlanishlar olib borildi.

Ohangaron daryosining Angren shahridan yuqori qismi arxeologik jihatdan kam

o'rganilganligi tufayli, bu hududda ko'plab mozor-qo'rg'onlar borligi aniqlangan¹. Ularning ko'pchiligini tosh qurumli va katakombali mozor-qo'rg'onlar tashkil etadi. Mozor-qo'rg'onlarning Qizilolmasoy guruhi ochib o'rganilganda, ular tegishli o'ra yoki lahad qazilmay, tosh uyumi ostidagi er yuzasiga yotqizilgan qabrlar, ya'ni qurumlar ekanligi aniqlangan. Ularning deyarli ko'pchiligi xazina qidiruvchilar tomonidan qazilib, qabrga qo'yilgan qimmatbaho ashyoviy materiallar o'g'irlab ketilgan, faqat mozorlarda sopol idishlar, ularning parchalari, ayrim metall buyumlar saqlanib qolgan. Bu topilmalarga ko'ra, qadimgi qabrlarning aksariyati milodiy I-VIII asrlarga tegishli ekanligi aniqlangan.

Angren shahridan 2 km. masofada joylashgan Apartak qo'rg'onida 1960-70 yillarda ba'zi bir qabrlar qazib ko'rilgan. Ular tosh uyumi ostida to'g'ri to'rt burchak shaklida qurilgan er osti kameralar bo'lib, gumbazsimon shiftli kameraga va uzun tor er osti yo'lak (katakomba) tuzilishida bo'lgan. Ularning deyarli ko'pchiligi o'g'irlangan. Bizgacha saqlanib qolgan (ba'zi bir mozorlarda) sopol parchalari, bronza, shisha, oltin munchoq va boshqa ashyoviy materiallar uchratilib, ular tahliliga ko'ra, Apartak qo'rg'onlari ilk o'rta asrlarga tegishli ekanligi aniqlangan².

Ammo, bu o'lkaning iqtisodiy xo'jalik va tog' sanoati jihatidan o'zlashtirish bilan bog'liq ishlar vodiylar hududlari bo'ylab keng ko'lamli arxeologik izlanishlar o'tkazishni talab qilar edi. Shu maqsadda 1959 yili Toshkent vohasida O'zbekiston FA Tarix va arxeologiya instituti va O'zbekiston tarixi davlat muzeyi ilmiy jamoasining birlashgan arxeologik bo'limi ish boshlagan. Otryad zimmasiga Ohangaron vodiysi o'tmishi bilan shug'ullanish, uning arxeologik ob'ektlarini topish va ularni o'rganish kabi masalalar yuklatilgan. Arxeologik otryadga rahbar Yu.F. Buryakov, uning ilmiy maslahatchisi etib M.E.Masson tayinlangan. Otryad a'zolari 1959-1963, 1966, 1968 yillarda Ohangaron vodiysining qadimgi shahar va qishloqlari, mozor-qo'rg'onlar, qadimgi ruda konlari, ruda eritish pechlari va boshqa turdagi yodgorliklarni topish, ularni xaritaga tushirish, ilmiy tavsiflash, ularning ba'zilarida arxeologik qazishmalar o'tkazish bilan

¹ Буряков Ю.Ф. и др. Археологические памятники Ташкентской области. – Ташкент, 1973. – С. 76-84.

² Агзамхожаев Т. Погребальные сооружения Чирчик-Ангренской долины I-VIII вв. н.э. Автореф. Канд. Дисс. Ташкент, 1966; Буряков Ю.Ф. и др. Археологические памятники Ташкентской области. Ташкент, 1973, с 78, пункт №534.

shug‘ullangan³. Ular Ohangaron vodiysi o‘tmish tarixiga doir yozma manba ma’lumotlarini to‘plash, ularni arxeologik yodgorliklar bilan lokalizatsiya qilish bilan ham shug‘ullandilar. Arxeologik izlanishlar jarayonida Iloqning qadimgi shahar xarobalari hisoblangan Tunkat, Kulota, Obliq, Abrlig‘, Namudlig‘, Kuhisimda stratigrafik qazishmalar olib borildi. Rudakorlar qishlog‘ida, Kendirsoy, Qo‘yliqsoy, Oqtosh, Toshbuloq kabi metall eritish ob‘ektlarida arxeologik izlanishlar olib borildi, Pskent tumanida mozar-qo‘rg‘onlar ochildi. Qurama tog‘ tizmalarining Oqtepa, Kenko‘l, Irsuv, Navgarzan, Lashkarak, Tuzko‘l, Qo‘shbuloq, Tog‘berdi, G‘ishtsoy, Kendirsoy, Shovgaz, Ungurlikon, Ko‘ktepa, Qoratosh, Qoratepa miskoni, Sartabutkon, Kalmakir, Nokpoy, Balikti, Kulemas, Qo‘yliqsoy, Oqtoshkon, Konimansur, Qoratoshqo‘ton, Adrasman, Samarchuk, Qizilolmasoy, Qaytar kabi ruda qazilma joylari hisobga olindi⁴.

Shuningdek, otryad asosiy e’tiborni kam o‘rganilgan yuqori Ohangaron vodiysi hududlariga qaratib, tog‘ soylari yonbag‘irlari bo‘ylab Farg‘ona vodiysiga o‘tgan tog‘, savdo-karvon yo‘llarini o‘rganish maqsadida Angren platosi (yassitog‘)ga marshrut uyushtirdi. Natijada, Ohangaron vodiysidan Farg‘ona vodiysiga olib boruvchi Qamchiq, Pangaz, Kendir, Taboshar dovonlarini o‘rganishga muyassar bo‘ldi.

Ammo, yuqori Ohangaron vodiysida olib borilgan bu arxeologik izlanishlar dastlabki qidiruv (razvedka) izlanishlar xarakterida bo‘lib, ro‘yxatga olingan yodgorliklarda keng ko‘lamli arxeologik qazishmalar olib borilmagan, ob‘ektlarning to‘liq tavsifi, ularning xarakteriga xos jihatlari ochilmagan, yodgorliklar xususiyatiga ko‘ra tizimga solinmagan. Yodgorliklarning davriy tizimi ishlanmagan, tog‘ tizmalari yonbag‘irlarida va soy havzalarida istiqomat qiluvchi chorvador qabilalarning o‘troqlashish jarayonlari, kompleks xo‘jalik yuritish xususiyatlarini ochishga qo‘l urilmagan.

Tadqiqotchilar Qovunchi madaniyatining kelib chiqishi va yodgorliklari topografiyasini o‘rganishga, uning davriy xronologik bosqichlarga bo‘linishi masalalariga katta e’tibor beradilar. Ayniqsa, Qovunchi madaniyatining xronologiyasiga

³ Буряков Ю.Ф., Қосимов М.Р., Ростовцев О.М. Тошкент областининг археологик ёдгорликлари. – Ташкент: Фан, 1975. – Б. 120.

⁴ Буряков Ю.Ф. Горное дело и металлургия средневекового Илака. – Ташкент. 1974. – С. 12-14.

oid muammolar S.P.Tolstov⁵, T.N.Knipovich⁶, A.I.Terenojkin⁷, K.Sh.Shoniyozov⁸, L.M.Levina⁹, Yu.F.Buryakov¹⁰, M.I.Filanovich¹¹, A.Asqarov¹², O.Inomov¹³ kabi tadqiqotchilarning ishlarida o‘z aksini topgan.

Bu madaniyatga tegishli barcha jihatlar shu davr sopol buyumlarida o‘zining yorqin ifodasini topgan. Qovunchi madaniyatining keramika komplekslari tahliliga asoslangan L.M.Levina esa Toshkent vohasi materiallarini Janubiy Qozog‘iston komplekslari bilan qiyosiy o‘rganib, Qovunchi madaniyati materiallarini bir butun ilmiy tizimga solgan¹⁴.

Yuqori Ohangaron havzasidan topilgan o‘nga yaqin qadimgi metall ishlab chiqarish ob’ektlari arxeolog Yu.F.Buryakov boshchiligidagi guruh tomonidan o‘rganib chiqilgan¹⁵.

2009 yilda akademik A.Asqarov boshchiligidagi guruh Ohangaron havzasining Yuqori Ertosh qishlog‘ida III-IV asrlarga oid O‘ralitepa ibodatxonasini, Taypan qishlog‘ida I-IV asrlarga oid mozor-qo‘rg‘onlardan birida qazish ishlari olib borilgan va uni II-IV asrlar bilan belgilagan¹⁶.

2010-2012 yillarda akademik Ahmadali Asqarov boshchiligidagi arxeologik izlanishlar natijasida bu havzada joylashgan Yuqori Chinor yodgorligidagi mozor-qo‘rg‘onlar topilib, ular Qovunchi madaniyatining 2-bosqichiga oidligi aniqlandi¹⁷.

2012 yilda Angren-Pop temir yo‘lining qurilishi munosabati bilan bu yo‘lining Ohangaron tumanidan o‘tgan qismida arxeologik qidiruv ishlari olib borilib uchta

⁵ Толстов С.П. К вопросу о датировке культуры Каунчитепе // ВДИ. – М., 1946. – № 1, – С. 175-176.

⁶ Кнплович Т.Н. Некоторые вопросы датировки среднеазиатской керамики домусульманского периода // КСИИМК. – М., 1948. – № 28. – С. 153.

⁷ Тереножкин А.И. Рец. на работу Г.В.Григорьева на Каунчитепе. Уз ФАН СССР, -вып. 8. 1940. – С. 81-84; Тереножкин А.И.Согд и Чач // КСИИМК, – М., 1950. – № 33.

⁸ Шонийёзов К.Ш. Қанғ давлати ва қанғлилар. – Тошкент: Фан, 1990; Ўша муаллиф. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т.: Шарк, 2001.

⁹ Левина Л.М. Керамика нижней и средней Сырдарьи в I тыс. н.э. – М., 1971. – С. 90-193.

¹⁰ Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Тошкент: Фан, 1982. – С. 70-80; Буряков Ю.Ф, Дадабаев Г. Памятники античного времени в Ташкентском оазисе // ИМКУ. – Т.: 1973. –№ 10. – С. 38-51.

¹¹ Филанович М.И. Шаштепа – древнейшее поселение оседлых земледельцев на территории Ташкента. Кн. «У истоков древней культуры Ташкента». – Т.: 1982. – С. 91-124.

¹² Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2015. - 672 бет.

¹³ Иномов О. Қовунчи маданияти ва унинг ўзбек халқининг шаклланишидаги роли. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори илмий (PhD) даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. – Тошкент, 2019. 163 бет.

¹⁴ Левина Л.М. Керамика нижней и средней Сырдарьи I тыс. н.э. – М., 1971. – С. 90-193.

¹⁵ Буряков Ю.Ф. Горное дело и металлургия средневекового Илака. – М., 1974. – С. 142.

¹⁶ Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2015. - 672 бет.

¹⁷ Кўрсатилган жойда.

joydan mozor-qo'rg'onlar aniqlangan¹⁸.

D. Normurodov Toshkent vohasini arxeologik jihatdan rayonlashtirishni qayta ko'rib chiqish jarayonida Ohangaron havzasining Yuqori, O'rta va Quyi havzalarga bo'linishi masalasiga e'tibor qaratgan. U Ohangaron havzasining Yuqori oqimiga Ohangaron daryosi irmoqlarining boshlanishidan to Ohangaron suv omborigacha bo'lgan hududlarni kiritgan¹⁹.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi; Tadqiqotda tarixiylik, ilmiy holislik va obyektivlik tamaillariga to'la amal qilgan holda, ilmiy muammoni o'rganish va tahlil qilishda tarixiy-falsafiy uslublardan, ya'ni analiz va sintez, sistemalashtirish, mavhumlikdan murakkablikka intilish, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy solishtirish kabi metodlardan foydalanildi. Ushbu usullar tadqiqot mavzusining ilmiy-metodologik asoslarini tashkil etdi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: Dissertatsiya materiallaridan tadqiqotchilar o'z izlanishlarida, ko'p jildli «O'zbekiston tarixi»ning etnogenez va etnik tarixiga bag'ishlangan boblarini yozishda, arxeologiya, etnologiyaga doir o'quv qo'llanma va darsliklar yaratishda, barcha oliy o'quv yurtlari va malaka oshirish kurslarida seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa, jamiyatning ma'naviy-axloqiy, diniy va dunyoviy qadriyatlar, etnomadaniy meros va o'zbek xalqiga xos milliy xususiyatlarni tadqiq etishga bag'ishlangan maqsadli davlat dasturlarini bajarilishiga, shuningdek, obyektiv tarixiy bilimlarni takomillashtirishga xizmat qiladi

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiya matniga chizma va foto materiallardan iborat albom-illyustratsiya ilova qilingan.

¹⁸ Анарбоев А.А., Баратов С.Р., Буряков Ю.Ф., Вульферт Э.Ф. Археологическая разведка и исследования по железнодорожной трассе Ангрен-Поп // АИУз 2012 год. – Самарканд, 2013. – Вып. 9. – С. 17-20. Ушбу тадқиқотларда муаллиф ҳам қатнашган.

¹⁹ Нормуродов Д. Р. Тошкент воҳасининг қадимги ва ўрта асрлар даври моддий маданияти тарихи (мил. Авв XIII-милодий XIII аср бошлари): Дисс... (PhD). - Тошкент, 2020. 1-илова. 306-бет

I BOB. YUQORI OHANGARON HAVZASINING TABIIY-GEOGRAFIK HOLATI VA UNING ARXEOLOGIK JIHATDAN O'RGANILISHI

1.1. Yuqori Ohangaron havzasining tabiiy-geografik sharoiti

Ohangaron daryosi havzasi qadimdan Toshkent vohasining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, hududning tarixiy-madaniy taraqqiyotida o'ziga xos o'rinni egallagan. Ohangaron havzasi Tyan-Shan tog'ining tarmog'i hisoblangan Chotqol va Qurama tog' tizmalari bilan o'ralgan. Ohangaron havzasi shartli ravishda yuqori, o'rta va quyi havzalarga ajratiladi²⁰. Ohangaron platosidagi tor daralar va vohaning shimoli-sharqiy tomonida Chotqol tog'laridan boshlanuvchi Oqtoshsoy, Choylisoy, Toshsoy, Arashansoy, Ertoshsoy, Yakkaarchasoy, Tishsoy, Qamchiq kabi soylar vodiysidan Ohangaron suv omborigacha bo'lgan hududlar yuqori Ohangaron havzasini tashkil

²⁰ Нормуродов Д. Р. Тошкент воҳасининг қадимги ва ўрта асрлар даври моддий маданияти тарихи (мил. Авв XIII-милодий XIII аср бошлари): Дисс... (PhD). - Тошкент, 2020. 1-илова. 306-бет

qiladi (1-rasm).

Yuqori Ohangaron havzasining chap sohillari toshli qoyalardan iborat bo'lganligi, ko'chki xavfining mavjudligi, shamolning qattiq esishi tufayli hayot kechirish uchun noqulay. Bu qismda aholi manzilgohlari uchratilmaydi. Daryoning o'ng tomoni esa quyosh nurining yaxshi tushishi va sovuq shamolni tog'larning to'sib turishi, harakatlanish uchun yo'llar mavjudligi sababli aholi tomonidan keng o'zlashtirilgan. Jumladan, Ohangaron havzasi o'ng tomonidagi Ertosh qishlog'i toza havosi, zilol suvlari, o'simliklari kishilarni qadimdan bu joyni o'zlashtirishiga sabab bo'lgan.(2-rasm)

Yuqori Ohangaron havzasining iqlimi qishi sovuq, yozi mo'tadil bo'lib, havosining nisbiy namligi yillik o'rtacha ko'rsatkichning 50-60 % ni tashkil etadi. Ayni paytda vohaning tog'li va tog'oldi qismida sovuq hamda nam havo hukmronlik qiladi. Yanvarning o'rtacha harorati -3° , -14° , iyulniki 22° - 25° . Yillik yog'in 300-350 mm. Ohangaron vodiysida tezligi 5-10 m tog'-vodiy shamoli esadi. Vegetatsiya davri 180 kun²¹.

Bekobod yoki Oqqo'rg'on shamollari haydab kelgan bulutlar Chotqol va Qurama tog'lariga urilib, Farg'ona vodiysiga o'ta olmaydi, shuning uchun ham yilning istalgan vaqtida yomg'ir to'satdan quyib yuborishi mumkin. Yog'ingarchilik ko'p bo'lganligi tufayli Yuqori Ohangaron havzasi yurtimizdagi eng sel va toshqinlar xavfi kuchli hududlardan biri hisoblanadi. Yog'ingarchilik deyarli har bir faslda kuzatiladi, qishi serqor, bahori seryomg'ir bo'ladi. Bu havza iqlimiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, havo haroratini keskin isib ketishining oldini oladi. Bularning barchasi vohaning fauna va florasini rivojiga ijobiy ta'sir etadi.

Suvlari. Ohangaron havzasining suv manbalari asosan uning yuqori oqimidagi soylar hisoblanadi. Daryoning yuqori oqimiga o'ng tomonda Chotqol tog'laridan Arashansoy, Toshsoy, Ertoshsoy, chap tomondan esa Qurama tog'laridan Oqtoshsoy (Chovlisoy), Chodaksoy, Novgarzonsoy kabi irmoqlar kelib quyiladi. Bundan tashqari har ikkala tomondan kichik-kichik soylar suvlari ham daryoga kelib qo'shiladi. Bu suv manbalari bir o'zanga yig'ilib Ohangaron daryosini tashkil qiladi. Chovlisoyning daryoga quyilishidan boshlangan suv Ohangaron havzasi bo'ylab 236 km masofada

²¹ <https://uz.wikipedia.org/>

oqib, Sirdaryoga quyiladi. Daryo tog‘li qismida chuqur va tor o‘zanda oqib, Obliq qishlog‘idan o‘tgach, o‘zani kengayib, oqimi sekinlashadi.

Ohangaron daryosining to‘yinishida Chotqol va Qurama tog‘larida yig‘ilgan qor suvlarining salmog‘i katta. Shu sababli uning to‘lin suv davri aprel-may oylariga, eng kam oqimi dekabr-fevral oylariga to‘g‘ri keladi²².

Ohangaron daryosi O‘zbekistondagi o‘ttiz uchta katta-kichik daryolar orasida o‘rtacha ko‘p yillik suv sarfi ko‘rsatkichiga (sekundiga 23,5 kubometr) ko‘ra, o‘n ikkinchi, uzunligiga ko‘ra, oltinchi va havzasining kengligiga ko‘ra, to‘qqizinchi o‘rinda turadi²³.

Tuproq‘i. Yuqori Ohangaronning tuproq tarkibini o‘rganish ishlari 1937 yilda B.V.Gorbunov, A.Z.Zaychikov, N.T.Muravevalar, keyinchalik A.Z.Zaychikov (1951-1952 y.) N.A.Buskov va N.N. Lasikovalar (1955 y.), M. Umarova (1958-1965 y.) tomonidan amalga oshirildi²⁴.

Yuqori Ohangaron havzasida bo‘z tuproqlar, o‘tloqi va botqoq o‘tloqi tuproqlar uchraydi²⁵. Yuqori Ohangaron havzasida 300-1200 m. balandlikgacha bo‘lgan joyida bo‘z tuproqlar, 1200-2500 m. balandliklarida qo‘ng‘ir va jigarrang, undan balandroqda chim-qo‘ng‘ir tuproqlar keng tarqalgan. 2500 m.dan yuqorida esa tog‘-o‘tloq, tog‘-botqoq, toshloq-shag‘alli tuproqlar va adirlardagi sertosh tuproqlar dehqonchilik uchun yaroqsiz hisoblanadi. Daryo terrasalarining quyi qismida, er osti suvi yuza joylarda o‘tloqi va botqoq tuproq, daryo vodiylarida allyuvial tuproqlar mavjud²⁶.

Qazilma boyliklari. Yuqori Ohangaronning Qurama tog‘i xilma-xil foydali qazilmalarga boy hudud sanaladi²⁷. Chotqol tog‘i hududlarida foydali qazilmalar nisbatan kamroq uchraydi. Tog‘larda qimmatbaho rangli metallar (oltin, kumush, mis, volfram, qo‘rg‘oshin, allyuminiy) va chinni (kaolin) xomashyosi mavjud. Budan tashqari, ruh, ko‘mir, flyuorit, tapaz, feruza, safsar (ametist), marmar, ohak, sement va

²² <http://geografiya.uz/ozbekiston-tabiiy-geografiyasi/11733-ozbekistonning-ichki-suvlari-va-suv-boyliklari.html>

²³ <http://geografiya.uz/ozbekiston-tabiiy-geografiyasi/11733-ozbekistonning-ichki-suvlari-va-suv-boyliklari.html>

²⁴ Хазраткулов О.Х., Абдуназаров Р., Саидов А.. История изучения природы бассейна р. Ахангаран в советской период // Материалы конференции, Стр. 2-5.

²⁵ A.Ramazonov, S.Buriyev. Tuproqshunoslik va dehqonchilik. - Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. 43-bet.

²⁶ Normurodov D. R. Toshkent vohasining qadimgi va o‘rta asrlar davri moddiy madaniyati tarixi (mil. Avv XIII- milodiy XIII asr boshlari): Diss... (PhD). - Toshkent, 2020. 1-ilova. 306-bet

²⁷ Буряков Ю.Ф. Из прошлого Чаткало-Кураминского промышленного района (К истории горного дела и металлургии средневекового Илака): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1966. – С. 10-11; Ўша муаллиф. Горное дело и металлургия средневекового Илака. – М., 1974. – С. 43-44, 54, 56, 87, 112.

boshqa ma'dan konlari bor²⁸.

Foydali qazilmalardan qo'ng'ir ko'mir, rux, molibden, kumush, oltin, feruza, o'tga chidamli tuproq (kaolin) zaxiralari nihoyatda boy. Ayniqsa Qurama tog'ida foydali qazilmalardan mis, polimetall rudalari, oltin, kumush, qo'rg'oshin, alyuminiy xom ashyosi zaxiralari boy²⁹.

Qurama tizmasining Yuqori Ohangaron qismini balandligi o'rtacha 2,5 ming metrdan kam emas. Chatqol va Qurama tizmalarining yuqori qismida kaolin, oxak, ko'mir, mis, kumush, oltin, qo'rg'oshin, rux, molibden, alyuminiy, biryuza, marmar singari foydali boyliklar serob³⁰.

O'simliklari. Jingil, shirin bargli astragallar, shuvoq va boshqa dorivor tog' o'simliklari ushbu hududda keng tarqalgan.³¹

Vohaning 300-500 m. balandligida asosan, efemer va efemeroid: lolaqizg'aldoq, qo'ng'irbosh, bug'doyiq, javdar, oq kovrak kabi o'simliklar o'sadi. 500-1200 m. balandliklarda qo'ng'irbosh, kakra, bo'tako'z, marmarak, sariqchoy giyohlari; do'lana, tog'olcha, achchiq bodom butalari uchraydi. 1200-2500 m. balandlikda har xil o't-o'lanlar (bug'doyiq, chalov, betoga, shiroch va h.k.); bodom, do'lana, zirk, archa, yong'oq, zarang, qayin, tol, terak, olma, olcha kabi daraxt va butalar o'sadi. 2500 m.dan yuqoridagi Subalp va Alp o'tloqlarida mushukquyruq, taran, qiziltikan, Alp lolasi va boshqa o'simliklar uchraydi.

Hayvonot dunyosi. Daryo sohillaridagi to'qaylarda chiyabo'ri, quyon kabi sut emizuvchilar; o'rdak, g'oz va qirg'ovul kabi qushlar yashaydi. Tekislik va tog' etaklarida sudralib yuruvchilar (kaltakesak va ilon), kemiruvchilar (yumronqoziq, toshbaqa), hashoratlar, shuningdek, tulki, bo'ri, bo'rsiq kabi yovvoyi hayvonlar hamda bedana, yovvoyi o'rdak, kaklik, tuvaloq, churrak, lochin, qirg'iy, kalxat, boyo'g'li kabi qushlar uchraydi. Tog'larda ayiq, to'ng'iz, kiyik kabilar yashaydi.

Daryolarida laqqa, cho'rtan, mohi (marinka), suv omborlarida sazan (zog'ora), olabug'a, oqamur, ilonbaliq kabi baliq turlari uchraydi³².

²⁸ Буряков Ю.Ф. Горное дело и металлургия средневекового Илака. – М., 1974. – 142 стр.

²⁹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8-жилд, 534-535 бетлар. Тошкент, 2004.

³⁰ Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. Тошкент, 1996. 40 бет.

³¹ <https://ru.wikipedia.org/>

³² Воҳанинг ўсимлик ва ҳайвонларини муҳофаза қилиш учун шарқий қисмидаги тоғликда “Угом-Чотқол миллий табиат боғи” кўриқхонаси ташкил этилган. Бу ерда буғу, оқ ва кўк каптар, ғуррак, бедана, айик, малла суғур, тўнғиз кабилар

Bu hududdagi sutemizuvchilar orasida Yevroosiyo boʻrilari, chiyaboʻrilar, Buxoro tulkisi, yovvoyi toʻngʻiz, quyon, boʻrsiq, qirpi keng tarqalgan, Tyan-Shan jigarrang ayiqlari topilgan, mintaqaning shimolida va sharqida qor qoplonlarining topilganligi haqida bir necha bor xabarlar mavjud³³.

Shuni ham taʼkidlab oʻtish kerakki, Yuqori Ohangaron havzasi juda koʻplab shifobaxsh suv va buloqlarga boy. Bunga Arashanbuloqni misol qilib keltirishimiz mumkin. Chatqol togʻi bagʻrida joylashgan, shifobaxshligi butun Oʻrta Osiyoga yoyilgan Arashon bulogʻining 38 daraja issiq suvida kalsiy va natriyli gidrokarbonatlardan tashqari oltingugurtli vodorod (balchiq) hidini beruvchi radon minerali (45 emal/l.) bor. Uning inson tanasidagi tuz va yara-chaqani bartaraf etuvchi xossasi toʻgʻrisida XX asr oʻzbek vaqtli matbuotining dastlabki doimiy nashrlaridan boshlab yozilgan. Namangan viloyati Pop tumanining togʻlik hududida joylashgan Arashon buloqqa Chatqol tizmasining chap etagidagi Ertosh qishlogʻi orqali Qizilchasoy, Kelinchaksoy, Toshsoy va Kattasoylar yoʻli bilan oltmish chaqirim masofadagi togʻlar orasidan oʻtib boriladi. Unga ilgari ot va eshakda soʻqmoq yoʻllar orqali qatnashgan. Hozir chorvadorlar shunday soʻqmoqlardan birini avtoullovlar yuradigan yoʻlga aylantirishgan.

Yozda – quyosh selidan hammayoqning jizgʻanagi chiqib yotgan avgust oyida ikki yarim ming-uch ming metr baland togʻlar ustidagi bepoyon yam-yashil va tekis maydonlarni (Ohangaron platosini) koʻrib, koʻzingiz quvnaydi. Gʻubor yoʻqligi tufayli 10-12 chaqirim masofadagi otliq odam yoki 15-20 chaqirim masofadagi oʻtovni bemalol koʻrasiz. Qizigʻi shundaki, Qizilchasoydan oʻtib, Arashon yoʻli bilan yuqorilab borganingiz sayin birorta daraxt oʻsib turganini koʻrmaysiz. Chamasi, qishning qattiq sovugʻi daraxtlar ildizining rivojlanishiga yoʻl qoʻymaydi.

1.2. Yuqori Ohangaron vodiysining arxeologik oʻrganilishi.

Yuqori Ohangaron havzasining arxeologik jihatdan oʻrganilishi XX asrning oʻrtalaridan boshlangan. Mustaqillik yillariga hududning qadim oʻtmishini oʻrganish

қўриқланади.
³³ <https://ru.wikipedia.org/>

ishlari yangi bosqichda davom ettirildi. Ohangaron vodiysi (Iloq) ning o'zbek xalqi etnogenezi va davlatchiligi taraqqiyotida o'ziga xos o'rin tutganligi Qovunchi madaniyati misolida asoslab berildi.

Mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlar natijasida Ohangaron havzasining yuqori oqimida asosan qishloq makonlari, qasrlar, mozor-qo'rg'on, mug'xonalar, qadimgi ruda konlari va ruda eritish qo'ralari kabi 20 dan ortiq yangi yodgorliklar aniqlandi. Mazkur madaniyat yodgorliklarining asosan Ohangaron daryosining o'ng havzasida qayd qilinishi milodning dastlabki asrlaridan boshlab ushbu hudud aholi tomonidan ayniqsa jadal ravishda o'zlashtirila boshlanganligidan dalolat beradi (3-rasm).

Arxeologik jihatdan kam o'rganilgan Yuqori Ohangaron havzasida o'tgan asrning 70-yillarida olib borilgan dala-qidiruv ishlari mazkur hududda ko'plab mozor-qo'rg'onlar borligini ko'rsatgan³⁴. Ularning ko'pchiligi tosh qurumlar va katakombali mozor-qo'rg'onlardan iborat. Muzor-qo'rg'onlarning Qizilolmasoy guruhi ochib o'rganilganda, ular tegishli o'ra yoki lahad qazilmay, tosh uyumi ostidagi er yuzasiga yotqizilgan qabrlar, ya'ni qurumlar ekanligi aniqlangan. Ularning deyarli ko'pchiligi xazina qidiruvchilar tomonidan qazilib, qabrga qo'yilgan qimmatbaho materiallar o'g'irlab ketilgan. Aksariyat xollatlarda mozorlarda faqat sopol idishlar, ularning parchalari, ayrim metall buyumlar qolgan xolos. Bu topilmalarga ko'ra, qadimgi qabrlarning aksariyati milodiy I-VIII asrlarga tegishli ekanligi aniqlangan.

Angren shahridan 2 km masofada joylashgan Apartak qo'rg'onida 1960-70-yillarda ba'zi bir qabrlar qazib ko'rilgan. Ular tosh uyumi ostida to'g'ri to'rt burchak shaklida qurilgan er osti kameralari bo'lib, ular gumbazsimon shiftli kamera va uzun tor er osti yo'lak (katakomba) tuzilishida bo'lgan. Ularning deyarli ko'pchiligi o'g'irlangan. Bizgacha saqlanib qolgan (ba'zi bir mozorlarda) sopol parchalari, bronza, shisha, oltin munchoq va boshqa ashyoviy dalillar uchratilib, ular tahliliga ko'ra, Apartak qo'rg'onlari ilk o'rta asrlarga tegishli ekanligi aniqlangan³⁵.

O'tgan asrning 50-60-yillaridan boshlab Ohangaron havzasida tog'-kon sanoatini

³⁴ Буряков Ю.Ф. и др. Ахеологические памятники Ташкентской области. – Ташкент, 1973. – С. 76-84.

³⁵ Агзамхожаев Т. Погребальные сооружения Чирчик-Ангренской долины 1-VIII вв. н.э. Автореф. Канд. Дисс. Ташкент, 1966; Буряков Ю.Ф. и др. Ахеологические памятники Ташкентской области. Ташкент, 1973, с 78, пункт №534.

rivojlantirish ishlarining boshlanishi munosabati bilan hududda keng ko'lamli arxeologik izlanishlar o'tkazishni taqozo qilar edi. Shu maqsadda 1959-yili O'zbekiston FA Tarix va arxeologiya instituti va O'zbekiston tarixi davlat muzeyi ilmiy jamoasining birlashgan arxeologik jamoasi xududni ilmiy jihatdan o'rganish ishlarini boshladi. Gurux zimmasiga Ohangaron vodiysi o'tmishi bilan shug'ullanish, uning arxeologik ob'ektlarini topish va ularni o'rganish kabi masalalar yuklatilgan. Arxeologik otryadga rahbar Yu.F. Buryakov, uning ilmiy maslahatchisi etib M.E.Masson tayinlangan. Otryad a'zolari 1959-1963, 1966, 1968 yillarda Ohangaron vodiysining qadimgi shahar va qishloqlari, mozor-qo'rg'onlar, qadimgi ruda konlari, ruda eritish pechlari va boshqa turdagi yodgorliklarni topish, ularni xaritaga tushirish, ilmiy tavsiflash, ularning ba'zilarida arxeologik qazishmalar o'tkazish bilan shug'ullandi³⁶. Gurux shuningdek, Ohangaron vodiysi o'tmish tarixiga doir yozma manba ma'lumotlarini to'plash, ularni arxeologik yodgorliklar bilan lokalizatsiya qilish kabi izlanishlar bilan ham shug'ullandilar. Arxeologik izlanishlar jarayonida Iloqning qadimgi shahar xarobalari hisoblangan Tunkat, Kulota, Obliq, Abriq, Namudliq, Kuhisimda stratigrafik qazishmalar olib borildi. Rudakorlar qishlog'ida, Kendirsoy, Qo'yliqsoy, Oqtosh, Toshbuloq kabi metall eritish ob'ektlarida arxeologik izlanishlar olib borildi, Pskent tumanida mozor-qo'rg'onlar ochildi. Qurama tog' tizmalarining Oqtepa, Kenko'l, Irsuv, Navgarzan, Lashkarak, Tuzko'l, Qo'shbuloq, Tog'berdi, G'ishtsoy, Kendirsoy, Shovgaz, Ungurlikon, Ko'ktepa, Qoratosh, Qoratepa mis koni, Sartabutkon, Qalmoqqir, Nokpoy, Balikti, Kulemas, Qo'yliqsoy, Oqtoshkon, Konimansur, Qoratoshqo'ton, Adrasman, Samarchuk, Qizilolmasoy, Qaytar kabi ruda qazilma joylari hisobga olindi³⁷.

Shuningdek, otryad asosiy e'tiborni kam o'rganilgan yuqori Ohangaron vodiysi hududlariga qaratib, tog' soylari yonbag'irlari bo'ylab Farg'ona vodiysiga o'tgan tog', savdo-karvon yo'llarini o'rganish maqsadida Angren platosi (yassitog')ga marshrut uyushtirdi. Natijada, Ohangaron vodiysidan Farg'ona vodiysiga olib boruvchi Qamchiq, Pangaz, Kendir, Taboshar dovonlarini o'rganishga muvassar bo'ldi³⁸.

Ammo, yuqori Ohangaron vodiysida olib borilgan bu arxeologik izlanishlar

³⁶ Буряков Ю.Ф., Қосимов М.Р., Ростовцев О.М. Тошкент областининг археологик ёдгорликлари. – Ташкент: Фан, 1975. – Б. 120.

³⁷ Буряков Ю.Ф. Горное дело и металлургия средневекового Илака. – Ташкент-1974. – С. 12-14.

³⁸ Буряков Ю.Ф., Қосимов М.Р., Ростовцев О.М. Тошкент областининг археологик ёдгорликлари. – Ташкент: Фан, 1975. – Б. 120.

dastlabki qidiruv (razvedka) izlanishlari xarakterida bo‘lib, ro‘yxatga olingan yodgorliklarda keng ko‘lamli arxeologik qazishmalar olib borilmagan, ob’ektlarning to‘liq tavsifi, ularning xarakteriga xos jihatlari ochilmagan, yodgorliklar xususiyatiga ko‘ra tizimga solinmagan. Yodgorliklarning davriy tizimi ishlanmagan, tog‘ tizmalari yonbag‘irlarida va soy havzalarida istiqomat qiluvchi chorvador qabilalarning o‘troqlashish jarayonlari, kompleks xo‘jalik yuritish xususiyatlarini ochishga qo‘l urilmagan.

Tadqiqotchilar Qovunchi madaniyatining kelib chiqishi va yodgorliklari topografiyasini o‘rganishga, uning davriy xronologik bosqichlarga bo‘linishi masalalariga katta e‘tibor beradilar. Ayniqsa, Qovunchi madaniyatining xronologiyasiga oid muammolar S.P.Tolstov³⁹, T.N.Knipovich⁴⁰, A.I.Terenojkin⁴¹, K.Sh.Shoniyozov⁴², L.M.Levina⁴³, Yu.F.Buryakov⁴⁴, M.I.Filanovich⁴⁵, A.Asqarov⁴⁶, O.Inomov⁴⁷ kabi tarixchi-arxeologlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Bu madaniyatga tegishli barcha jihatlar shu davr sopol buyumlarida o‘zining yorqin ifodasini topadi. Qovunchi madaniyatining keramika komplekslari tahliliga asoslangan L.M.Levina Toshkent vohasi materiallarini Janubiy Qozog‘iston komplekslari bilan qiyosiy o‘rganib, Qovunchi madaniyati materiallarini bir butun ilmiy tizimga solgan⁴⁸.

Yuqori Ohangaron havzasidan topilgan 10 ga yaqin qadimgi metall ishlab chiqarish ob’ektlari arxeolog Yu.F.Buryakov boshchiligidagi guruh tomonidan o‘rganib chiqilgan⁴⁹.

Masalan, geolog Yu.M.Belyakov tomonidan Chotqol tog‘ tizmasining

³⁹ Толстов С.П. К вопросу о датировке культуры Каунчитепе // ВДИ. – М., 1946. – № 1, – С. 175-176.

⁴⁰ Книпович Т.Н. Некоторые вопросы датировки среднеазиатской керамики домусульманского периода // КСИИМК. – М., 1948. – № 28. – С. 153.

⁴¹ Тереножкин А.И. Рец. на работу Г.В.Григорьева на Каунчитепе. Уз ФАН СССР, -вып. 8. 1940. – С. 81-84; Тереножкин А.И. Согд и Чач // КСИИМК, – М., 1950. – № 33.

⁴² Шониёзов К.Ш. Қанғ давлати ва қанғлилар. – Тошкент: Фан, 1990; Ўша муаллиф. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т.: Шарк, 2001.

⁴³ Левина Л.М. Керамика нижней и средней Сырдарьи в I тыс. н.э. – М., 1971. – С. 90-193.

⁴⁴ Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Тошкент: Фан, 1982. – С. 70-80; Буряков Ю.Ф., Дадабаев Г. Памятники античного времени в Ташкентском оазисе // ИМКУ. – Т.: 1973. – № 10. – С. 38-51.

⁴⁵ Филанович М.И. Шаштепа – древнейшее поселение оседлых земледельцев на территории Ташкента. Кн. «У истоков древней культуры Ташкента». – Т.: 1982. – С. 91-124.

⁴⁶ Аскарлов А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: “O'zbekiston”, 2015. - 672 бет.

⁴⁷ Иномов О. Қовунчи маданияти ва унинг ўзбек халқининг шаклланишидаги роли. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори илмий (PhD) даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. – Тошкент, 2019. 163 бет.

⁴⁸ Левина Л.М. Керамика нижней и средней Сырдарьи I тыс. н.э. – М., 1971. – С. 90-193.

⁴⁹ Буряков Ю.Ф. Горное дело и металлургия средневекового Илака. – М., 1974. –С. 142.

O'zbekiston-Qirg'iziston chegarasida, Kenko'lsoyning o'rta oqimi chap sohili hududida va Chadaksoyning Irisu irmog'i chap sohilida qo'rg'oshin koni borligi aniqlangan. Ohangaron daryosining Navgarzan irmog'i bo'ylab ikki joyda qadimgi kon qazilmalari topilgan. Bu joy rudasi tarkibida esa qalay va qo'rg'oshin mavjudligi aniqlangan. Yuqori Ohangaronning Nishboshsoy qishlog'ida Lashkarak koni ochilgan. Lashkarakda 1927 yildayoq geologlar qadimgi qazilma toshqollari mavjudligini ta'kidlaydilar. Bu joyda 400 m. uzunlik oralig'ida polimetal rudalar olinganligi aniqlanadi. Ruda tarkibida ayniqsa kumush ko'pligi ta'kidlanadi. 1962 yilda Yu.F.Buryakov Lashkarakda arxeologik qazishmalar olib boradi, qadimgi ruda eritish qo'ralari tozalanadi. Zamonaviy hisob-kitoblarga ko'ra, qadimda Lashkarak konidan kamida 400 tonna sof kumush olingan.

Kon karyeri va uning er osti kameralarida uchratilgan sopol parchalariga ko'ra, Lashkarak ruda koni ilk bor VII-VIII asrlarda ishga tushgan, IX-X asrlarda esa intensiv ishlagan. Lashkarak Shoshning yirik kumush koni sifatida Iloqning Kuxisim konidan qolishmaganligi o'rta asrlar davri yozma manbalarida eslab o'tiladi⁵⁰. X asr oxirida Qoraxoniylarning Somoniylar davlati hududlariga harbiy yurishlari tufayli, ruda qazish ishlari to'xtaydi, qator er osti kameralari berkitib qo'yiladi. XI-XII asrlarda kon bilan bog'liq ishlar yana jonlanib ketadi. Yuqori Ohangaronda oltin konlarini qidirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Geologlar mahalliy aholi orasida yurgan oltin konlari haqidagi rivoyatlarga asoslanib, qidiruv ishlarini faollashtiradilar. Yuqori Ohangaronda oltin konlarini topishda birinchi kashfiyot geologiya ilmiy ekspeditsiyasiga nasib etadi. Geologlar bilan birgalikda 1962 yilda arxeolog Yu.F.Buryakov kon zonasida arxeologik qazishmalarni boshlab yubordi. Arxeolog va geoglarning e'tiborini ruda konining Qo'shbuloq, Tog'berdi va Guldurama punktlari o'ziga tortdi. Chunki, ayniqsa Qo'shbuloq rudalarida taram-taram oltin zarrachalari ko'p edi. Qo'shbuloq konining qiyali adirlari qalimgi ruda qazish chuqurchalariga to'la bo'lgan. Ularning chuqurligi har xil, ular bir-birlari bilan er osti kameralarda birlashgan, ular qiyali va vertikal quduqchalarni eslatadi⁵¹.

Ular xronologik jihatdan ikki davrga tegishli bo'lib, birinchi guruh qazilma

⁵⁰ Буряков Ю.Ф. О местонахождении "серебряного рудника Шаша" // ОНУ. № 12. – Ташкент, 1965. – С. 28-30.

⁵¹ Буряков Ю.Ф. О местонахождении... – С. 29.

quduqlari juda sayoz. Masalan, 4 va 6-zonalarda oltin zarrachali rudalar deyarli er yuzasida bo'rtib turgan toshlarda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Ularning ba'zilari keyingi asrlarda ham foydalanilgan bo'lib, ularning chuqurligi 50 metrgacha borib etgan. Qadimgi ruda konlarning ruda ko'chirish mehnat qurollari sodda, amorf shaklda, ishchi qismi uchirilgan tosh boltalardan iborat. Bu joydan topilgan sopol parchalari turli davrga oid, ularning ko'pchiligi kulolchilik charxida yasalgan, davriy jihatdan milodiy VIII-X asrlarga tegishli. Ular orasida qo'lda ishlangan qo'pol, qalin devorli, yuzasi chekma nuqtalar, chizma lenta va uchburchaklardan tashkil topgan naqshlar bilan qoplangan. Ularni Yu.F.Buryakov Burchmulla qo'rg'onlari keramikasi bilan o'xshashligini qayd qilib, mil. avv. VII-IV asrlar bilan davriy sanasini belgilaydi⁵². Biroq, bu sopol parchalarini ko'zdan kechirgan arxeolog A.Asqarov "bu sopol parchalari so'nggi bronza va ilk temir davri chorvador Andronovo madaniyati qabilalari sopol buyumlarini eslatadi"⁵³, degan xulosaga kelgan.

Ikkinchi guruh ob'ektlar 12 va 14-zona ruda qazish quduqlari bo'lib, ularning chuqurligi geologlar bergan ma'lumotlarga ko'ra 120-130 metrgacha boradi. Ulardan uzunligi 60-70 metrgacha borgan quduqlar tozalab ko'rilgan. Bu quduqlar qiyali tonnel tarmoqlaridan iborat bo'lib, ularning devorlari va shiftini mash'ala va pilta chiroqlar qurumi bosgan. Joylarda kirkasimon metall cho'qmor izlari saqlangan. Ba'zi kengroq ochilgan joylarda kamera poliga doska tashlangan. Suv yig'ilib qolgan joylarda yog'och taxtalardan yasalgan chanasimon ruda tashish aravachalarining parchalari uchraydi. Ruda transportirovkasi uchun ishlangan chana Shelji ruda koni quduqlaridan birida topilgan⁵⁴. Chanalar charm arqoniga bog'langan ikkita yog'och halqa qoldiqlari ikkinchi guruh ob'ektlaridan topilgan⁵⁵. Huddi shunday yog'och halqa geolog O.I.Islamov va arxeolog B.A.Litvinskiylar tomonidan Janubiy Chatqolda topilgan⁵⁶.

1962 yilda Qo'shbuloqda yo'l qurilishi vaqtida mis tanga – fals topilgan. U 943 yilda Samarqandda zarb etilgan. 1964 yilda geolog G.I.Lapin tomonidan Guldurama konidan XI asr boshida Iloq dehqonzodasi Muhammad ibn Mansur zarb ettirgan mis

⁵² Буряков Ю.Ф. Горное дело... с. 24.

⁵³ Буряков Ю.Ф., Қосимов М.Р., Ростовцев О.М. Тошкент областининг археологик ёдгорликлари. – Ташкент: Фан, 1975. – Б. 120.

⁵⁴ Бубнова М.А. Добыча серебро-свинцовых руд в Шельджи в IX-XII вв. // Археологические памятники Таласской долины. – Фрунзе, 1963. – С. 233-234.

⁵⁵ Буряков Ю.Ф. Горное дело... с. 26.

⁵⁶ Литвинский Б.А. Среднеазиатский горный промысел в средние века (IX-XII вв.). С.52.

tanga topilgan. Demak, bu topilmalar Qo'shbuloq guruhi konlarini qachon va qaysi davrda o'zlashtirilganligi haqida arxeologik materiallar aniqlik kiritadi.

Yuqori Ohangaron zonasida yana Gushtsoy, Kendirsoy, Qizilolmasoy sohillarida, Samarchuk, Ko'kral va Namudlig' deb atalgan mavzelarda qadimda o'zlashtirilgan metall ishlab chiqarish punktlari topilgan⁵⁷. Ularda ruda eritish qo'ralari, ular atrofida toshqol uyumlari hamda metallurgiya ustaxonalari izlari topilgan. Ushbu punktlar hududiy doirasidan terib olingan ko'tarma materiallar tahliliga qaraganda, ularning aksariyati so'nggi antik davrida va ilk o'rta asrlarda o'zlashtirilgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Mustaqilliq yillarida Yuqori Ohangaron havzasida olib borilgan ishlar, ayniqsa taqsiq loyiq bo'ldi. 2009 yilda akademik A.Asqarov boshchiligidagi guruh tomonidan Ohangaron havzasining Yuqori Ertosh qishlog'ida III-IV asrlarga oid O'ralitepa ibodatxonasida, Taypan qishlog'ida I-IV asrlarga oid mozor-qo'rg'onlardan birida qazish ishlari olib borildi va ushbu yodgorliklar II-IV asrlarga oidligi aniqlandi⁵⁸.

2010-2012 yillarda akademik Ahmadali Asqarov boshchiligidagi arxeologik izlanishlar natijasida bu havzada joylashgan Yuqori Chinor yodgorligidagi mozor-qo'rg'onlar topib o'rganilib, ular Qovunchi madaniyatining 2-bosqichiga oidligi aniqlandi⁵⁹.

2012 yilda Angren-Pop temir yo'lining qurilishi munosabati bilan bu yo'lining Ohangaron tumanidan o'tgan qismida arxeologik qidiruv ishlari olib borilib uchta joydan mozor-qo'rg'onlar aniqlangan⁶⁰.

Arxeolog D.Normurodov Toshkent vohasini arxeologik jihatdan rayonlashtirish muammosini qayta ko'rib chiqish jarayonida Ohangaron havzasining Yuqori, O'rta va Quyi havzalarga bo'linishi masalasiga ham e'tibor qaratgan. U Ohangaron havzasining Yuqori oqimiga Ohangaron daryosi irmoqlarining boshlanishidan to Ohangaron suv omborigacha bo'lgan hududlarni kiritgan⁶¹.

2018-2019 yillarda Ertosh qishlog'ida olib borilgan qazishmalar alohida ahamiyat

⁵⁷ Буряков Ю.Ф. Горное дело... с. 29-43.

⁵⁸ Аскарлов А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: "O'zbekiston", 2015. - 672 бет.

⁵⁹ Қўрсатилган жойда.

⁶⁰ Анарбоев А.А., Баратов С.Р., Буряков Ю.Ф., Вульферт Э.Ф. Археологическая разведка и исследования по железнодорожной трассе Ангрен-Поп // АИУЗ 2012 год. – Самарканд, 2013. – Вып. 9. – С. 17-20.

⁶¹ Нормуродов Д. Р. Тошкент воҳасининг қадимги ва ўрта асрлар даври моддий маданияти тарихи (мил. Авв XIII-миллодий XIII аср бошлари): Дисс... (PhD). - Тошкент, 2020. 1-илова. 306-бет

kasb etadi. Yuqori Ohangaron havzasida, Ohangaron daryosiga Ertoshsoy nomli irmoq Chotqol tog‘ tizmalaridan kelib qo‘shiladi. Bu soy suvi Angren-Qo‘qon avtomagistral yo‘lining taxminan 40-kilometrida Ohangaronga kelib tutashadi. Ushbu joydan shimolda, Ertoshsoyning o‘ng va so‘l tomonlari bo‘ylab 15 km masofagacha aholi istiqomat qiluvchi turar joylar tarqalgan. Bu hududlar Ertosh qishlog‘i nomi bilan ataladi. Bu qishloq har tomonlama tog‘lar bilan o‘ralgan, sovuq havo oqimlaridan panada joylashgan. Qishloqning qulay iqlim sharoiti tufayli qadimdan chorvadorlar makoniga aylangan. Keyinchalik turar-joylar atroflari o‘zlashtirilib, bog‘u-rog‘lar bunyod etilgan.

Mehmondo‘st qishloq aholisining deyarli hammasi bir-biriga qarindosh, har bir inson o‘z makondoshini, hattoki, chorva moligacha taniydi. So‘lim tabiati tufayli yilning may-sentabr oylarida qishloqqa keluvchilarning keti uzilmaydi (4-rasm).

Ertoshsoy toponimi haqida turlicha qarashlar mavjud bo‘lib, ulardan birida bu erdagi qattiq toshli qoyalar otning egariga o‘xshatilib, mahalliy qurama xalqlari tilida “egar” “iyar” tarzida talaffuz qilinishi, Ertoshning nomi ham Iyartoshdan kelib chiqqanligi haqida mulohaza qilinadi⁶². Yana bir rivoyatga ko‘ra, Ertosh toponimining paydo bo‘lishi Toshen ismli shaxs erining toshli ekanligi tufayli Ertosh deb nom bo‘lib ketganligi aytib o‘tiladi⁶³.

Soy bo‘ylab 10 km chamasida yuqoriga ko‘tarilib borilganda Ertoshsoyning chap tomonida tog‘lar yonbag‘irlari aholi tomonidan uy-joylar qurilib, bog‘lar barpo etilgan. Mahalliy tadbirkorlardan A.Isabekovga tegishli olma daraxtlarni sug‘orish vaqtida taxminan diametri 2 metr chamasida maydonda cho‘kma hosil bo‘lib, uni o‘pirilishi sezilib qoladi. Bog‘ egasi bu jarayonni o‘z ukasi, arxeolog A.Asqarovning shogirdi, Bekzod Isabekovga etkazadi.

2018 yilning iyul-avgust oylari davomida arxeolog A.Asqarov shogirdlari ishtirokida cho‘kmalarni ochib o‘rganadilar. Natijada bu joy qadimgi qabriston ekanligi aniqlanadi. Ob‘ekt joylashgan maydon dengiz sathidan 1600-1700 metr balandlikda. Mozor-qo‘rg‘on o‘rning tabiiy-geografik holati, tog‘ yonbag‘rida joylashganligi va u erda do‘lana daraxtlari ko‘pligi sabab, akademik Ahmadali Asqarov tomonidan bu

⁶² Qorayev S. Toponimika: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 320 b.

⁶³ Ёрматов И. Охангарон водийси жой номларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2016. 143-б.

ob'ektga shartli ravishda "Ertosh-Do'lana" deb nom berildi (5-rasm).

Yodgorlikni o'rganish natijasida bu erdan katakombali tipidagi qabrlar va ularda turli xil buyumlar bilan birga dafn qilingan inson suyaklari topildi. Xuddi shunga o'xshash mozar qo'rg'onlar Toshkent vohasining Piskent, Kavardan, Taypan, Yuqori Chinor, Do'lanabuloq, Turqushn kabi yodgorliklarda ham aniqlangan. Bu qabrlardagi topilgan ashyolarda ham Ertosh-Do'lana qabristonidan topilgan ashyolarga o'xshashlik kuzatiladi. Qovunchi madaniyati kulolchilik buyumlarini tahlil qilgan Y.F.Buryakov⁶⁴, L.Levina kabi arxeolog tadqiqotchilar bunday buyumlarni Qovunchi madaniyatining ikkinchi bosqichi bilan belgilagan⁶⁵. Yuqoridagi yodgorliklardan ikkitasida arxeolog A.Asqarov boshchiligidan 2009 yilda Ohangaron daryosining yuqori oqimidagi Chinor qishlog'ining yuqori qismida, Qo'qon-Angren yo'li yoqasida Taypan qishlog'ida (2010 y.) bitta katakombali mozar ochib o'rganilgan.

Shunday qilib, Ohangaron vodiysida ma'dan konlarini ilk bor o'zlashtirilishi arxeologik materiallar tahliliga ko'ra, so'nggi bronza va ilk temir davridan boshlangan. U davrda harbiy qurollar yasash uchun ko'chmanchi chorvador Andronovo qabilalari metall xomashyosi qidirib, tog' sanoati bilan shug'ullangan. Bu davrga oid konlar Ohangaron vodiysida ilk bor Qo'shbuloqda kuzatiladi. Mintaqa konlarini keng ko'lamli o'zlashtirilishi antik davriga, ayniqsa so'nggi antik va ilk o'rta asrlarga to'g'ri keladi. VII-VIII asrlarda Iloqda ruda konlarini topish va o'zlashtirish yanada rivoj topadi.

Vohadagi Ertosh qishlog'i va uning so'lim tabiati qadimiy turkiy xalqlarni o'ziga jalb etadi. Bu erda qo'nim topgan aholi ko'chmanchilikdan o'troqlikka o'tib, aynan shu makonda uzoq vaqtlar yashab qolishdi. IX-X asrlar esa mintaqada metallurgiya hunarmandchiligining gullab-yashnagan davri bo'ldi. XI asr boshlarida sulolaviy davlat o'zgarishlari tufayli, tog'-kon sanoati hunarmandchiligiga kundalik hayotda biroz kam e'tibor qaratildi. Hokimiyatda Qoraxoniylar hukmronligi qaror topishi bilan tog'-kon sanoatiga e'tibor kuchayib, to Chingizxon harbiy yurishlariga qadar metallurgiya sanoati Iloq hayotida davlat ahamiyatiga molik etakchi xo'jalik yo'nalishi sifatida rivojlandi. Qoraxoniylarning xokimiyatni egallashi bilan Ohangaron vohasi manaviy qarashlarida o'zgarish yuz berib, aholisi islom dinini qabul qilishdi.

⁶⁴ Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Тошкент: Фан, 1982. – С.

⁶⁵ Левина Л.М. Керамика нижней и средней Сырдарьи в I тыс. н.э. – М., 1971. – С. 90-193.

I bob Yuzasidan xulosa

Ohangaron daryosining o'ng tomoni quyosh nurining yaxshi tushishi va sovuq shamolni tog'larning to'sib turishi, harakatlanish uchun yo'llar mavjudligi sababli aholi turar joyi manzilgohlari keng tarqalgan. Jumladan, Ohangaron havzasi o'ng tomonidagi Ertosh qishlog'i toza havosi, zilol suvlari, o'simliklari kishilarni qadimdan bu joyni o'zlashtirishiga sabab bo'lgan.

Ohangaron vodiysida ma'dan konlarini ilk bor o'zlashtirilishi arxeologik materiallar tahliliga ko'ra, so'nggi bronza va ilk temir davridan boshlangan. Keyinchalik bu jarayonlar davom etib, biz o'rganayotgan davrda ham konlarni o'rganish davom ettirilganligini topilgan yodgorliklar isbotlab turibdi.

Yuqoridagi sharoitlar tufayli, qadim zamonlardan Ertosh qishlog'i va uning so'lim tabiati, hayvonot va o'simlik dunyosi turkiy xalqlarni o'ziga jalb etgan. Ular ko'chmanchilikdan o'troqlikka o'tib, aynan shu makonda uzoq vaqtlar yashab qolishdi. Ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida, urf-odatlari, madaniy hayotida o'zgarishlar sodir bo'ldi. Islom dinini qabul qilishdi.

II BOB. ERTOSH-DO‘LANA QABRISTONIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK QAZISHMALAR.

II.1. Ertosh-Do‘lana qabristoni Qovunchi madaniyatining noyob yodgorligi

Ertosh-Do‘lana yodgorligi antik davr chorvadorlarining noyob yodgorligi bo‘lib, undan topilgan buyumlarning darak berishicha, qabriston Qovunchi madaniyatiga oid. Undan topilgan buyumlar esa Qovunchi madaniyatining II bosqichi bilan davrlashtiriladi. Qabristonni o‘rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, bu hududga ko‘chib kelgan chorvadorlar sharoit taqazosiga ko‘ra o‘troq turmush tarziga o‘tishgan.

Qovunchi madaniyatiga asos bergan uning dastlabki obyekti Qovunchitepa bo‘lib, bu yodgorlikda arxeologik izlanishlar ilk bor 1934-1935 yillarda G.V.Grigoryev tomonidan olib borilgan⁶⁶. U 1935 yilda Qovunchitepada olib borilgan arxeologik qazishmalarda asosiy e‘tiborni stratigrafik xarakterdagi izlanishlarga qaratdi⁶⁷. Qovunchitepada olib borilgan arxeologik qazishmalar G.V.Grigoryevga Toshkent arxeologiyasi tarixida katta ilmiy kashfiyot qilishiga olib keldi, ya’ni u Sirdaryoning o‘rta havzalarida antik va ilk o‘rta asrlar boshlariga xos Qovunchi arxeologik madaniyatini kashf etib, uni o‘zbek xalqi madaniyati tarixiga olib kirdi.

⁶⁶ Григорьев Г.В. Отчет об археологической разведке в Янгиюльском районе Уз.ССР в 1934 г. – Т.: 1935; Ўша муаллиф. Каунчитепа (раскопки 1935 г.) – Т.: 1940.

⁶⁷ Григорьев Г.В. Отчет об археологической разведке в Янгиюльском районе Уз.ССР в 1934 г. – Т.: 1935; Ўша муаллиф. Каунчитепа (раскопки 1935 г.) – Т.: 1940.

G.V.Grigoryev dastlab Qovunchitepa materiallarini ikki xronologik (Qovunchi I va Qovunchi II) bosqichlariga ajratib, uning quyi qatlamlarida temir buyumlar uchramagani bois, Qovunchi I madaniy qatlamlarini soʻnggi bronza, yaʼni mil.avv. II ming yillikning oxiri va I ming yillikning boshlariga tegishli boʻlishi mumkin, degan xulosaga keladi. Qovunchi II bosqichini esa mil.avv. I ming yillikning oʻrtalari bilan belgilab, u davr aholisini sak qabilalari madaniyati bilan bogʻlaydi⁶⁸.

Yodgorlikni oʻrganish natijasida bu erdan Qovunchi madaniyatining Qovunchi II bosqichiga oid katakomba shaklidagi qabrlar va ularning ichidan esa oʻzbek xalqi etnogenez tarixi uchun juda muhim boʻlgan noyob ashyoviy dalillar, birinchi navbatda koʻplab sopol idishlar topildi.

Xuddi shunga oʻxshash mozor qoʻrgʻonlar Toshkent vohasining Piskent, Kavardan, Taypan, Yuqori Chinor, Doʻlanabuloq, Turqushn kabi yodgorliklardan aniqlangan. Bu qabrlardagi topilgan ashyolarda ham Ertosh-Doʻlana qabristonidan topilgan ashyolarga oʻxshashlik kuzatiladi. Qovunchi madaniyati kulolchilik buyumlarini tahlil qilgan Y.F.Buryakov⁶⁹, L.Levina kabi arxeolog tadqiqotchilar bunday buyumlarni Qovunchi madaniyatining ikkinchi bosqichi, yaʼni milodiy II-IV asrlar bilan belgilagan⁷⁰. Yuqoridagi yodgorliklardan ikkitasida arxeolog A.Asqarov boshchiligida 2009 yilda Ohangaron daryosining yuqori oqimidagi Chinor qishlogʻining olib borilgan arxeologik izlanishlar chogʻida, hamda Qoʻqon-Angren yoʻli yoqasidagi Taypan qishlogʻida (2010 y.) bitta katakombali mozor ochib oʻrganilgan.

Qazishma ishlari jarayonida Ertosh-Doʻlana qabristonida mayitlar jamoaviy (oilaviy) tartibda koʻmilganligi aniqlandi. Ayrim skeletlarning oyoq tomonida olov izlari saqlangan. Qabrlarning baʼzilarida shagʻal toʻshalgan.

Qabrlarning barchasi togʻ yonbagʻri nishabligi boʻylab kovlangan. Dromos teshigining ogʻzi janubga qaragan. Qabrlar katakomba tarzida qurilganligi, uning tuproqlari tashlab ketmasligi uchun urning aynan qattiq, shoʻx(toshli) qatlamining tagidan xilxona qazilgan.

⁶⁸ Григорьев Г.В. Отчет об археологической разведке в Янгиюльском районе Уз.ССР в 1934 г. – Т.: 1935. – С. 39; Ўша муаллиф. Краткий отчет о работе Янгиюльской археологической экспедиции 1937. – Т.: 1940. – С. 9; Ўша муаллиф. Келесская степь в археологическом отношении // «Изв. АН Каз ССР» Серия археологическая. – Алма-Ата. 1948. – № 1. – С. 49.

⁶⁹ Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Тошкент: Фан, 1982. – С.

⁷⁰ Левина Л.М. Керамика нижней и средней Сырдарьи в I тыс. н.э. – М., 1971. – 242 с.

Topilgan 7 ta qabrdan faqat ikkitasidagina mayitlar tartib asosida qo'yilmagan. Qolgan qabrlardagi er-xotin skeletlari parallel tarzda boshi sharqqa qarab yotqizilgan. Agar qabrda bolalar uchratilsa ularda qatilylik ko'zga tashlanmaydi. Qabrlardan topilgan ashyoviy dalillar ularning hayotlik davrida shug'ullangan mashg'ulotini eslatadi. Agar skelet erkak kishi bo'lsa, yonidan pichoq, o'q uchlari, temir to'qa kabi buyumlar topildi. Ayol kishi bo'lsa, uning bo'yin qismida munchoq, tosh taqinchoq, bosh tomonida ham zeb ziynat buyumlari topildi.

Topilgan predmetlar ichida bronza zirak, qora serpintin toshidan yasalgan turli xil shakldagi tosh munchoq, geometrik shaklli ilohiylashtirilgan ko'zmunchoq, ko'kimtir shishadan bikonik shaklda yasalgan munchoq-bilakuzuk, och zarg'oldoq rangli toshdan yasalgan silindr shaklli va sirti qabariqli sharsimon pasta munchoq, temirdan yasalgan uzuk, mitti etikchani eslatuvchi toshtumor, oq shisha marjon shodasi, markaziy qismi maxsus teshilgan bronza plastinka, kichik qora toshdan qilingan taqinchoq va boshqalar ham topildi.

Ertosh-Do'lana mozor qo'rg'onining original tomoni shundaki bu qabristonda uch tarixiy davrga oid bo'lgan qabrlarni uchratish mumkin. Bular: Qovunchi II madaniyatiga oid katakomba shaklli, Qoraxoniylar davriga oid toshlardan terib chiqilgan "toshtobutli" qabrlar hamda hech qanday qurilmasiz erga ko'milgan qabrlardir. Ta'kidlash joizki, Qovunchi madaniyati qabrlarining yuqori gorizontida qoraxoniylar davri qabrlari joylashgan. Bu ushbu qabristonni xronologik ketma-ketligi haqida guvohlik beradi. Agar Qovunchi qabrlari katakomba tarzida, foydalangan buyumlari va idishlari bilan ko'milgan bo'lsa, qoraxoniylar davri qabrlarida qabr ashyoviy dalillari uchramaydi. Bu holat musulmon dini urf-odatlariga bilan bog'liq.

Bunday qoraxoniylar davri qabrlari Qozog'iston Respublikasi janubiy qismi, Arslonbob yodgorligidan, Samarqandda Afrosiyob yodgorligidan ham topib o'rganilgan⁷¹.

Qozog'iston hududida Keder shahri (Qo'yriqtobe posyolkasi) va Boba-Ata

⁷¹ Байпаков К.М. Древняя и средневековая урбанизация Казахстана (по материалам исследований Южно-Казахстанской комплексной археологической экспедиции). Книга II. Урбанизация Казахстана в IX – начале XIII в. - Алматы, 2013. - 514 с., илл. Стр-457.

shaharchasi yaqinidan bir nechta musulmon qabrlari topib o'rganilgan⁷².

Qozog'iston hududidagi qoraxoniylar davri qabrlari atrofi pishgan g'ishtdan qilingan tobutsimon yasama quti bilan o'rab chiqilgan. Tobut shaklini yasashda buzilgan imoratlarning g'ishtlaridan foydalanishgan.

Yuqorida nomi keltirilgan hududlardagi qabrlar shahar madaniyatiga oid bo'lib, mayit qo'yilgan tobutlar g'ishtlardan terilib yasalishi bilan Ertosh-Do'lana yodgorligidagi musulmon qabrlaridan farq qiladi. Ayrim qabrlarda tosh tobutning ustki qismi ham yapaloq toshlar bilan berkitilgan.

Bu yodgorlikning muhim jihati shundaki, Qovunchi madaniyatining chorvador vakillari milodiy II-IV asrlarda Yuqori Ohangaronning eng yuqori havzasigacha o'zlashtirganlar.

Qabrlarga dafn marosimlarida qo'yilgan buyumlar ichida Qovunchi madaniyati dastasi zoomorf shaklidagi kulolchilik buyumlari bilan birga Sarmat madaniyatiga oid kulolchilik buyumlari qo'yilganligi ham kuzatildi⁷³. Bu esa qadimgi qabila-elatlar migratsiyasi haqida ma'lumotlar beradi.

Bu yodgorlikdagi qabrlar ichidan ko'za, xurmacha, qo'ra-qumg'on, qo'ra, varonkasimon sopol suzg'ich, ayiq, ot, shoxdor qo'chqor tasviri tushurilgan yog'lig'ilar kabi sopol idishlarning topilishi uning qimmatini yanada oshiradi.

Qabr №1 va Qabr №2 dan topilgan ko'zalardan ikkitasining elka aylanasi bo'ylab kulolchilik pichog'i yordamida chiziqcha va uning ostidan bir dona xochsimon chiziq tortilgan. Ko'zalardan birining og'zi suv quyishga mo'ljallab tarnovsimon jo'mrak qilib ishlangan. Bu belgi Qovunchi II bosqichida bu zaminga kirib kelgan sarmatlar diniy qarashlarida xristianlikka ishora beradi.

Topilgan yog'lig'ilardan ko'pchiligining dastasiga burama shoxli qo'chqor shakli berilgan. Ayrimlarida ayiq va ot tasviri ham uchratildi.

Qabrlarda topilgan hunarmandchilik buyumlariga qaraganda Qovunchi madaniyatining qadimda Ertosh qishlog'i hududiga kelib o'troqlasha boshlagan chorvador vakillari hunarmandchilikning temirchilik, kulolchilik, toshtaroshlik sohalari

⁷² Байпаков К.М. Древняя и средневековая урбанизация Казахстана (по материалам исследований Южно-Казахстанской комплексной археологической экспедиции). Книга II. Урбанизация Казахстана в IX – начале XIII в. - Алматы, 2013. - 514 с.

⁷³ Аскарлов А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: "O'zbekiston", 2015. - 672 бет.

bilan ham yuksak darajada shug'ullanishganligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Ertosh-Do'lana yodgorligining o'rganilishi o'zbek xalqining dastlabki etnomadaniy asosini tashkil etgan Qovunchi madaniyati chorvador aholisi vakillarining Ohangaron daryosi yuqori havzalarida ham tarqalgani, o'troq hayotga o'tib borishi va arablar bosqinidan keyin islom dinini qabul qilishi, bundan ularda ko'mish marosimlaridagi o'zgarishlarni yanada yaqqol tasavvur etish imkonini beradi.

II.2. Ertosh-Do'lana qabristonini o'rganish metodikasi va uning stratigrafiyasi.

Ertosh-Do'lana yodgorligini keng ko'lamda qazish va o'rganish ishlari arxeolog A.Asqarov ilmiy rahbarligida 2018-2019 yillarda olib borildi. Qazishma ishlari O'zbekiston Respublikasi Innovatsion Rivojlanish vazirligi granti doirasida 2019-yilning iyun oylari boshlaridan amalga oshirildi. Bu yodgorlikni ilmiy o'rganishlikning quvonarli tomoni shunda ediki, qadimgi qabrlar o'z vaqtida qabr o'g'rilari tomonidan o'g'irlanmagan va shuning uchun skeletlar, sopollar, taqinchoqlar o'rni va joyi yaxshi saqlangan^{74*}.

Ertosh-Do'lana qabristonini qazishda, olmazor bog'ni sug'orish vaqtida qayerda cho'kma hosil bo'lgan bo'lsa, shu joylardan qabrni topish oson kechdi. Ammo, cho'kma belgisi qabrlar atigi 3 ta ekanligi aniqlandi. Qadimgi qabriston maydonida o'rganilgan boshqa qabrlarni topish ancha og'ir kechdi. Qovunchi madaniyatining katakombali qabrlarida mayitlar jamoaviy tarzda qo'yilgan bo'lib, skeletlar o'zaro qarindoshlik aloqalari bilan bog'langan. Agar qabrga birinchi qo'yilgan odamdan so'ng, oradan ma'lum yillar o'tib qaysidir oila a'zosi vafot etsa, u ko'milgan joyni tanib olish uchun qabrning ustki qismiga toshlar terib chiqilgan. Bu belgi toshlari esa hozirgi zamon mahalliy aholisi tomonidan bog' barpo etishda olib ketilib, xo'jalik maqsadlarida ishlatib yuborilganligi qabrlarni aniqlashda qiyinchilik tug'dirdi.

⁷⁴ * Ушбу диссертация муаллифи Убайдулла Исмоилов ҳам ушбу грант иштирокчиси сифатида 2019 йилда олиб борилган археологик изланишларда тўлиқ иштирок этган.

Yodgorlikda qabrlarni aniqlash qiyinligi sababli transheyalar qazildi. Transheyalar yodgorlikning janubi-sharqidan shimoli-g'arbga tomon yo'nalishda qazildi.

Shu uslubiy yondashuv bilan yana 4 ta qabr ochishga muvaffaq bo'lindi. Transheyalarning uzunligi 15-20 metr, eni 1 metr va chuqurligi 4-4,5 metrgacha qazilib (jami 15 transheya qazildi), pastdan yuqoriga, ya'ni janubdan shimolga qarab 21 metrgacha qiyalanib ko'tarilib borildi (6-rasm).

Transheyalar qazilishi jarayonida qabrlar joylashgan erning ustki 20-30-santimetr qismini chim va tomir bosganligi, taxminan 40-50-santimetrini mayda tosh aralash sog' tuproq qatlami va undan pastga qarab 4-4,5 metrgacha qismi esa soz tuproq qatlamidan tashkil topganligi ma'lum bo'ldi.

Qabrlar er sathidan 4-4,5 metr chuqurlikda joylashgan bo'lib, ularning barchasi oval shaklida bo'lgan. Katakomba tarzida ko'milganligi sabab, er tagida balandligi 1,5 m, eni va uzunligi o'rtacha 2,80×3 metrni tashkil etuvchi kamera – xilxonalar ochildi. Ularga dromos yo'lagi orqali kirilgan. Qabr lahadiga kirish qismi katta yaxlit tosh (monolit) yoki kichikroq hajmdagi bir necha toshlarni ustma-ust taxlab chiqish usuli bilan berkitilgan. Mozor-qo'rg'ondagi dromos yo'laklarining uzunligi o'rtacha 3-5 metrni, diametri esa o'rtacha 80-100 sm ni tashkil etadi.

Quyida biz tomondan qazilgan 15 ta transheya, ulardan topilgan Qovunchi madaniyatining katakombali qabrlari hamda tosh tobutli qabrlarga to'xtalib o'tamiz.

1-Transheya. O'rganilgan qabristonning eng janubida (pastda) qazildi. Janubiy-sharqdan shimoliy-g'arbga qarab cho'zilgan bu transheyaning eni 1 metr, uzunligi 14 metr, chuqurligi 3 metrni tashkil etadi.

Transheya qazilishi natijasida qabrlar joylashgan erning 20-30-sm.ini chim va tomir qatlam, taxminan 40-50-sm.ini mayda tosh aralash soz tuproq va undan pastga qarab 4-4,5 metrgacha qismi sof tuproq qatlamidan iborat ekanligi aniqlandi.

Ushbu transheyaning janubi-sharqiy burchagida 40-50 sm. chuqurlikdan shimoliy-g'arbga qarab 2 metr uzunlikdagi ikki tomoni silliq, to'g'ri to'rtburchak shaklidagi katta-katta daryo toshlari terilib, o'rtasiga jasad qo'yilgan qabr borligi aniqlandi. Atrofi tosh bilan o'ralgan qabrning ichki qismi eni 70 sm, bo'yi 185 sm. Jasad chalqancha yotqizilib, yuzi g'arb tomonga qaratilgan.

Bu tipdagi qabrlar o'tgan asrning ikkinchi yarmida Toshkent vohasi, Sirdaryoning o'rta havzasi, Samarqanddagi Afrosiyob yodgorligi va Qozog'iston Respublikasining janubiy qismidagi Arslonbob yodgorligidan⁷⁵ ham topilgan. Ushbu hudud va yodgorliklarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida ularning davriy sanasi milodiy X-XII asrlar bilan, asosan Qoraxoniylar davriga oid musulmon qabrlari ekanligi aniqlandi. Shunga asoslanib biz ham bu turdagi qabrlarni qoraxoniylar davriga oid degan xulosaga keldik.

2-transheya 1-transheyadan 5-6 metr shimolda, balandroqda qazildi. Bu transheya ham janubi-sharqdan shimoli-g'arbga tomon yo'naltirilib, uning eni 1 metrni, uzunligi 17 metrni tashkil etdi. Ushbu transheya ham oldingisi kabi 20-30 sm.li chim va tomir qatlamidan boshlandi. Undan keyingi 70 sm. qalinlikda mayda tosh aralashgan soz tuproqli qatlam joylashgan. Ushbu qatlamdan transheyaning janubi-sharqiy burchagidan 1, 1,5 va 3 metr masofada yuqorida ta'riflangan, islom dini an'analari asosida ko'milgan qablardan uchasi qayd etildi. Ulardan 3-qabr transheyaning o'rta qismida joylashganligi sababli o'lchamlar olindi. Ushbu qabrga yosh bola dafn etilgan bo'lib, uning bosh tomoni shimolga, oyoq tomoni janubga uzatilib, chalqanchasiga yotqizib qo'yilgan. Ustidan tuproq bilan ko'mib tashlangan. Transheyaning 1 metrdan pastki qismi sof tuproqdan tashkil topgan.

Ushbu qatlamdan transheya markaziga yaqin joyda er sathidan 1,30 santimetr qazib tushilganda ichi gumbaz shaklidagi qabrning ustiga duch kelindi. Ushbu qabr (4-qabr) poli erning ustki sathidan 2 metr chuqurlikda bo'lib, uning ichki tuzilishi aylana, gumbaz shaklida bo'lgan. Xilxonaga tepada yoriq hosil bo'lgan joydan tushildi va janubiy qismidagi dromos yo'lagidan kovlab chiqildi. Xona diametri 2,80 metr, balandligi 1,30 metr tashkil etadi. Unga uchta jasad boshi sharqqa, oyog'i g'arbga qaratilib, chalqancha yotqizilgan holda qo'yilgan.

3-transheya. Ikkinchi transheyaga parallel holda, undan 4,5 metr shimoli-sharqdan qazildi. Uning eni 1 metrni, uzunligi 13 metrni, chuqurligi 3 metrni tashkil qiladi. Transheyaning shimoliy devorida 2 ta musulmon qabrining janubiy burchagi, janubiy devori o'rta qismida esa xuddi shunday qabrning shimoliy tomoniga qo'yilgan

⁷⁵ Байпаков К.М. Древняя и средневековая урбанизация Казахстана (по материалам исследований Южно-Казахстанской комплексной археологической экспедиции). Книга II. Урбанизация Казахстана в IX – начале XIII в. - Алматы, 2013. - 514 с., илл. Стр-457.

xarsangtoshlari qayd qilindi.

4-transheya. Uchinchi transheyaga parallel. Eni 1 metr, bo'yi 15 metr, chuqurligi 3 metr. Transheyaning 20-30-santimetr qalinlikdagi yuqori qismi chim, tomir qatlam, undan keyingi 80-120 sm. mayda tosh aralash sof tuproq, tagi sof tuproq qatlamidan iborat.

Ushbu transheyaning o'rta qismidan ikkita musulmon qabrlari aniqlandi. Ushbu turdagi qabrlar haqida keyingi boblarimizda batafsil ma'lumot berib o'tilgan.

5-transheya. To'rtinchi transheyaga parallel. Shimoliy g'arbdan janubiy sharq yo'nalishida uzunligi 18,5 metr, eni 1 metr, chuqurligi 3 metr. Bu transheyadan Qovunchi madaniyatiga oid qabr chiqmadi. Ammo uning eng sharqiy burchagida musulmon qabrining shimoliy-g'arbiy burchak qismi qayd qilindi.

6-transheya beshinchi transheyadan 4 metr shimolda xuddi shu o'lchamda qazildi. Musulmon qabri transheyaning o'rta qismida qayd qilindi. Quyi qatlamlarda 3-3,5 metr chuqurlikkacha hech qanday qabr uchratilmadi.

7-transheya oltinchi transheyadan 5 metr masofada unga parallel holda qazildi. Eni 1 metr, uzunligi 16 metr chuqurligi 4 metrni tashkil etdi. Ushbu transheyadan jami 4 ta musulmon qabri va chap qanotdan 3,5 metr masofada qabr yo'li (dromos)ga duch kelindi. Dromos janubda shimolga tomon yo'nalishda bo'lib, u 2 metr chuqurlikda qayd qilindi.

8-transheya. Yettinchi transheyaga parallel tarzda uzunligi 17, 10 metr, eni 1 metr, chuqurligi 3 metr o'lchamda qazildi. Uning tepadagi 20-30 sm. chim va o'simlik tomiri qatlamidan boshlandi. Undan keyin 1 va 1,5 metr qalinlikni (chuqurlikni) mayda tosh aralashgan sof tuproq qatlami egallagan. Pastki qatlamidan esa sof tuproq joy olgan. Ushbu transheyadan ham 50-75 santimetr chuqurlikda atrofiga tosh qalab, ustiga tuproq ko'mib tashlangan musulmon qabri aniqlandi.

9-transheya. 8-transheyadan uch-to'rt metr shimoliy-g'arbda. Uning bo'yi 9,20 metr, eni 1 metr, chuqurligi 3 metrni tashkil qiladi. 20-30 sm. chim qatlam, 0,8-1,20 metr mayda tosh aralash sof tuproq, pastki qismi sof tuproqdan iborat. Transheyaning shimoli-g'arbiy burchagi 3×3 metr qilib kengaytirildi. Transheyadan musulmon davri qabrlari aniqlandi.

10-transheya. Ikkinchi transheyaning 1,5 metr janubiy burchagidan g'arbdan

sharqqa tomon yoʻnalishda qazildi. Uning eni 0,85 sm, uzunligi 15,75 metr, chuqurligi 3 metrni tashkil etadi.

Transheyada 0,75-1 metr chuqurlikda 3 ta atrofiga tosh qoʻyilgan qabr topildi. Birinchisi transheyaning gʻarbiy burchagidan 1 metr sharqda, ikkinchisi undan 75 sm. janubda, uchinchisi gʻarbiy burchakdan 7 metr janubda joylashgan.

10-transheyaning gʻarbiy burchagidan 3 metr janubga qarab 75 sm. chuqurlikdan atrofiga tosh qalangan qabrdan insonning son va boldir suyagi topildi. Skeletning boshi shimolga, oyogʻi janubga qaratilgan.

Qazilmaning yuqori 20-30 sm. chim, tomir qatlamidan iborat. Undan pastdagi 1-1,10 metr qalinlikda (chuqurlikda) mayda tosh aralash sof tuproq joylashgan. Undan pastda esa sof tuproq joylashgan. Transheyaning gʻarbiy burchagidan 7,5 metr janubda ham atrofiga tosh terib, ichiga mayit qoʻyilgan qabr joylashgan. Uning ham boshi shimolga, oyogʻi janubga qaratilgan. Mayit chalqancha yotqizilib, yuzi gʻarbga burilgan.

10-transheyani 3,5 m. chuqurlikda qazilganda dromos yoʻlagi topildi. Dromos janubdan shimol tomonga qiyali pastlab borib, er sathidan 4,30 m. chuqurlikda qabr kamerasi teshigi bilan toʻqnashadi. Qabr teshigi yaxlit tosh bilan berkitilgan. Oʻsha toshning oʻlchami 65×77sm.ni tashkil etadi. Dromos yoʻlagidan teshik orqali qabr ichkarisiga qazib kirilgach, unga perpendikulyar tarzida katakombali qabrning lahad kamerasiga oʻtildi. Qabr kamerasining maydoni 250×280 sm., uning gumbaz shiftining balandligi 135 sm, er sathidan kamera poliga qadar 4,5 m. ekanligi aniqlandi.

11-transheya. 10-transheyadan yuqorida unga parallel tarzda sharqdan gʻarbga tomon eni 1 metr, uzunligi 16,5 metr, chuqurligi 3 metr qilib qazildi. 11-transheya ham boshqalari kabi 20-30 sm. chim-tomir qatlamidan boshlandi. Undan pastdagi 0,75-1,20 metr qalinlikda mayda tosh aralash sof tuproq oʻrnashgan. Ana shu qatlamdan uchta atrofiga tosh qalangan boshi shimolga, oyogʻi janubga qaratib koʻmilgan uchta musulmon qabri aniqlandi.

12-transheya. 11-transheyadan 4 metr yuqorida (shimolda), unga parallel tarzda qazildi. 12-transheyaning janubiy gʻarbdan shimoliy sharqqa tomon uzunligi 12,8 metr, eni 1 metrdan iborat. Ushbu transheya ham 3 metr chuqurlikka qadar qazib tushildi. Qazilmaning eng yuqoridagi 20-30 sm. qalinlikdagi qismi chim, oʻsimlik tomirlari

qatlami, undan pastdagi 1-1,5 metr chuqurlikkacha mayda tosh aralashgan sof tuproq qatlami, undan keyin sof tuproq qatlami oʻrnashgan. Ushbu transheyani burchagidan 3,3 metr janubda, shimoldan janubga yoʻnalgan, atrofiga tosh qalanib, ichiga mayit koʻmilgan qabr oʻrnashgan. Qabrdagi toshlar 80-100 sm. chuqurlikka qalangan.

12-transheyani burchagidan 0,8-1 metr shimoli sharqda Qovunchi madaniyatiga oid qabr (6-qabr) joylashgan. Uning poli er sathidan 3,6 metr pastda joylashgan. Polining diametri 2,7 metrni tashkil etdi. Tomi gumbazsimon shaklda, eng baland joyi 1,20-1,30 metrni tashkil qiladi. Ushbu qabrda uchta skelet joylashgan. Ulardan birinchisining boshi sharq tomonga, oyogʻi esa gʻarb tomonga qaratilgan. Ikkinchi marhum birinchisining beliga oyogʻi uzatilgan, boshi janubga qaratilgan. Uchinchi marhum qabr kamerasining gʻarbida boshi qismi janubga, oyogʻi shimolga uzatilgan holda topildi. Dromosning eni 60 sm., balandligi 50 sm., uzunligi 3 metr qiyalanib, janubdan shimolga qaratib pastlatib borilib, xilxonaga kirilgan. Xilxonaga tushish joyiga 50×60 sm.li yaxlit (ikkita) tosh yopib qoʻyilgan.

13-transheya 12-transheyaga parallel tarzda qazish ishlari olib borildi. Uzunligi 15,8 metr, eni 1,5 metr, chuqurligi 3-3,5 metr qazildi. Transheyani usti 20-30 sm. chuqurlikkacha chim-tomir qatlamidan, undan pastki 1-1,5 metr chuqurlikkacha mayda tosh aralash sof tuproq qatlami, undan pastki 1,9-1,8 metr chuqurligi sof tuproq qatlamidan iboratligi aniqlandi. Bu transheyadan hech qanday qabr izlari aniqlanmadi.

14-transheya. 15-transheyaga parallel tarzda qazildi. Sharqdan gʻarbga qarab uzunligi 13 metr eni 1 metr, chuqurligi 3 metrlik oʻlcham olindi. Transheyada uchta qatlam mavjud. Birinchi qatlam yuqoridan pastga qarab 20-30 sm. chim-tomirli qatlam. Ikkinchi qatlam chim qatlamidan keyin 0,8-1,1 metrli mayda tosh aralash sof tuproqli qatlam, undan keyingi qatlam sof tuproq qatlam joylashgan. Bu sharqiy tomonidan bitta musulmon qabri aniqlandi.

15-transheya 14-transheyaga parallel ravishda qazildi. Undan 5 metr balandda (shimolda) gʻarbdan sharqga tomon uzunligi 9,5 metr shimoldan janubga eni 90 santimetr, chuqurligi 1,5 metrni tashkil etgan holda qazildi. Qazilmaning yuqori qismi 20-30 sm. chim va oʻsimlik tomirlari joylashgan qatlam, undan pastdagi 1-1,5 metr chuqurlikkacha mayda tosh aralashgan sof tuproq qatlam, undan keyin sof tuproq

qatlamlardan iborat. Bu transheyadan ham hech qanday qabr izlari aniqlanmadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Ertosh-Do‘lana yodgorligi qabristonining qadimgi chorvador vakillari katakomba qabrlarni erning tuproq qatlamlarini chuqur o‘rgangan holda kovlashgan. Xilxonalar 20-30 sm lik tomir qatlamidan keyingi toshli, qattiq erning tagidan kovlangan. Bunda qabrlarning shift qismi tushib ketishining oldini olish e‘tiborga olingan. Lekin keyingi davrlarda bu hududning bog‘ga aylantirib sug‘orilishi qabr kameralari tuproqlarining pastga nurab tushib ketishiga sabab bo‘lgan.

Bu yodgorlikni o‘rganish metodikasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Ertosh-Do‘lana yodgorligidagi mozor-qo‘rg‘onlarining Qovunchi madaniyati qabrlari 4 - 4,5 metr chuqurlikda joylashganligi uchun ularni topish juda murakkab kechdi. Katakomba qabrlarini aniqlashda chuqur mushohada orqali, tog‘ning qiyalik tomonini e‘tiborga olgan holda, erda cho‘kma hosil bo‘lishi orqali topilgan qabrlarning tuzilishini e‘tiborga olgan holda transheya va shurf tashlash usullaridan foydalanildi.

Shurflar bo‘yi va eni 3×3 metr, chuqurligi 4-4,5 metrgacha o‘lchamda qazildi. Qabrlardan 2 tasi (2-Qabr va 3-Qabr) faqat shurf qazish yo‘li bilan, qolgan 5 ta qabr, ham transheya ham shurf qazish yo‘li bilan ochildi.

Topilgan Qovunchi madaniyati qabrlaridan birinchisi (1-qabr) 2018 yilning yoz oylarida ochilgan bo‘lib, u cho‘kkan erning ustidan 2×2 o‘lchamda to‘g‘ri pastga qarab kovlash orqali ochildi. Qazish jarayonida arxeolog A.Asqarov rahbarligida shogirdlari, arxeolog tadqiqotchilar: B.Isabekov, O.Inomov, mahalliy aholi vakillaridan Sh.Isabekovlar qatnashdi. Qabrning pol qismigacha qazib tushilgandan so‘ng shu narsa ma’lum bo‘ldiki, qabr 4 metr chuqurlikda joylashgan, dromos yo‘lagi janubi-g‘arbga qaratilgan va u janubi g‘arb tomonga qarab qiyalanib ko‘tarilib boradi. Dromos yo‘lagining uzunligi 3 metr ekanligi aniqlandi. Bu ma’lumotlar keyingi qabrlarni qazishda qanday metodlardan foydalanishimizga asos bo‘ldi (7-rasm).

2-qabr ushbu dissertatsiya muallifi ishtirok etgan 2019 yilgi arxeologik ekspeditsiya davomida mozor-qo‘rg‘onlarni qazigan hududning eng yuqori qismidan ochib o‘rganildi. 2-qabrga ham 1-qabr singari cho‘kma hosil bo‘lgan joydan pastga qarab 3×3 metrli o‘lchamda qazib tushildi. 2-qabr 1-qabrdan shimoli-sharqda joylashgan bo‘lib, uni 3,5 metr balandlikda kovlanganda qabr kamerasiga kirish yo‘lagining toshlariga duch kelindi. Aynan shu joydan dromos yo‘lagi janubga qarab

qiyalab ko'tarilib boradi. Qabr kamerasiga kirish og'zi ikkita yirik yapaloq tosh va bitta kichik tosh bilan yopib qo'yilgan. Qabr kamerasiga kirish qismining diametri 75×65 sm. Dromos og'zidan shimolga perpendikulyar qilib lahad qazilgan. Uning poli dromos sathidan 20-25 sm. pastroqda, er sathidan esa 3,75 metr chuqurlikda joylashgan. Bu qabr lahadi bo'lib, u oval shaklida, o'lchami 2,7×3,05 metrni tashkil etadi (8-rasm).

3-qabr 2-qabrning janubi-g'arbiy tomonidan, yuqoridagi qabrlar kabi olmazor bog' maydonida hosil bo'lgan uchinchi cho'kma ostidan topildi. Bizga oldingi qabrlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, qabr dromosi janubga qaratilgan. Shu narsani e'tiborga olgan holda cho'kmadan 2 metr chamasi pastroqda, janub tomonda 1×2,5 metrli transheya qazildi. Uning 2 metr chuqurligida ushbu qabrga olib boruvchi dromos ochildi. Dromos kesmasida qabr kamerasi teshigini berkitgan yaxlit plita tosh ochildi. Keyin shu tosh o'rnashgan joydan shimol tomonda, cho'kma maydonini qamrab olgan 2×2 metr o'lchamda shurf qazildi. Shurf ostidan qabr lahadi ochildi. Lahad poli er sathidan 3,85 sm. pastlikda joylashgan. U oval shaklida bo'lib, uning o'lchami 2,5×2,3 sm.ni tashkil qiladi. Lahadga g'arbdan gorizantal shaklda pastlashib tushgan dromos bo'lib, uning balandligi 60 sm., eni 75 sm. uzunligi 3 metr bo'lgan. Lahad og'zi 55×74×25 sm.li yaxlit tosh bilan yopib qo'yilgan. Dromos toshi lahad polidan 25 sm. balandlikda joylashgan.

Oldingi qabrlar ichidan topilgan skeletlar tartib bilan joylashtirilgan bo'lsa, 3-qabr ichidagilari esa tartibsiz holda dafn qilingan, ya'ni mayitlarning oyoq va bosh tomonlarining joylashuvida parallellikka e'tibor qaratilmagan (9-rasm).

Ertosh-Do'lana qabristonining 1-2-3-qabrlarigina cho'kma hosil bo'lgan joyni qazish natijasida o'rganildi. Qolganlarini esa A.Asqarov ko'rsatmasiga ko'ra, transheyalar qazish yo'li bilan qabrlar izlandi. 1-transheyadan 5-6 metr shimolda, balandroqda 2-transheya qazildi. Bu transheya ham janubi-sharqdan shimoli-g'arbga tomon yo'naltirilib, uning eni 1 metrni, uzunligi 17 metrni tashkil etadi.

Transheyalarni qazish jarayonida biz uchun ahamiyatli hisoblangan, katakomba tarzida qurilgan Qovunchi madaniyati qabrlarining o'lchamlari har tomonlama e'tiborga olindi. Ya'ni bir Qovunchi qabrining o'lchami o'rtacha 2,80×2,80 m ekanligi, hamda uning dromos yo'lagi uzunligi taxminan 2,5-3 metrni tashkil etishi hisobga olinib, transheyalar orasidagi masofa o'rtacha 2,5-3 metrni tashkil etdi. Shu jarayonda yoki

dromos yo‘lagiga yoki katakomba qabrning o‘ziga ust tomonidan tushib borish kerak edi. Ertosh-Do‘lana qabrlari katakomba tarzida qurilganligi uchun soz tuproqli qatlamning tagidan xilxonalar qazilgan, chunki xilxonaning tepa qismi cho‘kib, tuproq ko‘chib ketmasligi kerak bo‘lgan. Qadimgi o‘troqlasha boshlagan ertoshliklar buni ham e‘tiborga olishgan.

4-Qabr qabriston maydonining janubi-g‘arbida joylashgan. 4-qabrning topilishi aynan dissertatsiya muallifi, Ubaydulla Ismoilovning qazishmalari natijasi bilan bog‘liq. Transheya chuqurligi taxminan 1,5 metrga etganda transheyaning g‘arbiy tomoni yuzida teshikcha paydo bo‘ldi (10-rasm). 4-qabr xilxonasining tepa qismidagi tuproqlar cho‘kib ketmagan. Kamera ichiga nazar solinganda ichidagi ashyolarning joylashuvi aynan o‘z davridagidek saqlanib qolinganligini kuzatish mumkin. Bu qabrni o‘rganish xilxonaning ichiga tushgan holda amalga oshirildi. Cho‘kib ketmaganligi uchun, unga ortiqcha shurf tashlashning hojati qolmadi. Uning dromos yo‘lagi og‘zi janubi-g‘arbga qaragan bo‘lib, yuqoriga qarab ko‘tarilib boradi. Dromosning uzunligi 3 metrni, kengligi 70 sm, balandligi 80 sm.ni tashkil etadi.

Qabr kamerasining shifti qubba shaklda. Balandligi 2,8 sm.ni tashkil qiladi (10-rasm).

5-Qabr qabriston maydonining g‘arbiy qismida qazilgan 7-transheya kesmasida uchratildi. 7-transheya oltinchi transheyadan 5 metr masofada unga parallel xolda qazildi. Eni 1 metr, uzunligi 16 metr chuqurligi 4 metr. Ushbu transheyadan jami 4 ta musulmon qabri va chap qanotdan 3,5 metr masofada qabr yo‘li (dromos)ga duch kelindi. Dromos janubda shimolga tomon yo‘nalishda bo‘lib, u 2 metr chuqurlikda qayd qilindi.

Ertosh qishlog‘ining tabiiy-geografik sharoitidan kelib chiqib, deyarli har bir qabrning ochilish jarayoni qiyinchilik bilan kechdi. Qabrlarning qazilishi va tozalanishi vaqtida juda ko‘p marotaba yomg‘ir va jala yog‘ishi kuzatildi. Bu esa topilgan qabrlarning devori nurab, tuproq bilan xilxona ichi to‘lib qolishiga sabab bo‘ldi. Masalan, 5-qabr dromosidan ichkariga kirib, har bir qabrda qilinganidek, suratga olinib, qayd etib borildi, lekin hali xilxona to‘liq ochib bo‘linmagan edi. Garchi dromos yo‘lidan kirib borib, qabr xilxonasini eski qazilgan holatida tozalashga urinayotgan bo‘lsakda, hadiksirash natijasidan qabr tepasidan ham tuproq olib, yorug‘lik tushishi

uchun tuynuk ochildi. Bu ochilgan tuynukdan kuchli yomg'ir suvlari oqib tushib, xilxona devorlari tuprog'ini yumshatib, 5-qabrning tuproqqa to'lib qolishiga sabab bo'ldi. Qabrni o'rganish uchun esa qabrni loydan tozalashga to'g'ri keldi (11-rasm).

Qabrning ichki tuzilishi katakombali bo'lib, qabr kamerasi (lahad) er sathidan 4,25 metr chuqurlikda ekanligi aniqlandi. Lahad qismiing o'lchami $2,72 \times 2,80$ sm., uning qubbali shiftining balandligi 1,30 sm.ni tashkil qiladi. Qabr kamerasiga janubi-g'arb tomondan qqzib kelingan dromos orqali kirib kelingan. Dromosni uzunligi 3,5 metr bo'lib, uning diametri 0,65-0,75 sm bo'lgan. Dromos qabrga tomon qiyalab chuqurlashib borib, qabr og'ziga etganda lahad teshigi yaxlit tosh bilan berkitilgan.

6-qabr qabristonning markaziy qismida, 12-transheyaniing g'arbiy burchagida joylashgan. Transheyani qazish jarayonida qabr dromosining yo'lagiga duch kelindi. Qabrga kirish yo'lagi janubdan shimoli-sharq tomon yo'naltirilgan bo'lib, qazish davomida dromosning og'ziga qo'yilgan 2 ta plita tosh ochildi. Lahadga kirish qismi (60×70 sm) ana shu ikkita plita toshlar bilan bektilgan edi. Dromos yo'lining uzunligi 3 metr, kengligi 80 sm., balandligi 70 sm.ni tashkil etadi. Dromosga perpendikulyar qilib joylashtirilgan qabr kamerasining shifti kubbali bo'lib, uning balandligi 135 sm., oval shaklidagi kamera o'lchami $2,61 \times 2,54$ sm.ni tashkil etadi (12-rasm).

7-qabr. Qabristonning janubida qazilgan 10-transheyada 3,5 metr chuqurlikda dromos yo'lagi topildi. Dromos janubdan shimol tomonga qiyali pastlab borib, er satxidan 4,30 metr chuqurlikda qabr kamerasiga kirish qismi bilan to'qnashadi. Qabr teshigi yaxlit tosh bilan berkitilgan. O'sha toshning o'lchami 65×77 sm.ni ekanligi aniqlandi. Dromos yo'lagidan teshik orqali qabr ichkarisiga qazib kirilgach, unga perpendikulyar tarzida katakombali qabrning lahad kamerasiga o'tildi. Qabr kamerasining maydoni 250×280 sm, uning gumbaz shiftining balandligi 135 sm., er sathidan kamera poliga qadar 4,5 metr ekanligi aniqlandi. Qabr kamerasi tuproqdan tozalangach, ushbu oilaviy xilxonadan marhumlarni ko'mishda bir necha maratoba foydalanishganligi ma'lum bo'ldi (13-rasm).

Ertosh-Do'lana qabrlarining joyini aniqlash, o'rganishda shu paytgacha bunday mozor-qo'rg'onlardan anchasini ochishga muvaffaq bo'lgan arxeolog A.Asqarovning tajribalari va cho'kma hosil bo'lishi natijasida ochilgan qabrlarning joylashuvidan orttirilgan tajriba va bilimlarga tayanildi.

II.3. Ertosh-Do‘lana qabristonida Antik davr va Qoraxoniylar davri qabrlari, ularning dafn marosimlari

Qovunchi madaniyati davrida marhumlarning jasadlari soz tuproqli va tosh uyumli qabr qo‘rg‘onlariga dafn etilgan⁷⁶. Qabrlar o‘z tuzilishiga ko‘ra, yakka, juft yoki oilaviy xilxonalar bo‘lib, ular katakombali bo‘lgan. Jumladan, Kindiktepa, Kavardan, Piskent, Apartak, Ertosh-Do‘lana kabi joylardagi qabristonlardan qabr-qo‘rg‘onlari ochilgan. Ular asosan katakomba ko‘rinishida bo‘lib, jasadlar dromos yo‘lakchadan qabr lahadiga joylashtirilgan. Jasadlar lahadda chalqancha yotqizilgan. Qabrga marhum bilan birga idishlar (asosan sopol), mehnat qurollari, temir pichoqlar, kamar halqalari va zeb-ziynat taqinchoqlari ham qo‘yilgan. Bu udum nafaqat ko‘chmanchilarga, balki shahar aholisiga ham xos bo‘lgan. Bunday udum asosida dafn etish bizning hududda bronza davridan beri mavjud bo‘lgan. Bunga birgina Sopolli madaniyati misol qilib keltirishimiz mumkin⁷⁷.

Shuningdek bu qabrlarda marhumlar qo‘l va oyoqlari ochiq – “chavandoz” ko‘rinishida yotqizib dafn etilgan⁷⁸. Bunday ko‘mish odati mil. avv. II-I asrlarga oid “Sarmat madaniyati”ning Proxorov va Suslov madaniyatlarida ham uchratiladi⁷⁹. Bu Qovunchi va Sarmat madaniyatlarining o‘zaro yaqinligini ko‘rsatadi. Buni Ertosh-Do‘lana qabristonida olib borilgan tadqiqotlarimizda ham kuzatdik. Bundan tashqari qabrlarga dafn marosimlarida qo‘yilgan buyumlar ichida Qovunchi madaniyati dastasi zoomorf shaklidagi kulolchilik buyumlari bilan birga Sarmat madaniyatiga oid, qo‘lda ishlangan mo‘rt, qoramtir rangli idishlarning topilishi bu fiklarni tasdiqlaydi⁸⁰. Bu esa qadimgi migratsiyalar haqida ma’lumotlar beradi.

Topilgan 7 ta qabrdan faqat ikkitasidagina mayitlarni tartib asosida qo‘yilmagan. Qolgan qabrlardagi er-xotin skeletlari parallel tarzda boshi sharqqa qarab yotqizilgan.

⁷⁶ Агзамходжаев Т. Погребальные сооружения Чирчик-Ангренской долины I – VIII вв. н. э.: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1966; Буряков Ю.Ф., Касымов М.Р., Ростовцев О.М. Археологические памятники Ташкентской области. – Ташкент, 1973. – С. 76-84; Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы ... – С. 55-57.

⁷⁷ Аскарлов А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: O'zbekiston, 2015. - 672 бет.

⁷⁸ Древности Туябугуза. – Ташкент: Фан, 1978. – С. 118.

⁷⁹ Абрамова М.П. Сарматская культура II в. до н. э. – I в. н. э. (По материалам Нижнего Поволжья. Сусловская этап) // СА. – 1959. – №1. – С. 54-57.

⁸⁰ Аскарлов А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: O'zbekiston, 2015. - 672 бет.

Agar qabrda bolalar uchratilsa ular qat'iylik ko'zga tashlanmaydi. Qabrlardan topilgan ashyoviy dalillar ularning hayotlik davrida shug'ullangan mashg'ulotini eslatadi. Agar skelet erkak kishi bo'lsa, yonidan pichoq, o'q uchlari, temir to'qa kabi buyumlar topildi. Ayol kishi bo'lsa, uning bo'yin qismida munchoq, tosh taqinchoq, bosh tomonida ham zeb-ziynat buyumlari bilan topildi.

Qabrlarning hammasi tog' yonbag'ri nishablik bo'ylab kovlangan. Deyarli hammasining og'iz tomoni janubga qaragan. Ayrim skeletlarning oyoq tomonida olov izlari saqlangan. Qabrlarning ba'zilarida shag'al to'shalgan. Qabrlar katakombalar tarzida qurilganligi va uning tuproqlari tashlab ketmasligi uchun ularning qattiq qatlamining tagidan xilxona qazilgan.

Topilgan buyumlar ichida bronza zirak, qora serpentin toshidan yasalgan turli xil shakldagi tosh munchoq, geometrik shaklli ilohiylashtirilgan ko'zmunchoq, ko'kimtil shishadan bikonik shaklda yasalgan munchoq-bilaguzuk, och zarg'oldoq rangli toshdan yasalgan silindr shaklli va sirti qabarikli sharsimon pasta munchoq, temirdan yasalgan uzuk, mitti etikchani eslatuvchi toshtumor, oq shisha marjon shodasi, markaziy qismi maxsus teshilgan bronza plastinka, kichik qora toshdan qilingan taqinchoq va boshqalar ham topildi.

1-qabr. Qabr 4 metr chuqurlikda joylashgan, dromos yo'lagi janubi-g'arbga qaratilgan va u janubi-g'arb tomonga qarab qiyalanib ko'tarilib boradi. Dromos yo'lagining uzunligi 3 metr ekanligi aniqlandi.

Uning o'lchami 280×270 sm bo'lib, bu oval shaklidagi qadimgi qabr kamerasi bo'lib chiqdi. Kameraga janubi-g'arb tomondan kirish teshigi bo'lgan. Qabr teshigining diametri 65 sm tashqarisidan yaxlit plita toshi bilan berkitilgan. Unga janubi-g'arbdan qiyali ko'tarilib boruvchi dromos yo'lagi joylashgan. Dromosning uzunligi 3 metr ekanligi aniqlandi. Qabr teshigining shimoliy orqasida dromosga perpendikulyar qilib lahad qazilgan. Lahad deyarli oval shaklida, sharqdan g'arbga 280 sm shimoldan janubga 270 sm.ni tashkil qiladi. Qabr kamerasida 3 ta skelet topildi. Jasadlarning barchasini boshi sharqqa, oyog'i esa g'arbga qaratib qo'yilgan (14-rasm).

1-skelet qabrga kiraverishda joylashgan. U erkak kishiga tegishli bo'lib, bo'yi 190 sm.ni tashkil qiladi. Skeletning bosh tomonida 13 sm. uzunlikdagi temir pichoq (15.1-rasm) va bo'yin qismida qalamsimon tosh tumor (15.2-rasm) topildi.

2-skelet 1-skeletning o'ng tomonida joylashgan. Bu skelet ayol kishiga tegishli bo'lib, uning uzunligi 175 sm.ni tashkil etadi. Uning quloq bo'shlig'i qismidan bronza zirak (15.3-rasm), skeletning bir qo'l bilagida qora serpintin toshidan yasalgan turli xil shakldagi tosh munchoq, munchoqlar orasida yassitosh shaklida yasalgan munchoqning yuzasida geometrik shaklli ilohiylashtirilgan ko'zmunchoq joylashtirilgan (15.4-rasm). Ikkinchi bilagida ko'kimtil shishadan bikonik shaklda yasalgan munchoq-bilakuzuk topildi (15.5-rasm). Bilakuzuk munchoqlari orasida och zarg'oldoq rangli toshdan yasalgan silindr shaklli va sirti qabariqli sharsimon pasta munchoq ham bor (15.6-rasm). Qo'l panjasida temirdan yasalgan uzuk topildi (15.7-rasm). Munchoqlar orasida mitti etikchani eslatuvchi tosh predmet ham uchratilgan (15.8-rasm).

3-skelet 2-skeletdan o'ngda joylashgan. Bu skelet yosh ayol kishiga tegishli bo'lib, uning suyaklari deyarli chirib, kukunga aylanib ketgan. Uning bel qismida mato belbog'ning daraxtdan yasalgan to'qasi topildi. Yog'och to'qaga ikki tig'li mitti bronza naqshlar yopishtirilgan. Yog'och to'qada mato izlarining qoldiqlari saqlangan (15.9-rasm). Skeletning bo'yin qismida oq shisha marjon shodasi topildi (15.10-rasm).

2-qabr. Bu qabr 1-qabrdan shimoli-sharqda bog'ning sug'orilishi natijasida hosil bo'lgan ikkinchi cho'kma ostidan topildi. Bu joydagi qabr o'lchamii 3x3 metrli shurf qazish jarayonida aniqlandi. Shurfni er sathidan 3,5 metr pastga qazib tushilganda qabr kamerasiga kirish teshigini yopgan toshlar ochildi. Shu joydan janub tomonga qiyali ko'tarilib borgan dromos qazilgan. Teshik ikkita yirik yassi va bitta kichik toshlar bilan yopilgan bo'lib, ular bilan kameraga kirish teshigi berkitilgan. Teshikning diametri 75x65 sm. (16-rasm).

Dromos og'zidan shimolga perpendikulyar qilib lahad yasalgan. Uning poli dromos sathidan 20-25 sm pastroqda, er sathidan esa 3,75 metr chuqurlikda joylashgan. Bu qabr kamerasi oval shaklida bo'lib, o'lchamlari 2,7x3,05 m.ni tashkil etadi (17-rasm).

Qabr soz tuproqlardan tozalangach, uning polida 4 ta skelet qoldiqlari topildi. Skeletlar chirib kukunga aylangan va yomon holatga kelib qolgan. Skeletlarga qarab ularning jinsini aniqlab bo'lmadi. Ularning boshi sharqqa, oyog'i esa g'arbga uzitilib, chalqanchasiga yotqizilgan.

1-skelet lahadning o'rta qismida joylashgan. Uning izlarini uzunligi 1,8 metrga

etgan. Ushbu skelet erkak kishiga tegishli, deb taxmin qilindi. Chunki uning yonidan temirdan yasalgan pichoq topildi (18.1-rasm).

2-skelet 1-skeletdan o'ng tomonda joylashgan. Uning uzunligi 1,7 metrni tashkil qiladi. Skelet izlari birinchi skeletga nisbatan kichik va noziqroq. Bu ayol kishi bo'lishi mumkin. Chunki, har bir jamoaviy qabr oilaviy xilxonadir. Skeletlarning tagiga mayda tosh (shag'al) to'shalgan bo'lib, ushbu skeletning chap tomon qo'l barmoqlari yonida bitta katta tosh uchratildi. Ushbu skeletning bosh tomonidan temirdan yasalgan pichoq topildi (18.2-rasm).

3-skelet erkak kishiga tegishli ekanligi taxmin qilindi. Skelet izining uzunligi 1,8 metr bo'lib, bu skeletning tagiga ham mayda tosh to'shalgan. Skelet qo'l barmoqlarida 2 ta uzuk (18.3-rasm), oyoq tomonidan kamon o'qining uchi (18.4-rasm), bosh tomonidan temirdan yasalgan pichoq topildi (18.5-rasm). Skeletning chap qo'li yonida bitta katta tosh uchratildi.

4-skelet yosh qiz bolaga tegishli bo'lishi kerak, chunki uning bo'yin qismidan pastadan yasalgan silindr shaklidagi munchoqlar shodasi topildi (18.6-Rasm). Skeletning kukunga aylangan izlarining uzunligi 1,1 metrni tashkil etadi.

Qabr-3. Bu qabr ham yuqoridagilar kabi olmazor bog' maydonida hosil bo'lgan uchinchi cho'kma ostidan topildi. Uchinchi cho'kma 2-qabrdan g'arbda joylashgan. Cho'kmadan 2 metr chamasi pastroqda 1×2,5 metrli transheya qazilib, uning 2 metr chuqurligida ushbu qabrga olib boruvchi dromos ochildi. Dromos kesmasida qabr kamerasi teshigini berkitgan yaxlit plita tosh ochildi. Keyin shu tosh o'rnashgan joydan shimol tomonda, cho'kma maydonini qamrab olgan 2×2 metr o'lchamda shurf qazildi. Shurf ostidan qabr lahadi ochildi. Lahad poli er sathidan 3,85 sm. pastlikda joylashgan. U oval shaklda bo'lib, uning o'lchamii 2,5×2,3 sm.ni tashkil qiladi. Lahadga g'arbdan gorizantal shaklda pastlashib tushgan dromos bo'lib, uning balandligi 60 sm., eni 75 sm. uzunligi 3 metr bo'lgan. Lahad og'zi 55×74×25 sm.li yaxlit tosh bilan yopib qo'yilgan. Dromos toshi lahad polidan 25 sm. balandlikda joylashgan. Ushbu qabr o'pirilib tushgan tuproqdan tozalanganda qabr kamerasida chalqanchasiga yotqizilgan 5 kishini skeletlari borligi ma'lum bo'ldi (19-rasm).

Ushbu qabrdagi skeletlarning xilxonada joylashishi har xil, qat'iy Qovunchi madaniyatiga xos anatomik tartib kuzatilmaydi. Masalan, birinchi qabrda bosh chanoq

sharqqa qaratilgan bo'lsa, 2 va 3 qabrlarda marhumlar bosh chanog'i g'arbga qaratilgan, to'rtinchi skelet janubi-g'arbga, beshinchisining bosh chanog'i shimolga qaratilgan.

1 va 2-skeletlar dromos yo'lagiga perpendikulyar ravishda, lahadning shimoli sharqiga joylashtirilgan. 1-skelet chirib, butkul kukunga aylanib ketgan. Saqlangan suyak parchalariga qaraganda, uning bo'yi 1 metr atrofida bo'lgan.

1-skeletning chop tomonida 2-skelet joylashgan. Uning bo'yin uzunligi 1,8 sm.ni tashkil qiladi. 2-skeletning bosh tomonidan surmatosh shaklida toshtumor topildi. Dafina kiyimi qadalgan bronza taqinchoqlar, markaziy qismi maxsus teshilgan bronza plastinka, kichik qora toshdan qilingan taqinchoqlar topildi (20-rasm).

2 skeletdan o'ngda, bosh chanog'i dromosga qaratilgan 3- va 4-skelet joylashgan. 3-skeletning bo'yi 160 sm., 4-skeletning bo'yi 150 sm.ni tashkil etadi. 5-skelet kameraning shimoli-sharqiga joylashtirilgan. Uning bo'yi 1,75 metrni tashkil qiladi.

Qabirdagi 2-skelet bilan 3-skeletning o'rtasidan singan sopol parchalari, 4-skeletning chap tomoni va 5-skeletning bosh tomonidan bir donadan ko'zalar, dromos yo'lagidan singan sopol bo'laklari topildi. Qabrdan ja'mi bo'lib qo'lda yasalgan 4 ta sopol idishlar topilgan (21-rasm).

4-qabr. Qabristonning janubi-g'arbida joylashgan. Ushbu joyda ikkinchi transheya qazilib, uning kesmasida qabr eshigi (teshigi) uchratildi. Transheyani 1,5 metr chuqurlikkacha qazib tushilganda ushbu qabrning janubi qismi teshik hosil bo'ldi (22-rasm).

Ammo, qabrning qolgan qismini shifti o'pirilib tushmagan. Qabr teshigiga taqab kelgan dromos janubdan sharqqa tomon yo'naltirilgan bo'lib, uning uzunligi 3 metr, kengligi 70 sm., balandligi 80 sm.ni tashkil qiladi. Dromos yo'lagi er sathidan 2,6 metr chuqurlikkacha qiyalanib, lahad tomon pasayib borgan. Lahad dromosga perpendikulyar shaklda qazilgan. Dromosdan lahadga kirish eshigi 60×60 sm tashkil etadi. Teshik yaxlit plita toshi bilan berkitilgan (23-rasm).

Qabr kamerasing shifti qubba shaklda ishlangan. Balandligi 2,8 sm.ni tashkil qiladi. Qabrni tozalash jarayonida lahadga uchta odam skeleti borligi aniqlandi (24-rasm). Ularning bosh tomoni kunchiqar – sharqqa, oyoq tomoni kunbotar - g'arbga uzatilib, chalqanchasiga yotqizilgan. Boshlari esa chap tomonga (g'arbga) burilgan. Skletlar uzoq vaqtlardan beri qor, yomg'ir suvlarining sizib kirishi, xilxona tomi

tuproqlarining uqalanib tushishi va namning yuqori darajada bo'lganligi sababli chirib, kukunga aylangan. Saqlangan suyaklar ham juda yomon holatga kelib qolgan.

1-sket yoqib yuborilgan. Yoqilgan suyak kullari va chala quygan suyak parchalari qabr maydonining shimolida saqlanib qolgan. Uning bosh suyagi butkul yonib kukunga aylangan. Saqlangan suyaklarning qoldiqlariga ko'ra skletning bo'yi 176-178 sm.ni tashkil qiladi. Skeletning chap bilagi yonidan temirdan yasalgan pichoq va kamon o'qining uchi topildi. Ularning yog'och dastalari butkul chirib ketgan.

2-skelet birinchisidan chap tomonda joylashgan. Bu skeletning jag' va kurak tishlarining saqlanishi holatiga qaraganda, u o'rta yoshli erkak kishiga tegishli bo'lgan. Saqlangan suyak qoldiqlariga ko'ra, uning bo'yi 175-176 sm.ni tashkil qilgan. Skelet bosh chanog'i qarshisidan 2 ta temir uzuk topildi. O'ng qo'li yonidan temir pichoq, bel suyag'i ustida charm qamarining temirdan ishlangan to'qasi topildi. Chap qo'li yaqinidan parchalanib ketgan qandaydir buyum qoldiqlari uchratildi.

3-skelet ikkinchisidan chapda joylashgan. Uning tizzalari tashqi tomonga biroz bukilgan. Saqlangan skelet suyaklariga qaraganda uning bo'yi 160 sm.ni tashkil qilgan. Bu mayitning jinsini aniqlash qiyin, chunki uning erkak yoki ayolga tegishli ekanligini aniqlash mumkin bo'lgan bosh chanoq va tos suyaklari chirib ketgan. Bundan tashqari, uning jinsini aniqlashda yordam beradigan ashyoviy dalillar ham topilmadi. Uning suyaklari boshqalarga qaraganda nozikroqligi tufayli uni o'spirin yoshdagi ayolga tegishli bo'lsa kerak, deb taxmin qilish mumkin.

5-qabr. Qabriston maydonining g'arbiy qismida qazilgan 7-transheya kesmasida uchratildi (25-rasm).

Qabrning ichki tuzilishi katakombali bo'lib, qabr kamerasi (lahad) er sathidan 4,25 metr chuqurlikda ekanligi aniqlandi. Kamera o'lchami 2,72×2,80 sm., uning qubbali shiftining balandligi 1,30 sm.ni tashkil qiladi. Qabr kamerasiga janubi-g'arb tomondan qazib kelingan dromos orqali kirib kelingan. Dromosni uzunligi 3,5 metr bo'lib, uning diametri 0,65-0,75 sm bo'lgan. Dromos qabrga tomon qiyalab chuqurlashib borib, qabr og'ziga etganda lahad teshigi yaxlit tosh bilan berkitilgan.

Qabr kamerasida ikki kishiga tegishli skelet topildi. Ularni tuproq bosib, suyaklari chirib ketgan va saqlangan suyak parchalarining holati juda yomon bo'lsada, qabrdan topilgan skeletlarning har ikkalasini ham chalqanchasiga yotganligi aniqlandi.

1-skelet kameraning shimoli-sharqiy qismiga joylashtirilgan. Uning bo'yini uzunligi 180 sm.ni tashkil etadi. Uning bosh chanog'i sharqqa, oyog'i g'arbga uzatilgan. Skelet bosh chanog'ining chap tomoniga 8 ta sopol idishlar tartib bilan taxlab qo'yilgan.

2-skelet 1-skeletdan chapda, qabrning g'arbiy qismiga joylashtirilgan. Marhumning bosh chanog'i janubga, oyoqlari shimolga uzatilib, orqasi bilan yotqizilgan. Skeletning uzunligi 1,67 metrni tashkil etadi. Uning bel qismining chap tomoniga sopol xurmacha qo'yilgan. Har ikkala skeletlar oralig'idan temir taqinchoqlarning parchalari topildi. Topilgan sopol idishlarning bittasi ko'za, uchasi xurmacha, uchasi bokalsimon krujka, bittasi tova, yana biri kosadan iborat.

6-qabr qabristonning markaziy qismida, 12-transheyanning g'arbiy burchagida joylashgan. Transheyanning qazish jarayonida qabr dromosining yo'lagiga duch kelindi. Qabrga kirish yo'lagi janubdan shimoli-sharq tomon yo'naltirilgan bo'lib, qazish davomida dromosning og'ziga qo'yilgan 2 ta plita tosh ochildi. Lahadga kirish teshigi (60×70 sm) ana shu ikkita plita toshlar bilan bekitilgan edi. Dromos yo'lining uzunligi 3 metr, kengligi 80 sm, balandligi 70 sm.ni tashkil etadi. Dromosga perpendikulyar qilib joylashtirilgan qabr kamerasining shifti kubballi bo'lib, uning balandligi 135 sm, oval shaklidagi kamera razmeri 2,61×2,54 smni tashkil etadi.

Lahad tuproqdan tozalangach, uning maydonidan davriy jihatdan ketma-ketlikda ko'milgan 3 ta skelet borligi aniqlandi.

1-skelet katta yoshdagi erkak kishiga tegishli bo'lgan. U qabrning shimoli-g'arbida joylashgan. Uning bosh chonagi saqlanmagan. Bu marhum birinchi dafn etilgan bo'lib, suyaklari keyingi murdani ko'mish vaqtida uning shag'al to'shamasining ustiga taxlab qo'yilgan. Skeletning sharq tomonidan, qo'l suyaklarining tag qismidan metall pichoq topildi. Shuningdek, qabr lahadiga kirish yo'lagi oldida bitta sopol ko'za ham topildi (26-rasm).

2-skelet birinchi skeletning sharqiy qismida joylashgan. Uning bosh suyaklari, toz, son suyaklari chirib ketgan. Boshi sharqqa, oyog'i g'arbga qaratilgan. Saqlangan suyak qoldiqlariga ko'ra, uning bo'yi 170 sm. ni tashkil etadi. Bosh tomoniga sopol xurmacha qo'yilgan. Skelet qo'l suyaklari yaqinidan temir pichoq parchalari topildi.

3-skelet ikkinchi skeletning chap tomonida joylashgan. Boshi sharqqa, oyog'i g'arbga qaratilgan. Uning bosh chanog'i, toz va son suyaklari saqlanmagan. Saqlangan

suyak qoldiqlariga ko'ra, uning bo'yi 130 sm. bo'lgan. Marhumning boshi ostiga tosh yostiq qo'yilgan. Ko'krak suyaklari atrofidan silindr va sharsimon shakldagi tosh va shisha munchoqlar topildi. Topilmalar uchinchi skeletni ayol kishiga tegishli ekanligidan dalolat beradi.

Ushbu qabrdan jami 4 ta sopol idishlar topildi. Ularning ikkitasi xurmacha, boshqa ikkitasi esa sopol ko'raqumg'ondir (28-rasm)

7-qabr. Qabristonning janubida qazilgan 10-transheyada 3,5 metr chuqurlikda dromos yo'lagi topildi. Dromos janubdan shimol tomonga qiyali pastlab borib, er sathidan 4,30 metr chuqurlikda qabr kamerasi teshigi bilan to'qnashadi. Qabr teshigi yaxlit tosh bilan berkitilgan. Toshning o'lchami 65×77 sm. Dromos yo'lagidan teshik orqali qabr ichkarisiga qazib kirilgach, unga perpendikulyar tarzida katakombali qabrning lahad kamerasiga o'tildi. Qabr kamerasining maydoni 250×280 sm, uning gumbaz shiftining balandligi 135 sm, er sathidan kamera poliga qadar 4,5 metr ekanligi aniqlandi. Qabr kamerasi tuproqdan tozalangach, ma'lum bo'ldiki, ushbu oilaviy xilxonadan marhumlarni ko'mishda bir necha maratoba foydalanishgan. Chunki qabrdagi barcha skeletlar betartib sochilib yotardi. Qabrda hammasi bo'lib to'rt kishining skeleti topildi.

1-skelet. Qabr kamerasining sharqidan topildi. Skeletning boshi sharqda, oyog'i g'arb tomonga qaratilgan edi. Skeletning tag qismiga shag'al to'shalgan bo'lib, uning bosh tomonidan ko'zacha topildi. Uning oyoq tomoniga yog'lig'i (qadax-kurujka) qo'yilgan.

2-skelet birinchi skeletning g'arbga joylashgan. Biroq, uning suyaklari tartibsiz sochilib yotibdi. Shu bois bo'lsa kerak, uning bosh chanog'i qabr kamerasining janubi-sharqidan topildi. Uning oyoq tomonidan bitta mitti yog'lig'i topildi. Yog'lig'ining dastasi hayvon shaklida emas.

3-skeletning kukunga aylangan suyaklari qabr kamerasining g'arbida joylashgan. Taxminiy farazga ko'ra, uning bosh chanog'i g'arbga qaratilgan bo'lib, mazkur joydan 2 ta ko'za topildi.

4-skelet qabr kamerasining shimoli-g'arbidan topildi. Bu skelet suyaklari 3-skelet suyaklari bilan aralashib ketgan. Kuzatuvimizning taxminiy xulosasiga ko'ra, 4-skelet boshi sharqqa qaratilgan. Uning oyoq tomonidan bitta xurmacha va bitta yog'lig'i

topildi.

Shunday qilib, ushbu qabrdan 2 ta ko‘za, 2 ta xurmacha, 3 ta bokalsimon krujka topildi (29-rasm). Sopol idishlarning barchasi charxsiz, qo‘lda yasalgan, xumdonda yaxshi pishirilgan.

Yuqoridagi qabrlarni o‘rganish natijasida, shuni aytish mumkinki, qabrlarning hammasi oval, katakomba shaklida, o‘lchamlari o‘rtacha 2,80-3 metr, xilxonaga 3-5 metr uzunlikdagi dromos yo‘lagi orqali kiriladi. Dromos yo‘laklari janub tomonga qarab qiyalanib ko‘tarilib boradi. Qovunchi madaniyatining chorvador vakillaridan biror kishi vafot etsa avvalo uni eng yuqori, shimol tomonga asosan boshini sharq tomonga qaratib joylashtiriladi. Oradan ma’lum vaqt o‘tib, shu insonning qarindoshi vafot etsa, unga parallel tarzda janub tomoniga, boshini sharq tomonida qilib, keyingi mayit joylashtiriladi. Bu an’anaga ayrim qabrlarda amal qilinmaganligi kuzatiladi (3-qabr, 4-qabr va 7-qabr). Skeletlar ayol kishi bo‘lsa, munchoq, taqinchoq, zirak va shunga o‘xshash ayollar buyumlari, agar erkak kishi bo‘lsa pichoq, o‘q uchlari, nayza uchlari marhum bilan birga yoniga qo‘yilgan. Ayrim qabrlardagi skeletlarning boshi tagiga va bilaklari tagiga yassi yapaloq tosh qo‘yilgan (6-Qabr). Ba’zilarida qabr ichida shag‘al toshlar uyumi ham mavjud (6-Qabr). Qabrlarda sopol idishlar skeletlarning asosan bosh tomoniga, ba’zi hollarda qabrning kiraverishiga, dromos yo‘lagining og‘iz qismiga qo‘yilgan (3-Qabr).

Xulosa qilib aytganda Ertosh-Do‘lana qabristonining Qovunchi madaniyati chorvador vakillari qabrlari hammasi katakomba tarzidagi oilaviy xilxonalar hisoblanadi. Barchasi oval shaklida, hammasida marhumlar buyumlar bilan qo‘shib ko‘milgan. Bu demak, bizning hududlarda bronza davridan mavjud bo‘lgan dafn marosimlaridagi an’ananing davom etib kelganligidan dalolat beradi. Qabrga qo‘yilgan buyumlar, sopol buyumlarda esa oziq-ovqat qo‘yilganligi ma’lum. Bu shundan dalolat beradiki, o‘sha davr odamlarida inson vafot etgan bo‘lsada, uning ruhi narigi dunyoda yashaydi degan dunyoqarash ustuvor bo‘lgan. Shu sababli marhumlar bilan birga qabrda o‘zlariga tegishli buyumlar, ayollar taqinchoqlari, erkaklar mehnat qurollar bilan birga topiladi. Bu ularning diniy dunyoqarashida narigi dunyoga ishonish mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi. Ko‘plab qabrlarga shag‘al, mayda tosh to‘shalganligini ko‘rib o‘tdik. Bu ham ularning diniy e’tiqodlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Balki,

erni muqaddas deb bilib, marhum jasadi to'g'ridan-to'g'ri erga qo'yilishini to'g'ri emas deb hisoblagan ba'zi oilalar marhumni qabrga qo'yishdan oldin shag'al to'shagan bo'lishlari mumkin. Aynan shu qabrga qo'yilgan ashyolar, dafn etish usullari bizga o'sha davr o'troqlashayotgan chorvador aholining diniy e'tiqodlari qanday va qay darajada bo'lganligini ko'rsatib bera oladigan noyob manba hisoblanadi.

Mozor qo'rg'onlar qadimgi va o'rta asrlar tarixini o'rganishda eng muhim arxeologik manbadir.

Biz topgan Ertoshsoy qabristonidan o'rta asrlarga taalluqli qabrlar ham topilgan bo'lib ularning davri milodiy X-XII asrlarga oiddir. Ya'nikim, Yuqori Ohangaron havzasida qoraxoniylar sulolasi hukm surgan vaqtlarga mansub. Bu qabr qo'rg'onlarning o'ziga xos tomoni shundaki, qoraxoniylar davriga oid qabrlar Qovunchi II davri qabrlarining ust tomonida joylashgan (30-rasm).

Akademik Ahmadali Asqarovning takidlashlaricha, yuqorida joylashgan qabrlar pastki qism Qovunchi qabrlaridagi mayitlarga qarindoshlik aloqalari bilan bog'langan bo'lishi mumkin.

Agar Qovunchi qabrlari mayitlari katakomba tarzida, foydalangan buyumlari va idishlari bilan ko'milgan bo'lsa, qoraxoniylar davri qabrlari esa tekis yalpoq ko'pincha to'rtburchak shakldagi toshlardan terilgan tobutlar ichiga joylashtirilgan. Qoraxoniylar davri qabrlarida hech qanday buyum bilan ko'mish holatlari uchramaydi, bu holat musulmon dini talablari bilan bog'liq. Musulmon dini ko'mish an'analariga ko'ra mayit yuvilib, hech qanday qo'shimcha kiyim va buyumlarsiz, qiblaga qaratilgan holatda qabrga qo'yiladi.

Bunday qabrlar Samarqanddagi Afrosiyob yodgorligidan va Qozog'iston Respublikasining janubiy qismidagi Arslonbob yodgorligidan topib o'rganilgan⁸¹.

Qozog'iston hududida Keder shahri (Qo'yriqtobe posyolkasi) va Boba-Ata shaharchasi yaqinidan bir nechta musulmon qabrlari topib o'rganilgan.

Qozog'iston hududidagi qoraxoniylar davri qabrlari atrofi pishgan g'ishtdan tobutsimon yashik bilan o'rab chiqilgan. G'ishtlarning o'lchamlari o'rtacha 40-44×29×9-10 sm.ni tashkil etadi. G'ishtlarni terib chiqishda maxsus qotishmadan

⁸¹ Байпаков К.М. Древняя и средневековая урбанизация Казахстана (по материалам исследований Южно-Казахстанской комплексной археологической экспедиции). Книга II. Урбанизация Казахстана в IX – начале XIII в. - Алматы, 2013. - 514 с., илл. Стр-457.

foydalanishgan.

Tobut shaklini berishda foydalanilgan g'ishtar buzilgan imoratlarning g'ishtlari hisoblanadi.

Mayitning boshini janubga yoki janubi-g'arbga qaratgan holda shimoli-g'arbiy tomon tirsaklari ko'krigiga bukilgan holatda ko'milgan⁸².

Ertosh-Do'lana yodgorligidagi qoraxoniylar davri qabrlarining yuqorida keltirilgan yodgorliklar qabrlaridan asosiy farqlaridan biri shundaki, ular shahar madaniyatiga oid bo'lib, mayit qo'yilgan tobutlar g'ishtlardan terib chiqilib yasalgan.

Ertosh-Do'lana qoraxoniylar qabrlari esa shu erning tabiiy geografik sharoiti va aholining turmush tarzidan kelib chiqib, to'rtburchak shaklli toshlardan terilgan tobutga mayit joylangan. Ayrim qabrlarda tosh tobutning ustki qismi ham yapaloq toshlar bilan berkitilgan.

1-transheyaning janubi-sharqiy burchagida 40-50 sm. chuqurlikdan shimoliy-g'arbga qarab 2 metr uzunlikdagi ikki tomoni silliq, to'g'ri to'rtburchak shaklidagi katta-katta daryo toshlari terilib, o'rtasiga jasad qo'yilgan qabr qayd etildi. Atrofi tosh bilan o'ralgan qabrning ichki qismi eni 70 sm, bo'yi 185 sm.ni tashkil qildi. Jasad chalqancha yotqizilib, yuzi g'arb tomonga qaratilgan.

2-transheya transheya ham janubi-sharqdan shimoli-g'arbga tomon yo'naltirilgan bo'lib, uning eni 1 metrni, uzunligi 17 metr. Taxminan 70 sm. Qalinlikda qazib tushil mayda tosh (sho'x) aralashgan soz tuproqli qatlam joylashgan. Ushbu qatlamdan transheyaning janubi-sharqiy burchagidan 1,-1,5 va 3 metr masofada yuqorida ta'riflangan qoraxoniylar davri tipidagi qabrlardan to'rttasi qayd etildi. Ulardan 4-qabr transheyaning o'rtasida bo'lganligi sababli o'lchamlar olindi. Uning skeleti joylashgan tosh tobutning uzunligi 140 sm, eni 70 sm ni tashkil etadi. Ushbu qabrga yosh bola qo'yilgan bo'lib, uning bosh tomoni shimolga, oyoq tomoni janubga uzatilib, chalqanchasiga yotqizib qo'yilgan. Ustidan tuproq bilan ko'mib tashlangan.

3-transheyaning eni 1 metrni, uzunligi 13 metrni, chuqurligi 3 metrni tashkil qiladi. Transheyaning shimoliy devorida 2 ta musulmon qabrining janubiy burchagiga qo'yilgan toshlar qayd qilinib, toshtobutning chiqib turgan qismining o'lchamlari 80×40

⁸² Байпаков К.М. Древняя и средневековая урбанизация Казахстана (по материалам исследований Южно-Казахстанской комплексной археологической экспедиции). Книга II. Урбанизация Казахстана в IX – начале XIII в. - Алматы, 2013. - 514 с., илл. Стр-457.

ni tashkil etadi. Janubiy devori oʻrta qismida esa xuddi shunday qabrning shimoliy tomoniga qoʻyilgan xarsangtoshlari qayd qilindi, toshtobutning transheya qazilgan joydan chiqib turgan qismining oʻlchamlari 60×30 ni tashkil etadi.

4-transheyaning eni 1 metr, boʻyi 15 metr, chuqurligi 3 metrni tashkil qiladi. Ushbu transheyaning oʻrta qismida Qovunchi II madaniyatining qabri joylashgan boʻlib, uning oʻng tomonida 2 ta musulmon qabri qayd etildi. Ularni toshtobutlarining transheyadan chiqib turgan qismining oʻlchamlari 64×80 smni tashkil etadi.

5-transheyaning eng sharqiy burchagida musulmon qabrining shimoliy-gʻarbiy burchak qismi qayd qilindi. Toshtobutning chiqib turgan qismi oʻlchamlari 110×60 sm ni tashkil qiladi.

6-transheyaning oʻrta qismida musulmon qabri toshlari qayd qilindi.

7-transheyadan jami 4 ta musulmon qabri qayd etildi.

8-transheyadan ham 50-75 santimetr chuqurlikda atrofiga tosh qalab, ustiga tuproq koʻmib tashlangan musulmon qabri aniqlandi.

9-transheya 8-transheyadan uch-toʻrt metr shimoli-gʻarbda joylashgan boʻlib. Uning boʻyi 9,20 metr, eni 1 metr. Chuqurligi 3 metrni tashkil qiladi. Transheyaning shimoli-gʻarbiy burchagi 3×3 metr qilib kengaytirildi. Transheyadan qabrlari izlari aniqlandi.

10-transheyaning eni 0,85 sm, uzunligi 15,75 metr, chuqurligi 3 metrni tashkil etadi.

Transheyada 0,75-1 metr chuqurlikda 3 ta atrofiga tosh qoʻyilgan qabr topildi. Birinchisi transheyaning gʻarbiy burchagidan 1 metr sharqda, ikkinchisi undan 75 santimetr janubda, uchinchisi gʻarbiy burchakdan 7 metr janubda joylashgan.

10-transheyaning gʻarbiy burchagidan 3 metr janubga qarab 75 santimetr chuqurlikdan atrofiga tosh qalangan qabrning son va boldir suyagi topildi. Skeletning boshi shimolga, oyogʻi janubga qaratilgan.

Qazilmaning yuqori 20-30 santimetri chim, tomir qatlamidan iborat. Undan pastdagi 1-1,10 metr qalinlikda (chuqurlikda) mayda tosh (shoʻx) aralash sof tuproq joylashgan.

Undan pastda esa sof tuproq joylashgan. Transheyaning gʻarbiy burchagidan 7,5 metr janubda ham atrofiga tosh terib, ichiga mayit qoʻyilgan qabr joylashgan. Uning

ham boshi shimolga, oyog‘i janubga qaratilgan. Mayit chalqancha yotqizilib, yuzi g‘arbga burilgan.

11-transheya eni 1 metr, uzunligi 16,5 metr, chuqurligi 3 metr qilib qazildi. Ana shu qatlamdan uchta atrofiga tosh qalangan boshi shimolga, oyog‘i janubga qaratib ko‘milgan uchta musulmon qabri aniqlandi.

12-transheyani burchagidan 3,3 metr janubda shimoldan janubga yo‘nalgan atrofiga tosh qalanib, ichiga mayit ko‘milgan qabr o‘rnatilgan. Qabrdagi toshlar 80-100 santimetr chuqurlikka qalangan.

Qoraxoniylar davriga oid bo‘lgan qabrlarni o‘rganish, Islom dini ta‘sirida qadim Ertoshlik chorvadorlarning ko‘mish marosimlarida katta o‘zgarishlar sodir bo‘lib, tosh tobutli qabrlarga dafn etishga o‘tishgan, endi mayitlar sopol, taqinchoq kabi buyumlar bilan birga joylashtirish an‘anasi barham topdi degan xulosaga kelishimizga sabab bo‘ldi.

II bob yuzasidan xulosalar

Xulosa qilib aytish mumkinki, Ertosh-Do‘lana yodgorligi qabristonining qadimgi chorvador vakillari katakomba qabrlarni erting tuproq qatlamlarini chuqur o‘rgangan holda kovlashgan. Xilxonalar 20-30 sm lik tomir qatlamidan keyingi toshli, qattiq erting tagidan kovlangan. Bunda qabrlarning shift qismi tushib ketishining oldini olish e‘tiborga olingan. Lekin keyingi davrlarda bu hududning bog‘ga aylantirib sug‘orilishi qabr kameralari tuproqlarining pastga nurab tushib ketishiga sabab bo‘lgan.

Ertosh-Do‘lana yodgorligidagi Qovunchi madaniyati qabrlari 4-4,5 metr chuqurlikda joylashganligi uchun ularni topish juda murakkab kechdi. Katakomba qabrlarini aniqlashda chuqur mushohada orqali, tog‘ning qiyalik tomonini e‘tiborga olgan holda, erda cho‘kma hosil bo‘lishi orqali topilgan qabrlarning tuzilishini e‘tiborga olgan holda transheya va shurf tashlash usullaridan foydalanildi

Ertosh-Do‘lana qabrlarining joyini aniqlash, o‘rganishda shu paytgacha bunday mozar - qo‘rg‘onlardan anchasini ochishga muvaffaq bo‘lgan arxeolog A.Asqarovning tajribalari va cho‘kma hosil bo‘lishi natijasida ochilgan qabrlarning joylashuvidan orttirilgan tajriba va bilimlarga tayanildi.

Ertosh-Do‘lana yodgorligining qabrlari Qovunchi madaniyati chorvador vakillari

qabrlari hammasi katakomba tarzidagi oilaviy xilxonalar hisoblanadi. Barchasi oval shaklida, hammasida marhumlar buyumlar bilan qo‘shib ko‘milgan. Bu demak, bizning hududlarda bronza davridan mavjud bo‘lgan dafn marosimlaridagi an‘ananing davom etib kelganligidan dalolat beradi. Qabrga qo‘yilgan buyumlar, sopol buyumlarda esa oziq-ovqat qo‘yilganligi ma’lum. Bu shundan dalolat beradiki, inson vafot etgan bo‘lsada, u narigi dunyoda yashaydi. Shu sababli marhumlar bilan birga qabrda o‘zlariga tegishli buyumlar, ayollar taqinchoqlari, erkaklar mehnat qurollar bilan birga topildi. Bu ularning diniy dunyoqarashida narigi dunyoga ishonish mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi. Ko‘plab qabrlarga shag‘al, mayda tosh to‘shalganligini ko‘rib o‘tdik. Bu ham ularning diniy e’tiqodlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Balki, erni muqaddas deb bilib, marhum jasadi to‘g‘ridan-to‘g‘ri erga qo‘yilishini to‘g‘ri emas deb hisoblagan ba’zi oilalar marhumni qabrga qo‘yishdan oldin shag‘al to‘shagan bo‘lishlari mumkin. Aynan shu qabrga qo‘yilgan ashyolar, dafn etish usullari bizga o‘sha davr o‘troqlashayotgan chorvador aholining diniy e’tiqodlari qanday va qay darajada bo‘lganligini ko‘rsatib bera oladigan noyob manba hisoblanadi.

III BOB. ANTIK DAVR QABRLARIDAN TOPILGAN ASHYOVIY DALILLAR KLASSIFIKATSIYASI.

III. 1. Kulolchilik mahsulotlarining tavsifi va davriy sanasi

Ertosh-Do‘lana qabristonidan jami 43 dona sopol idishlar topilgan va ular ko‘za, xurmacha, qo‘ra-qumg‘on, qo‘ra, varankasimon sopol suzg‘ich, dastasi ayiq, ot, shoxdor qo‘chqor shaklidagi yog‘lig‘ilardan iborat. Xuddi shunga o‘xshash sopol idishlarni L.Levina⁸³, Y.Buryakov⁸⁴, O.Inomovlar⁸⁵ o‘rganganlar.

⁸³ Левина Л.М. Керамика нижней и средней Сырдарьи в I тыс. н.э. – М., 1971. – С. 90-193.

⁸⁴ Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Тошкент: Фан, 1982. – С.

⁸⁵ Иномов О. Қовунчи маданияти ва унинг ўзбек халқининг шаклланишидаги роли. Тарих фанлари бўйича фалсафа

1-qabr sopollari:

1-qabrdagi skeletlarning bosh tomonidan sakkiz dona qo'lda yasalgan sopol idishlar topildi. Idishlarning loyi qizg'ish-jigarrang, tagligi yassi qilib yasalgan. Ularning bittasi ko'za, bittasi ikki quloqli ko'za, uchta xurmacha, ikkitasi yog'lig'i, bittasi pishloq tayyorlashda ishlatiladigan (ritonsimon) idishlardan iborat.

Halqasimon dastali ko'za. Tashqi va bo'yin qismining ichki sirti qizg'ish qoramtir rangda angoblangan. Uning bo'yi 28 sm, og'zining diametri 11 sm., yassi tubining diametri 14,5 sm. Ko'zaning elka aylanasi bo'ylab kulolchilik pichog'i yordamida chiziqli va uning ostidan bir dona xochsimon chiziqli tortilgan. Ko'zaning og'zi suv quyishga mo'ljallab tarnovsimon jo'mrak qilib ishlangan .

Ikki quloqli ko'za. Tashqi va tashqariga qayrilgan og'zining sirti to'q qora rangda angoblangan. Qo'shquloq osti aylanasi bo'ylab oq lenta ustiga to'q qora rangda rim aylana shaklida naqsh solingan. Ko'zaning balandligi 24,5 sm., og'zining diametri 17,5 sm., tagligining diametri 15 sm.ni tashkil etadi.

Xurmacha (1). Xurmacha labi tashqariga qayrilgan, sirti va bo'yin qismining ichki sirti to'q qora rangda angoblangan. Xurmachaning bo'yi 19 sm, og'zining diametri 9,2 sm., tubining diametri 11,5 sm.ni tashkil etadi. Silindrsimon bo'ynini aylanasi bo'ylab chiziqli xurmachaning qorin qismini ajratib turadi.

Xurmacha (2). Xurmachaning labi tashqariga qayrilgan, sirti va bo'yin qismining ichki sirti to'q qora rangda angoblangan. Xurmachaning bo'yi 19 sm., og'zining diametri 11,2 sm., tubining diametri 11,5 sm.ni tashkil etadi .

Xurmacha (3). Xurmachaning labi o'tkir uchburchak shaklida, tashqi sirti va ichki sirtining bo'yin qismi qizg'ish qora rangda angoblangan. Yelka qismi aylanasi bo'ylab parallel chiziqli bilan qoplangan. Ularning osti bo'ylab qizg'ish oq lenta ustiga to'q qora rangda ikki qator yarim aylana naqsh berilgan. Xurmachaning bo'yi 17,5 sm., og'zining diametri 10,5 sm., tubining diametri 10 sm.ni tashkil etadi.

Yog'lig'i (1). Yog'lig'ining bo'yin qismi silindr shaklida, labi tik, qorin qismi aylana shaklida ishlangan. Yelka aylanasi bo'ylab chiziqli tortilgan. Tashqi sirti va ichki sirtining bo'yin qismi qora rangda angoblangan. Uning bo'yin va elka qismini birlashtiruvchi baldog'i burama shoxli qo'chqor shaklida yasalgan. Yog'lig'ining bo'yi

13,8 sm., ogʻzining diametri 9,1 sm., yassi tubining diametri 8,5 sm.ni tashkil qiladi.

Yogʻligʻi (2). Yogʻligʻining boʻyin qismi silindr shaklida, labi tik, qorin qismi aylana shaklida ishlangan. Yogʻligʻining tashqi sirti va ichki sirtining boʻyin qismi qora rangda angoblangan. Uning boʻyin va elka qismini birlashtiruvchi baldogʻi burama shoxli qoʻchqor shaklida yasalgan. Uning boʻyi 10 sm., ogʻzi diametri 7,6 sm., yassi shaklidagi tagligining diametri 6 sm.ni tashkil qiladi .

Suzgʻichsimon koʻzacha. Uning tashqi sirti va boʻynining lab tomoni jigarrang rangda angoblangan. Uchburchak shaklli labi tashqariga qayrilgan. Tor boʻyin qismining aylanasi boʻylab parallel chiziqlar tortilgan. Qorin qismida oq lenta aylanasi boʻylab qoramtir qizil rangda yarim oysimon naqsh tortilgan. Suzgʻichning boʻyi 24 sm., ogʻzining diametri 8 sm.ni tashkil qiladi. Suzgʻichning ingichkalashib, qisqarib borgan tubida 5 mm.lik teshikchasi bor.

2-qabr sopollari.

Skeletlarning bosh tomonida 6 dona qoʻlda yasalgan sopol idishlar topildi. Ularning uchasi katta-kichik xajmdagi xurmacha, ikkitasi yogʻligʻi va bittasi mitti koʻrachadan iborat (32 rasm).

Idishlar xumdonida gʻisht darajasida pishirilgan, sirti och jigarrangda, bittasi esa toʻq jigarrang, yana bitta xurmacha toʻq qora rangda angoblangan.

Xurmacha (1). Bu xurmacha boshqalariga nisbatan boʻydorroq, och jigarrang rangda angoblangan, balandligi 25 sm., tashqariga qayrilgan ogʻzining diametri 11,1 sm., tubining diametri 12,2 sm.ni tashkil etadi. Silindrokoni shaklli boʻyni bilan kengayib borgan qorni bir qator chiziq bilan ajratilgan (32.1-rasm).

Xurmacha (2). Bu xurmacha ham birinchisi kabi boʻydorroq. Silindrokoni shaklli boʻynining labi tashqariga qayrilgan, uning boʻyin qismi sharsimon tanasidan bir qator chiziqcha bilan ajratilgan. Xurmachaning sirti qoramtir qizil rangda angoblangan. Biroq, angob izlari koʻchib, xurmachaning boʻyin qismidagina sebgul shaklida saqlangan. Xurmacha boʻyining balandligi 20,3 sm, ogʻzining diametri 10 sm, tubining diametri 12,5 sm.ni tashkil etadi (32.2-rasm).

Xurmacha (3). Uning shakli shamoli birinchi xurmachaning oʻzginasi. Faqat uning birinchisidan farqi xajmi jihatidan kichikroq, sirti qora rangda angoblangan. Xurmacha boʻyining balandligi 15 sm, ogʻzining diametri 9 sm, tubining diametri 9

sm.ni tashkil qiladi (32.3-rasm).

Yog'lig'i(1). Uning sirti jigarrang rangda angoblangan, biroq angob izlari deyarli o'chib ketgan. Faqat yog'lig'i sirtining ba'zi bir joylarida xira saqlangan. Idishni xumdonda pishirish vaqtida bir tekisda alanga tegmagan joylarda qora dog' hosil bo'lgan. Uning yarim oy shaklli dastasi hayvon shaklida rasmiylashtirilgan bo'lsada, dastadagi hayvon figura sinib ketgan va yo'qolgan. (32.4-rasm). Bu yog'lig'ining balandligi 13 sm., og'zining diametri 8,9 sm., tagligining diametri 7,5 sm.ni tashkil qiladi.

Yog'lig'i (2). Ikkinchi yog'lig'i yasaliş sifati jihatidan nozik va professional mukammalligi bilan ajralib turadi. Yog'lig'ining bo'yin qismi silindr shaklida, labi tik, qorin qismi aylana shaklida ishlangan. Yelka aylanasi bo'ylab chiziqcha tortilgan. Tashqi sirti va ichki sirtining bo'yin qismi qizil rangda angoblangan. Uning bo'yin va elka qismini birlashtiruvchi baldog'i burama shoxli qo'chqor shaklida yasalgan (32.5-rasm). Uning bo'yi 11,3 sm., og'zining diametri 8 sm., yassi shaklidagi tubining diametri 6,7 sm.ni tashkil qiladi.

Qo'racha. U bankacha shaklida bo'lib, uning loyiga oq qum aralash maydalangan tosh kukunlari qo'shib yasalgan. Ichki qismi och jigarrang rangda, tashqi sirti qorakuya bosgan rangda (32.6-rasm). Uning bo'yining balandligi 8,5 sm, og'zining diametri 7 sm, tubining diametri 6 sm.ni tashkil qiladi. Bu mitti idishchada go'dak bola uchun ovqat pishirilgan.

3-qabr sopollari

Qabrdan ja'mi bo'lib qo'lda yasalgan 4 ta sopol idishlar topilgan (33-rasm).

Halqasimon dastali ko'za. Tashqi va bo'yin qismining ichki sirti qizg'ish qoramtir rangda angoblangan. Uning bo'yi 28 sm, og'zining diametri 11 sm., yassi tubining diametri 11 sm. Ko'zaning og'zi suv quyishga mo'ljallab tarnovsimon jo'mrak qilib ishlangan (33.1-rasm).

Qumg'on-ko'za. Qabrdan ovqat pishirishga mo'ljallangan 3 ta qumg'on-ko'zacha topilgan. Ularning loyiga oq qum va maydalangan tosh zarrachalari qo'shib pishirilgan. Sirtida olov izlari-qora qurum bosgan. Qumg'on-ko'zalarning barchasi mo'rt .

Qumg'on-ko'za (1) bir dastali, uning bo'yining balandligi 16,5 sm, og'zining diametri 11 sm., tubining diametri 8,5 sm.ni tashkil etadi (33.2-rasm).

Qumg'on-ko'za (2) dastasiz, balandligi 19 sm, og'zining diametri 10,5 sm. va tubining diametri 9,5 sm.ni tashkil etadi (33.3-rasm).

Qumg'on-ko'za (3) ikkinchisi kabi quloqsiz. Qadimda uning qornida taz ketgan va bu qumg'on-ko'za tashlab yuborilmay, qadohchi usta kulol tomonidan qadohlangan. Bu qumg'on-ko'za oldingilardan suyaklik sig'imi kengroq va pastakligi bilan farq qiladi. Uning bo'yini balandligi 14,5 sm, og'zining kengligi 16,5 sm. va tubining diametri 10,5 sm.ni tashkil etadi (33.4-rasm).

4-qabr sopollari

Qabrdagi skeletlarning bosh tomonidan 5 dona sopol buyumlar topildi (34-rasm). Ularning biri bo'ydor ko'za, 2 tasi xurmacha. Yana 2 tasi yog'lig'i bo'lib, ularning barchasi qo'lda yasalgan sopol idishlardir.

Halqasimon dastali ko'za. Tashqi va bo'yin qismining ichki sirti qoramtir rangda angoblangan. Uning bo'yi 26 sm, og'zining diametri 11 sm., yassi tubining diametri 12 sm. Ko'zaning og'zi suv quyishga mo'ljallab tarnovsimon jo'mrak qilib ishlangan. Ko'zaning tanasi sharsimon, bo'yni cho'ziq, labi tashqariga qayrilgan va to'lqinsimon shaklda yasalgan (34.1-rasm). Ko'zaning tashqi tomoni qoramtir rangda angoblangan. Uzun cho'ziq bo'yni tanasidan aylanasi bo'ylab bir qator chizikcha bilan ajratilgan.

Xurmachalar. Ular ikki dona bo'lib, tanasi sharsimon, tagligi yassi, bo'yni cho'ziq, og'zi biroz tashqariga qayrilgan shaklda yasalgan (34.2-34.3-rasmlar). Xurmachaning tashqi tomoni qoramtir rangda angoblangan. Ulardan birining (xurmacha 1) balandligi 20 sm., og'zini diametri 10 sm., tubining diametri 12 sm.ni (34.2-rasm). Ikkinchisi (xurmacha 2) ning uzun cho'ziq bo'yni tanasidan aylanasi bo'ylab bir qator chizikcha bilan ajratilgan. Xurmachaning balandligi 19,7 sm., og'zini diametri 10,2 sm., tubining diametri 10 sm.ni tashkil qiladi (34.3-rasm).

Yog'lig'ilar. Yog'lig'ilar ikki dona bo'lib, ularning bo'yin qismi silindr, labi tik, qorin qismi aylana shaklida ishlangan. Ularning bo'yin va elka qismini birlashtiruvchi baldog'i burama shoxli qo'chqor shaklida yasalgan (Rasm 34.4-34.5). Yog'lig'i (1)ning ustiga va ichki bo'yin qismiga qizgish rangda angob berilgan (34.4-rasm). Bu yog'lig'ining og'zini diametri 10 sm, tagligini diametri 7 sm, balandligi 14 sm.ni tashkil qiladi. Yog'ligi (2) birinchisiga o'xshash bo'lsada, uning tashqi sirti va bo'ynining ichki qismi qora rangda angoblangan. Yelka aylanasi bo'ylab chiziqcha tortilgan. Bu yog'lig'i

ogʻzining diametri 9,5 sm., tagligini diametri 9,3 sm.ni, balandligi 13,6 sm.ni tashkil qiladi (34.5-rasm).

5-qabr sopollari

Qabrdan jaʼmi 8 ta sopol idishlar topildi. Topilgan sopol idishlarning bittasi koʻza, uchtasi xurmacha, uchtasi yogʻligʻi va ikkitasi kosalardan iborat (35-rasm) .

Koʻza. Ushbu koʻza xumdonida yaxshi pishirilgan. Uning elka qismiga yarim halqa shaklida quloq-dasta yopishtirilgan. Koʻza boʻyining balandligi 32 sm., ogʻzining diametri 11 sm., tubining diametri 16,5 sm. Idish labi uchburchak shaqlida tashqariga qayrilgan (35.1-rasm). Boʻyin qismi choʻziqroq. Idish sirtida och jigarrang izlar uchraydi.

Xurmachalar. Keramika kompleksida 3 ta xurmacha bor. Ularning biri (xurmacha 1) labi tashqariga qayrilgan. Tashqi va ichki boʻyin qismi qora jigarrang rangda angoblangan. Boʻyining balandligi 20,5 sm., ogʻzining diametri 10,5 sm., tubining diametri 11 sm. (35.2-rasm).

Xurmacha (2) galtaksimon uzun boʻyinli, uning tashqi va ichki boʻyin sirti toʻq qora-qizil rangda angoblangan. Idishning balandligi 20,5 sm., ogʻzining diametri 10,4 sm, tagining diametri 11 sm. (35.3-rasm).

Xurmacha (3) sirtiga berilgan boy naqshlari bilan boshqa xurmachalardan farq qiladi, yaʼni past boʻyli, uchburchak shaklida ishlangan labi tashqariga qayrilgan. Tashqi sirti va boʻynining ichki sirti qizil va qizgʻish qora rangda angoblangan. Xurmachaning boʻyin va elka qismiga aylanasi boʻylab parallel chiziqchalar tortilgan. Uning ostida oq lenta, lenta ichi qizgʻish piston gullar bilan naqshlangan. Uning osti idish tubiga qadar toʻq qizil rangga boʻyalgan. Xurmachaning balandligi 16,5 sm., ogʻzining diametri 9 sm., tubining diametri 9,5 sm (35.4-rasm).

Yogʻligʻilar. Sopollar orasida yogʻligʻilar 3 ta, ulardan biri (yogʻligʻi 1) professional darajada mukammal qilib ishlangan. Keng ogʻzining labi tashqariga qayrilgan. Yogʻligʻining gʻaltaksimon boʻyin qismi aylanasi boʻylab parallel chizikchalar bilan qoplangan. Idishga yarim halqa shaklidagi dasta oʻrnatilgan. Dasta yuzasi chekma naqsh bilan bezatilgan. Yogʻligʻi boʻyining balandligi 12 sm., ogʻzining diametri 9 sm., tubining diametri 7 sm. (35.5-rasm). Idishning tashqi sirti och jigarrangda angoblangan.

Yog'lig'i (2) ning bo'yni keng, silindrokonik shaklida tik ko'tarilgan. Ammo uning biroz tashqariga qayrilgan labining katta qismi singan. Yog'lig'ining qorin qismi aylana shaklida ishlangan. Idishning bo'yni sfera shaklidagi tanasidan aylanasi bo'ylab chiziqcha bilan ajratilgan. Yarim halqa shaklidagi dastasi singan. Yog'lig'ining balandligi 11,5 sm., og'zining diametri 8 sm., tubining diametri 7,5 sm. (35.6-rasm). Tashqi sirti va ichki sirtining bo'yin qismi qizg'ish rangda angoblangan.

Yog'lig'i (3) timqora kulrang loydan yasalgan. Uning ichki va tashqi sirti och qizil rangda angoblangan. Idishning uzun bo'yni silindrokonik shaklida, qisqa qorin qismi aylana shaklida. Yarim halqa shaklida yasalgan dastasi ustiga o'rnatilgan ot xaykalchasi sinib yo'qolgan. Dasta ustida uning faqat quloqlari va yoli saqlangan. Yog'lig'ining balandligi 11,5 sm., og'zining diametri 7 sm., tubining diametri 6,5 sm. (35.6-rasm).

Tova. Ushbu idish qo'g'irilgan ovqat tayyorlashga mo'ljallangan kosasimon tovacha bo'lib, uning tim qora loyiga oq qum va maydalangan tosh zarrachalari (dresva) qo'shilgan. Bunday idishlar o'zida issiqni uzoq saqlaydi. Tova yon devorining balandligi 7 sm., og'zining diametri 15 sm., tubining diametri 11 sm (35.9-rasm).

Kosa. Qabrdan topilgan keramika kompleksida yagona kosa mavjud bo'lib, uning g'isht rangidagi ichki va tashqi sirti tim qora rangda angoblangan. Kosa labi o'tkir tik yasalgan, tashqi aylanasi bo'ylab ikki qator qabarikli lenta shaklda naqshlangan. Kosa bo'yining balandligi 7 sm, keng ochiq og'zining diametri 14,5 sm, tekis tubining diametri 6 sm.dan iborat (Rasm 35,10).

6-qabr sopollari

Ushbu qabrdan ja'mi bo'lib 4 ta sopol idishlar topildi. Ularning ikkitasi xurmacha, boshqa ikkitasi esa sopol ko'raqumg'ondan iborat.

Xurmachalar. Xurmachalarning birini (xurmacha 1) to'mtoq labi tashqariga qayrilgan ko'zachani eslatadi. Idish sirtining bir tomoniga qizg'ish qora rang oqizilgan. Loyiga ohak tosh va qum aralashtirib dag'al loy qarishmasidan xurmacha tayyorlangan. Ushbu xurmachani cho'g'ga o'rnatib suyuqlik ovqat tayyorlagan ko'rinadi. Chunki uning tag qismida issiq olov izlari saqlangan. Xurmacha bo'yining balandligi 22 sm., tubining diametri 13 sm., og'zining diametri 10,5 sm.ni tashkil etadi.

Xurmacha (2) silindrokonik bo'yin va sharsimon ko'rinishdagi shaklga ega.

Idishning tashqi sirti va uzun bo'ynining ichki tarafi timqora rangda angoblangan. Uchburchak shaklida yasalgan labi tashqariga qayrilgan. Xurmacha bo'yining balandligi 20 sm, og'zining diametri 11 sm, tubining diametri 8,5 sm.ni tashkil etadi .

Qabr sopollari orasida 2 ta ko'raqumg'onlar bo'lib, ular bizgacha parchalangan holatda etib kelgan. Har ikkala idishni loyiga bir xilda qarishmalar aralashtirilgan. Qorishmalar oq qum va maydalangan tosh zarrachalaridan iborat bo'lib, bunday qorishmalardan yasalgan idishlar issiqqa chidamli, issiq haroratni o'zida uzoq saqlash xususiyatiga ega. Shuning uchun bunday qorishmali loydan qo'raqumg'on, sopol qozonlar tayyorlanadi.

Ko'raqumg'on (1) bo'yining balandligi 14 sm, og'zining diametri 11 sm, tubining diametri 8,5 sm.ni tashkil etadi.

Ko'raqumg'on (2) dan faqat uning halqa dastasi yopishtirilgan tepa qismi (bo'yin qismi) saqlangan. Idish og'zining diametri 9 sm.dan iborat.

7-qabr sopollari

Shunday qilib, ushbu qabrdan 2 ta ko'za, 2 ta xurmacha, 3 ta yog'lig'i topildi. Sopol idishlarning barchasi charhsiz, qo'lda yasalgan, xumdonda yaxshi pishirilgan.

Ko'zalar. Ko'za (1) xumdonda yaxshi pishirilgan. Uning tashqi va bo'yin qismining ichki sirtida qizg'ish rangda angob izlari saqlangan. Idishning bo'yin qismi cho'ziqroq, tanasi sharsimon, labi tashqariga qayrilgan (37.1-rasm). Ko'zaning elka aylanasi bo'ylab kulolchilik pichog'i yordamida chiziqcha va uning ostidan bir dona xochsimot chiziq tortilgan. Ko'zaning balandligi 29,5 sm., og'zining diametri 12,5 sm., yassi tubining diametri 15,5 sm.

Halqasimon dastali ko'za (2). Tashqi va bo'yin qismining ichki sirti och qizg'ish rangda angoblangan. Ko'zaning og'zi suv quyishga mo'ljallab tarnovsimon jo'mrak qilib ishlangan. Ko'zaning tanasi sharsimon, bo'yni cho'ziq, labi tashqariga qayrilgan va to'lqinsimon shaklda yasalgan. Ko'zaning tashqi tomoni och qizg'ish rangda angoblangan. Uzun cho'ziq bo'yni tanasidan aylanasi bo'ylab bir necha qator chizikcha bilan ajratilgan. Uning bo'yi 21 sm, og'zining diametri 9,5 sm., yassi tubining diametri 12 sm. tashkil etadi.

Xurmachalar. Ular ikki dona bo'lib, tanasi sharsimon, tagligi yassi, bo'yni cho'ziq, og'zi biroz tashqariga qayrilgan shaklda yasalgan.

Xurmachalarning tashqi tomoni jigarrangda angoblangan.

Xurmacha (1). Xurmachaning tanasi sharsimon, bo'yni biroz cho'ziq, labi tashqariga qayrilgan shaklda yasalgan. Ko'zaning ichki va tashqi tomoni jigarrang rangda angoblangan. Xurmachaning bo'yin tanasidan aylanasi bo'ylab bir necha qator chizikchalar tortilgan. Balandligi 20 sm., tashqariga qayrilgan og'zining diametri 10,5 sm., yassi tubining diametri 11 sm.ni tashkil etadi.

Xurmacha (2). Xurmachaning tanasi sharsimon, bo'yni biroz cho'ziq, labi tashqariga qayrilgan shaklda yasalgan. Ko'zaning ichki va tashqi tomoni qizg'ish rangda angoblangan. Balandligi 20 sm., tashqariga qayrilgan og'zining diametri 10 sm., yassi tubining diametri 10,5 sm.ni tashkil etadi.

Yog'lig'ilar. Yog'lig'ilar uch dona bo'lib, ularning bo'yin qismi silindr, labi tik, qorin qismi aylana shaklida ishlangan. Ularning bo'yin va elka qismini birlashtiruvchi baldog'i yarim xalqa shaklida yasalgan. Yog'lig'i (1)ning dastasi burama shohli quchqor boshi shaklida ishlangan. Uning ustiga va ichki bo'yin qismiga qizgich rangda angob berilgan. Bu yog'lig'ining og'zini diametri 10 sm, yassi tagligining diametri 9 sm, balandligi 14 sm.ni tashkil qiladi.

Yog'ligi (2) birinchisiga o'xshash bo'lib, uning ham ustiga va ichki bo'yin qismiga qizgish rangda angob berilgan. Dastasi burama shohli quchqor boshi shaklida. Bu yog'lig'i og'zining diametri 8 sm., yassi tagligini diametri 7,5 sm.ni, balandligi 12 sm.ni tashkil qiladi.

Yog'ligi (3) tanasining qisqaligi va baldog'ining oddiyligi va xalqasimon ishlanganligi bilan boshqalaridan farqlanadi. Uning ustiga va ichki bo'yin qismiga qizgish rangda angob berilgan. Bu yog'lig'i og'zining diametri 7,5 sm., yassi tagligini diametri 7 sm., balandligi 11 sm.ni tashkil qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Ertosh-Do'lanaga o'xshash yodgorliklar Toshkent vohasining Piskent, Kavardan, Taypan, Yuqori Chinor, Do'nalabuloq, Turqushn kabi yodgorliklardan aniqlangan. Bu qabrlardagi topilgan ashyolarda ham Ertosh-Do'lana qabristonidan topilgan ashyolarga o'xshashlik kuzatiladi. Qovunchi madaniyati kulolchilik buyumlarini tahlil qilgan Y.F.Buryakov, L.Levina kabi arxeolog tadqiqotchilar bunday buyumlarni Qovunchi madaniyatining ikkinchi bosqichi bilan belgilagan. Shunga asoslanib Ertoshdan topilgan qabrlar va ulardagi sopol buyumlarni

II-IV asrlar bilan davrlashtirish mumkin.

III.2. Hunarmandchilik mahsulotlarining turlari va ularning tavsifiy xarakteristikasi.

Qabrlardan ko‘za, qo‘raqumg‘on, yog‘lig‘i, xurmacha kabi sopol idishlar va bronza zirak, qora serpintin toshidan yasalgan turli xil shakldagi tosh munchoq, geometrik shaklli ilohiylashtirilgan ko‘zmunchoq, ko‘kintir shishadan bikonik shaklda yasalgan munchoq-bilaguzuk, och zarg‘oldoq rangli toshdan yasalgan silindr shaklli va sirti qabariqli sharsimon pasta munchoq, temirdan yasalgan uzuk, mitti etikchani eslatuvchi toshtumor, oq shisha marjon shodasi, markaziy qismi maxsus teshilgan bronza plastinka, kichik qora toshdan qilingan taqinchoq va boshqalar topildi.

1-qabr eng ko‘p hunarmandchilik buyumlari topilgan qabr bo‘lib chiqdi. Unda 1-skeletning bosh tomonida 13 sm. uzunlikdagi temir pichoq (15.1-rasm) va bo‘yin qismida qalamsimon tosh tumor (15.2-rasm) topildi.

2-skelet ayol kishiga tegishli deb aytsa bo‘ladi, chunki uning quloq bo‘shlig‘i qismidan bronza zirak (15.3-rasm), skeletning bir qo‘l bilagida qora serpintin toshidan yasalgan turli xil shakldagi tosh munchoq, munchoqlar orasida yassitosh shaklida yasalgan munchoqning yuzasida geometrik shaklli ilohiylashtirilgan ko‘zmunchoq joylashtirilgan (15.4-rasm). Ikkinchi bilagida ko‘kintir shishadan bikonik shaklda yasalgan munchoq-bilakuzuk topildi (15.5-rasm). Bilakuzuk munchoqlari orasida och zarg‘oldoq rangli toshdan yasalgan silindr shaklli va sirti qabariqli sharsimon pasta munchoq ham bor (15.6-rasm). Qo‘l panjasida temirdan yasalgan uzuk topildi (15.7-rasm). Munchoqlar orasida mitti etikchani eslatuvchi tosh predmet ham uchratilgan (15.8-rasm).

3-skeletning bel qismida mato belbog‘ning daraxtdan yasalgan to‘qasi topildi. Yog‘och to‘qaga ikki tig‘li mitti bronza naqshlar yopishtirilgan. Yog‘och to‘qada mato izlarining qoldiqlari saqlangan (15.9-rasm). Skeletning bo‘yin qismida oq shisha marjon shodasi topildi (15.10-rasm).

2-qabrdagi 1-skeletning yonidan temirdan yasalgan pichoq topildi (18.1-rasm).

2-skeletning bosh tomonidan temirdan yasalgan pichoq topildi (18.2-rasm).

3-skelet qo‘l barmoqlarida 2 ta uzuk (18.3-rasm), oyoq tomonidan kamon o‘qining uchi (18.4-rasm), bosh tomonidan temirdan yasalgan pichoq topildi (18.5-

rasm). Skeletning chap qo‘li yonida bitta katta tosh uchratildi.

4-skelet yosh qiz bolaga tegishli bo‘lsa kerak, chunki uning bo‘yin qismidan pastadan yasalgan silindrik shakldagi munchoqlar shodasi topildi (Rasm 18.6).

3-qabrdagi 1-skeletning yonida hech qanday ashyoviy buyumlar topilmadi.

2-skeletning bosh tomonidan surmatosh shaklida toshtumor topildi. Dafina kiyimi qadalgan bronza taqinchoqlar, markaziy qismi maxsus teshilgan bronza plastinka, kichik qora toshdan qilingan taqinchoqlar topildi (20-rasm).

Qabrdagi 3-4-5-skeletlarning yon atrofidan sopollar va ularning bo‘laklaridan boshqa hunarmandchilik buyumlari topilmadi.

4-qabr dagi 1-skeletning chap bilagi yonidan temirdan yasalgan pichoq va kamon o‘qining uchi topildi. Ularning yog‘och dastalari butkul chirib ketgan.

2-Skelet bosh chanog‘i qarshisidan 2 ta temir uzuk topildi. O‘ng qo‘li yonidan temir pichoq, bel suyag‘i ustida charm qamarining temirdan ishlangan to‘qasi topildi. Chap qo‘li yaqinidan parchalanib ketgan qandaydir predmet qoldiqlari uchratildi.

3-skelet yonidan hech qanday buyum topilmadi.

5-qabr.

5-qabrdan ikki kishining suyagi topilgan bo‘lib, ularning oraligidan temir taqinchoqlarning parchalari topildi.

6-qabr.

1-Skeletning sharq tomonidan, qo‘l suyaklarining tag qismidan metall pichoq topildi. Shuningdek, qabr lahadiga kirish yo‘lagi oldida bitta sapol ko‘za ham topildi.

2- Skelet qo‘l suyaklari yaqinidan temir pichoq parchalari topildi.

3- Murdaning boshi ostiga tosh yostiq qo‘yilgan. Ko‘krak suyaklari atrofidan silindr va sharsimon shakldagi tosh va shisha munchoqlar topildi. Topilmalar uchinchi skeletni ayol kishiga tegishli ekanligidan dalolat beradi.

7-qabrdan sopollardan tashqari hech qanday hunarmandchilik buyumlari topilmadi.

Qabrlarda topilgan asori-atiqalar antik va ilk o‘rta asrlar davrida Yuqori Ohangaron havzasining tog‘li mintaqalarida keng yoyilib o‘troqlasha boshlagan chorvador aholi vakillari xo‘jalik hayotida hunarmandchilikning temirchilik, kulolchilik, toshtaroshlik sohalari o‘ziga xos yo‘nalishda taraqqiy etganligini ko‘rsatadi.

Ertosh-Do‘lanadan topilgan qabrlarda qayd qilingan buyumlar Toshkent vohasining ko‘plab joylaridan ham aniqlangan. Bu tipdagi qabrlar Qovunchi madaniyatiga xos xisoblanadi. Qovunchi madaniyati davrida marhumlarning jasadlari soz tuproqli va tosh uyumli qabr-qo‘rg‘onlariga dafn etilgan⁸⁶. Qabrlar o‘z tuzilishiga ko‘ra, yakka, juft yoki oilaviy xilxonalar bo‘lib, ular katakombali bo‘lgan. Jumladan, Kindiktepa, Kavardan, Piskent, Apartak, Ertosh, Do‘lana kabi joylardagi qabristonlardan qabr-qo‘rg‘onlari ochilgan. Ular asosan katakombali bo‘lib, jasadlar droms yo‘lakchadan qabr laxatiga joylashtirilgan. Jasadlar lahadda chalqancha yotqizilgan. Qabrga marhum bilan birga idishlar (asosan sopol), mehnat qurollari, temir pichoqlar, kamar halqalari va zeb-ziynat taqinchoqlari ham qo‘yilgan. Bu udum nafaqat ko‘chmanchilarga, balki shahar aholisiga ham xos bo‘lgan.

Shuningdek bu qabrlarda idishlardan ayrimlari sarmat madaniyatiga xosdir⁸⁷. Bunday idishlarning qovunchi madaniyati idishlari bilan birga qabrga qo‘yish odati mil. avv. II-I asrlarga oid “Sarmat madaniyati”ning Proxorov va Suslov madaniyatlarida ham uchratiladi⁸⁸. Bu Qovunchi va Sarmat madaniyatlarining o‘zaro yaqinligini ko‘rsatadi.

Qabrlardan aniqlangan taqinchoqlarga ko‘ra, chorvador ertoshliklar e‘tiqodida qadimgi diniy tasavvurlardan hisoblangan fetishizm alomatlari saqlanib qolgan ko‘rinadi.

III bob yuzasidan xulosa

Xulosa qilib aytganda, Ertosh-Do‘lana yodgorligining o‘rganilishi o‘zbek xalqining dastlabki etnomadaniy asosini tashkil etgan Qovunchi madaniyati chorvador aholi vakillarining Ohangaron daryosi yuqori havzalarida ham tarqalgani, o‘troq hayotga o‘tib borishi va arablar bosqinidan keyin islom dinini qabul qilishi va bu jarayonlar ularning dafn marosimlari va moddiy madaniyatida yaqqol aks etganini kuzatish imkonini beradi.

⁸⁶ Агзамходжаев Т. Погребальные сооружения Чирчик-Ангренской долины I – VIII вв. н. э.: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1966; Буряков Ю.Ф., Касымов М.Р., Ростовцев О.М. Археологические памятники Ташкентской области. – Ташкент, 1973. – С. 76-84; Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы ... – С. 55-57.

⁸⁷ Древности Туябугуза... – С. 118.

⁸⁸ Абрамова М.П. Сарматская культура II в. до н. э. – I в. н. э. (По материалам Нижнего Поволжья. Сусловская этап) // СА. – 1959. – №1. – С. 54-57.

Qoraxoniylar davriga oid bo'lgan qabrlarni o'rganish XI-XII asrga kelganda qadim Ertoshlik chorvadorlarning islom dini ta'sirida ko'mish marosimlarida katta o'zgarishlar sodir bo'lganligini ko'rsatadi. Endi aholi tosh tobutli qabrlarga dafn etish tartibiga o'tib, mayitlar yoniga buyumlar qo'yish an'anasi barham topganligini ko'rishimiz mumkin.

IV BOB. TAJRIBA-SINOV ISHLARINI O'TKAZISH VA NATIJALAR TAHLILI

IV.1 Tajriba-sinov ishlarining mazmuni va o'tkazish metodikasi

Tajriba-sinov yordamida tabiiy yoki sun'iy tarzda yaratilgan, nazorat qilinib, boshqariluvchi jarayonlar tadqiq qilinadi, tadqiqot yuzasidan muammolarni hal qilishning yangi vositalari izlanadi va ular amaliyotda sinab ko'riladi. Tajriba-sinov ishlari natijalarining ishonchliligi va kafolatlanganligi muhim ko'rsatkichdir. Tajriba-sinovda undan olinadigan natijalarning ishonchli yo samaradorligini aniqlash juda muhim. Chunki hamma tajriba-sinovlar ham ishonchli natija bermasligi mumkin. Tajriba-sinovlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uni o'tkazuvchining o'quv va

malakasi, metodik mahorati, bilim va tajribasi, respondentlar(tajriba-sinov ishtirokchilari)ning soni va ularning bu tadbirlarga munosabatlariga bog‘liq. Tajriba sinovga kirishishdan oldin shu tadqiqotga oid eng maqbul metod va usullarni aniqlab olish lozim. Bu metodlar, asosan, yuqorida aytilgan nazariy hamda empirik tajribalarga asoslangan ikki asosiy guruhga bo‘linadi. Tadqiqot mavzusiga oid barcha ko‘rsatmalar, hujjatlar o‘rganib chiqilishi lozim. Tajriba sinov ishlarini o‘tkazishga doir o‘zbek tilidagi darsliklar va qo‘llanmalarni yaratgan mualliflar J.G‘.Yo‘ldoshev va S.A.Usmonov eng asosiy tasniflarni taklif etganlar.⁸⁹ Tajriba-sinov quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: 1. Pedagogik texnologiyaning tajriba-sinov dasturini tayyorlash. 2. Dasturni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish:

- tajriba-sinov ishlarining moddiy bazasini yaratish;

- boshqaruv vazifalarini taqsimlash;

- kadrlarni bu jarayonga maxsus tayyorlashni tashkil qilish. 3. Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish. 4. Tajriba-sinovda ishtirok etgan pedagoglarni moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish. 5. Ilmiy rahbar yoki konsultant izlash, tanlab olish va ularni tajriba-sinov ishlariga jalb etish.

Pedagogik texnologiyalarning samaradorligini baholash uchun uning uzluksiz kuzatilishi - monitoringini tashkil etish lozim.

Oliy o‘quv yurtlarida “Arxeologiya” fanidan “Qadimgi davr madaniyati” mavzusini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish

Darsni olib borish texnologiyasi

Mashg‘ulot vaqti-2 soat	<i>Talabalar soni: 23 ta</i>
Mashg‘ulot shakli	ma‘ruza

⁸⁹ Yo‘ldoshev J.G‘., S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari.-T.: O‘qituvchi. 2004

Ma'ruza rejası	1. Toshkent xududidagi qadimiy yodgorliklar 2. Ertosh-Do'lana mozar qo'rg'oni 3. Kushonlar davri yodgorliklari
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Qadimgi davrda yurtimizda etnik jarayonlar, aholi migratsiyasini, Toshkent vohasi hududidagi arxeologik yodgorliklar misolida, yangi pedagogik texnologiyalar asosida yoritib berish	
Pedagogik vazifalar: • Toshkent hududidagi qadimgi davr obyektlari xaritasini talabalarga tahlil qilishga ko'maklashadi; • Toshkent vohasining O'zbek xalqi etnogenezida tutgan o'rni haqida ma'lumot beradi; • Ertosh-Do'lana yodgorligi uning hududiy joylashuvi va topilish tarixi haqida ma'lumot beradi; • Ertosh-Do'lana yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va arxeologik tadqiqot usullari haqida ma'lumot beradi; • Kushon davri yodgorliklari haqida ma'lumot beradi.	O'quv faoliyati natijalari: • Talabalar Toshkent hududidagi arxeologik obyektlar haqida tasavvurga ega bo'lalilar; • O'zbek xalqi antropologik tipining shakllanishi va u shakllangan hudud haqida ma'lumotga ega bo'lalilar; • Ertosh-Do'lana yodgorligining topilish tarixi va hududiy joylashuvi haqida ma'lumotga ega bo'lalilar; • Arxeologik yodgorliklar va ularni o'rganish metodikalari va usullari haqida ma'lumotga ega bo'lalilar; • Kushonlar davlati yodgorliklari haqida ma'lumotga ega bo'lalilar.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Ma'ruza, "3x4'", "Aqliy hujum", "BBB" "Bingo" texnologiyalari
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Jamoaviy, kichik guruhlarda ishlash
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	Proektor, marker, vatman, skotch, xaritalar, adabiyotlar
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Kompyuter bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya: 1. Elektron doska-Hitachi, LSD –

	monitor, elektron ko'rsatgich. 2. Video-audio uskunalari: video, mikrofon, kolonkalar. 3. Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter. Dell tipidagi proektor, DVD – diskovod, Web – kamera, video-ko'z (glazok)
<i>Monitoring va baholash</i>	Reyting tizimi, nazorat: savol-javob

Texnologik xarita

Bosqichlar, vaqt	Faoliyat	
	O'qituvchi	O'quvchilar
<i>I bosqich.</i> <i>O'quv mashg'ulotiga kirish</i> <i>(20 daqiqa)</i>	1.1 O'qituvchi talabalar bilan salomlashadi. Yo'qlamani amalga oshiradi. 1.2. Yangi o'tiladigan mavzuning ma'ruza rejalarini yozdiradi. (1-ilova).	Tinglaydilar va yozadilar
<i>II Asosiy bosqich</i> <i>(30daqiqa)</i>	Rower Point dasturi yordamida slaydlarda xaritlar namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.1. Toshkent hududidagi qadimgi davr obyektlari xaritasini talabalarga tahlil qilishga ko'maklashadi. (2-ilova). 2.2. Toshkent vohasining O'zbek xalqi etnogenezida tutgan o'rni haqida ma'lumot beradi; (3-ilova). 2.3. Ertosh-Do'lana yodgorligi uning hududiy joylashuvi va topilish tarixi haqida ma'lumot beradi; (4-ilova). 2.4. Ertosh-Do'lana yodgorligida olib borilgan	Tinglaydilar , yozadilar Tinglaydilar , yozadilar Tinglaydilar , yozadilar Tinglaydilar

	arxeologik tadqiqotlar va arxeologik tadqiqot usullari haqida ma'lumot beradi (5-ilova). 2.5. Kushon davri yodgorliklari haqida ma'lumot beradi. (6-ilova)	, yozadilar
<i>III Umumlashtiruvchi bosqich (25 daqiqa)</i>	3.1. O'quvchilar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida Blitz-so'rov usuli yordamida savol javob o'tkazadi. (7-ilova)	Tinglaydilar , javob beradilar.
	3.2. «Tushunchalar tahlili» texnologiyasi yordamida yangi o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun topshiriq beriladi. (8-ilova) 3.3 Toshkent vohasining o'zbek xalqi etnogenezida tutgan o'rni haqidagi fikrlarning to'g'ri yoki notog'ri ekanligi jadval yordamida tahlil qilinadi (9-ilova)	Tayanch atama va tushunchalarni bilib oladilar.
<i>IV Yakuniy bosqich (5 daqiqa)</i>	4.1. Mavzu bo'yicha o'quvchilarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.	Savollar beradilar.
	Uyga vazifa. 4.2. «FSMU» texnologiyasiga ko'ra o'quvchilarga topshiriq beriladi. (10-ilova) T-sxema jadvali (11-ilova) 4.3. Nuqtalar o'rnida berilgan so'zni topish. (12-ilova) 4.4. Bingo mashqi (13-ilova)	Vazifani yozib oladilar.

1-ilova

Qadimgi davr madaniyati

REJA:

1. Toshkent xududidagi qadimiy yodgorliklar
2. Ertosh-Do‘lana mozar qo‘rg‘oni
3. Kushonlar davri yodgorliklari

2-ilova

Qadimgi davr xronologiyasi

Qovunchi madaniyati arxeologik komplekslari o'zbek xalqi etnogenezi uchun nixoyatda noyob manbadirki, ular nafaqat Toshkent vohasi, balki O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i va uning tevarak-atroflarida yuz bergan etnomadaniy va etnogenetik jarayonlarda, shuningdek, o'zbek xalqi etnogenetik tarixida birlamchi moddiy madaniyat manbalari hamdir.

4-ilova

Yuqori Ohangaron havzasida, Ohangaron daryosiga Ertoshsoy nomli irmoq Chotqol tog' tizmalaridan kelib qo'shiladi. Bu soy suvi Angren-Qo'qon avtomagistral yo'lining taxminan 40-kilometrida Ohangaronga kelib tutashadi. Ushbu joydan shimolda, Ertoshsoyning o'ng va so'l tomonlari bo'ylab 15 km masofagacha aholi istiqomat qiluvchi turar joylar tarqalgan. Bu hududlar Ertosh qishlog'i nomi bilan ataladi. Bu qishloq har tomonlama tog'lar bilan o'ralgan, sovuq havo oqimlaridan panada joylashgan. Qishloqning qulay iqlim sharoiti tufayli chorvadorlar makoniga aylangan. Keyinchalik turar-joylar atroflari o'zlashtirilib, bog'-u rog'lar bunyod etilgan.

Soy bo'ylab 10 km chamasi yuqoriga ko'tarilib borilganda Ertoshsoyning o'ng tomonida tog'lar yonbag'rlari aholi tomonidan uy-joylar qurilib, bog'lar barpo etilgan. Mahalliy tadbirkorlardan A. Isabekovga tegishli olma daraxtlarni sug'orish vaqtida taxminan diametri 2metr chamasida maydonda cho'qma hosil bo'lib, uni o'pirilishi sezilib qoladi. Bog' egasi bu haqda o'z ukasi, ustoz akademik Ahmadali Asqarovning shogirdi, Bekzod Isabekovga etkazadi.

2018-yilning iyul-avgust oylari davomida akademik arxeolog A. Asqarov shogirdlari ishtirokida cho'kmalarni ochib o'rganadilar. Oqibat natijada bu joy qadimgi qabriston bo'lib chiqdi. Ob'ekt joylashgan maydon dengiz sathidan 1600-1700 metr balandlikda. Mozor qo'rg'on o'rnining tabiiy-geografik holati, tog' yonbag'rida joylashganligi va u erda do'lana daraxtlari ko'pligi sabab,

akademik Ahmadali Asqarov tomonidan bu ob'ektga shartli "Ertosh Do'lana" deb nom berildi.

Yodgorlikni o'rganish natijasida bu erdan Qovunchi madaniyatining Qovunchi II bosqichiga oid katakombali shaklidagi qabrlar va ularning ichidan esa o'zbek xalqi etnogenez tarixi uchun juda muhim bo'lgan original ashyoviy dalillar, birinchi navbatda ko'plab sopol idishlar topildi.

5-ilova

Ertosh Do'lana yodgorligini keng ko'lamda qazish va o'rganish ishlari bilan akademik Ahmadali Asqarov ilmiy rahbarligida shug'ullandik. Qazishma ishlari O'zbekiston Respublikasi Innovatsion Rivojlanish vazirligi granti doirasida 2019-yilning iyun oylari boshlaridan amalga oshirildi. Bu loyiha Nizomiy Nomidagi TDPU "O'zbekiston tarixi" kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi Xalil Matyoqubov yutib olgan davlat granti asosida amalga oshirildi. Bu yodgorlikning ilmiy o'rganishlikning quvonarli tomoni shunda ediki, qadimgi qabrlar o'z vaqtida qabr o'g'irlari tomonidan o'g'irlanmagan va shuning uchun skeletlar, sopollar, taqinchoqlar o'rni va joyi yaxshi saqlangan.

Ertosh Do'lana mozar qo'rg'onlarini qazishda, olmazor bog'ni sug'orish vaqtida qaerda cho'qma hosil bo'lgan bo'lsa, u joylardan qabr topish oson kechdi. Ammo, cho'kma belgisi qabrlar atigi 3ta edi. Qadimgi qabriston maydonida o'rganilgan boshqa qabrlarni topish ancha og'ir kechdi. Qovunchi madaniyatining katakombali qabrlarida mayitlar jamoaviy tarzda qo'yilgan bo'lib, skeletlar o'zaro qarindoshlik aloqalari bilan bog'langan. Agar qabrga birinchi qo'yilgan odamdan so'ng, oradan ma'lum yillar o'tib qaysidur oila a'zosi vafot etsa, u ko'milgan joyni tanib olish uchun qabrning ustki qismiga toshlar terib chiqilgan. Bu belgi toshlari esa hozirgi zamon mahalliy aholisi tomonidan bog' barpo etishda olib ketilib, xo'jalik maqsadlarida ishlatib yuborilganligi bizga mushkullik tug'dirdi.

Yodgorlikda qabrlarni aniqlash qiyinligi sababli transheyalar qazildi.

Transheyalar yodgorlikning janubi-sharqidan shimoli-gʻarbga tomon uzunlikda qazildi.

6-ilova

Ayritom Termizdan 18 km sharqda Amudaryo soxilida joylashgan. 1932 yilda bu erda topilgan tosh rasmlarni M.E.Masson oʻrgangan. 1933 yilda maxsus ekspeditsiya uyushtirildi. Ayritom - ibodatxona harobasi boʻlib, bu erda asosan oxaktoshdan yasalgan haykallar topildi. Haykallarda soz chalayotgan ayollar tasvirlangan, budda diniga oid haykallar ham topilgan. XX asrning 60-70 yillarida Oʻzbekiston Sanʼatshunoslik ekspeditsiyasi tadqiqot ishlarini davom ettirdilar. Natijada fort, buddizm dini kompleksi, qabr va baktriya yozuvi boʻlgan haykallar guruhi topilgan.

1971 yilda Surxondaryo viloyati SHoʻrchi tumanida **Dalvarzintepa** yodgorligi ochildi. U maʼmuriy bino qoldiqlari, kulollar yashaydigan xonalar tadqiq etildi. Dalvarzintepadan ikki yarusli xumdonlar ham topilgan. Topilgan ashyolar kulolchilik yuksak darajada boʻlganligini koʻrsatadi.

1968 yili yuqoridagi ibodatxonadan 2-3 km shimoli-sharqda **Fayoztepa** ibodatxonasi topilgan, hozirda u toʻla oʻrganib chiqilgan. Fayoztepa vihara tipidagi ibodatxona ekanligi isbotlangan. U uch qismdan iborat boʻlib, har birida hovli boʻlgan, ularning atrofida uylar joylashgan.

7-ilova

**“Blits soʻrov” – metodiga koʻra “Qadimgi davr”ning mazmunini tahlil etish
daskada yalpi soʻrov sifatida amalga oshiradi.**

1. Toshkent hududida joylashgan qanday arxeologik yodgorliklarni bilasiz?
2. Oʻzbek xalqining antropologik tipi qanday va u qaysi hududda shakllangan?

3. Ertosh-Do‘lana qaysi hududda joylashgan?
4. Ertosh-Do‘lana yodgorligi qaysi madaniyatga taalluqli?
5. Ertosh-Do‘lana yodgorligida kimlar tadqiqot ishlarini olib borgan?
6. Dalvarzintepa yodgorligidan qanday moddiy manbalar topilgan?
7. Ayirtom va Fayoztepa yodgorliklarining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

8-ilova

Tushunchalar tahlili metodikasida berilgan tushunchala nimani anglatishi haqida talabalar yozishadi

Ertosh	
Qovunchi	
Stratigrafiya	
Shurf	
Transheya	
Katakomba	
Dromos	
Madaniy qatlam	
Mozor qo‘rg‘on	
Yog‘lig‘i	
zoomorf	

9-ilova

Toshkent vohasining tariximizda tutgan o‘rni oid ma’lumotlarning to‘g‘ri yoki xatoligini aniqlang.

№	Qadimgi davrga oid ma’lumotlar	To‘g‘ri yoki

		noto'g'ri
1	Toshkent vohasida saklar tomonidan asos solingan davlat bu-Qang' davlati.	
2	Qanqxa shahri xarobalari Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida joylashgan.	
3	Bugungi kunda Toshkent viloyatida arxeologik yodgorliklar soni oxirgi ma'lumotlarga qaraganda 855 tani tashkil etadi.	
4	Ertosh-Do'lana yodgorligi Sarmat madaniyatiga oid yodgorlik hisoblanadi.	
5	Ertosh-Do'lana yodgorligi o'troqlashgan turkiy chorvador ajdodlarimizga tegishli mozor qo'r'gon hisoblanadi.	
6	Katakomba tarzida ko'milgan qabrlar qovunchi madaniyatining belgilaridan biri hisoblanadi.	
7	Zoomorf shaklli sopol idishlar Qovunchi madaniyatining asosiy belgilaridan hisoblanadi.	
8	Qovunchi madaniyati vakillari bilan Sarmat madaniyati vakillari o'rtasida o'zaro aloqadorlik bor.	
9	Dalvarzintepa Eski Termiz xarobalarida joylashgan arxeologik yodgorlik.	
10	Dalvarzintepadan fil suyagidan ishlangan shaxmat donalari topilgan.	

10-ilova

Uyga vazifa.

1-topshiriq. "FSMU" – texnologiyasi yordamida topshiriqni bajarish

Qovunchi madaniyatining o'zbek xalqi etnogenezida tutgan o'rni

F- fikringizni bayon eting	
----------------------------	--

S-fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating;	
M-ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring	
U-fikringizni umumlashtiring.	

11-ilova

Uyga vazifa:

2-topshiriq. T-sxema jadvali asosida topshiriqni bajarish

Qadimgi davr madaniyati vakillarining qo'lga kiritgan yutuqlari	
Ijobiy	Salbiy
Xulosa	

12-ilova

3-topshiriq. Bingo. Berilgan ma'lumotlarni moslashtiring

1	Qanqxa		Bugungi kunda Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanida joylashgan arxeologik
---	--------	--	--

			yodgorlik
2	Qovunchitepa		Hayvon tasviri tushirilgan sopol idishlar
3	Zoomorf		Katakomba shaklli qabrlar lahadiga kirish yo‘lagi
4	dromos		Qadimgi sak qabilalari tomonidan asos solingan shahar xarobasi


13-ilova

1) ibodatxonasi 1968 yili yuqoridagi ibodatxonadan 2-3 km shimoli-sharkda topilgan, hozirda u to‘la o‘rganib chiqilgan. U vihara tipidagi ibodatxona ekanligi isbotlangan. U uch qismdan iborat bo‘lib, har birida hovli bo‘lgan, ularning atrofida uylar joylashgan.

2) yodgorligi 1971 yilda Surxondaryo viloyati SHo‘rchi tumanida ochildi. U ma’muriy bino qoldiqlari, kulollar yashaydigan xonalar tadqiq etildi. Bu yodgorlikdan ikki yarusli xumdonlar ham topilgan. Topilgan ashyolar kulolchilik yuksak darajada bo‘lganligini ko‘rsatadi.

3) 1972 yilda Angor tumanidan 16 gektarni egallagan shahar harobasi topildi. Uylarning devorlari paxsadan qilingan. Aholi yashash xonalarinng maydoni 4-15 m² ni tashkil qiladi. Bu erdan ibodatxona, Buddaning oltin suvi yuritilgan boshi va gavdasi topilgan. Buddistlarning saqlanib qolgan stupasidan bitta oltin plastinka ko‘zacha va yunon tangalariga taqlid qilib ishlangan Vasudeva I tangalari (ular 500 dan ortiq tanga) topildi.

4-topshiriq. Sopol idishlar turini rasmga qarab aniqlang.



3.2 Olingan natijalar tahlili

Tadqiqot ishi maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda bu jarayonning samaradorligini oshiruvchi quyidagi amaliy tamoyillar aniqlandi va joriy qilindi.

1. Tarix fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga doir tadqiqotlar o'rganildi va ilmiy tahlil qilindi.

2. OTM talabalarida tarixiy bilimlarni shakllantirish pedagogik muammo ekanligi nazariy va amaliy jihatdan asoslandi.

3. Talabalarda tushunchalarni shakllantirishning pedagogik jihatlari o'rganildi.

4. O'zbekiston Respublikasida ta'lim madaniyat ravnaqi mavzusini o'qitishda mazmuni ishlab chiqilib, shakl va usullari aniqlandi. O'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

5. Tarix fanini o'qitishning ilmiy, metodik asoslarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini shakllantiruvchi samarali vositalari belgilab berildi.

6. Tarix darslarida o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmasini rivojlantiruvchi turli metodik tavsiyalar ishlab chiqildi va tajriba-sinovdan o'tkazildi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda tajriba tadqiqot jarayonida: tarix fanini o'qitishning faol innovatsion metodlari; bilimlarni shakllantirishning psixologik masalalari; bilimlarning hajmi va mazmuni; mavzuni bayoni ta'rif, uning texnologik tuzilmasi; o'qituvchining yangi mavzuni bayon qilishi, darsga tayyorgarlik ko'rishi; tarix fanidan mustaqil ishlar, ularning turlari va ularga qo'yiladigan talablarni o'z ichiga oluvchi o'quv-uslubiy qo'llanma joriy qilindi. Tajriba-sinov ishlari 2018-2020 yillar mobaynida Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universitetida amalga oshirildi. Mazkur tadqiqot oby'ektlaridan jami 47 nafar o'quvchilar va 2 nafar o'qituvchilar tajriba-sinov ishlariga jalb etildi.

Tadqiqot ishi uch bosqichda amalga oshirildi va uning texnologik tuzilmasi quyidagicha belgilandi:

1. Asoslovchi bosqich. Mazkur bosqichning asosiy vazifalari sifatida tadqiqot muammosi yuzasidan mavjud tarixiy va pedagogik, metodik adabiyotlarni o'rganish, tahlil etish belgilandi. Asosiy tashkiliy chora-tadbirlar sifatida tadqiqotning maqsad va vazifalari, metodlari, ilmiy farazi shakllantirildi. Tajriba obyektlari tanlandi, Tarix fakulteti talabalarini bilish imkoniyatlari va mavjud holati diagnostika qilindi. Mazkur bosqichda ilmiy adabiyotlarning nazariy, qiyosiy tahlili, mavjud me'yoriy hujjatlarni, pedagogik tajribani o'rganish, tahlil qilish, kuzatish metodlaridan samarali foydalanildi.

2. Shakllantiruvchi bosqich. Tadqiqot muammosining mavjud holatiga asoslanib mazkur bosqichda Tarix fakulteti talabalari bilimlarini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik, o'quv-metodik shart-sharoitlarini aniqlash, o'quvchilarining tarix fanidan tayyorgarligini shakllantirish modelini ishlab chiqish va metodikasini belgilash bilan bog'liq amaliy faoliyat tashkil etildi.

Mazkur bosqichning asosiy metodlari sifatida quyidagilar belgilandi: anketa, test, faoliyat mahsulini o'rganish, asoslovchi va shakllantiruvchi tajriba, modellashtirish.

3. Yakunlovchi bosqich. Mazkur bosqichda nazariy - eksperimental tadqiqot natijalarini umumlashtirildi va qiyosiy tahlil qilindi, olingan natijalar miqdor va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha yoritildi, rasmiylashtirildi, tadqiqotning ilmiy farazi tasdiqlanib, zaruriy ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Pedagogik tajriba-sinov natijalarining miqdor va sifat tahlilini amalga oshirishda tajriba natijalarini qayta ishlashning matematik statistik metodidan samarali foydalanildi.

Tajriba-sinov ishlarining natijalarini aniqlash, tizimli monitoring jarayonini yo'lga quyish maqsadida respondentlar nazorat va tajriba guruhlariga ajratib kuzatildi. Bunda respondent "Qadimgi davr madaniyati" mavzusini mazmunini o'zlashtirishning yuqori, o'rta va quyi nisbatlarida baholandi. Tajriba natijalari Tarix fakultetining malakali mutaxassislari, uslubchilaridan tuzilgan «mustaqil ekspertlar guruhi» tomonidan kuzatib, zaruriy holatlarda o'zgartirishlar kiritib borildi.

Olingan ma'lumotlarning ishonchliligini aniqlash uchun tajriba – sinov ishlarining natijalari matematik statistika metodlari yordamida tahlil qilindi. Bunda χ^2 mezoniga asoslanildi. Bunda N_0 faraz sifatida har ikki guruhlarida baholash turlari bo'yicha kutilayotgan ehtimollarning tengligi – ($r_{11}=r_{21}, r_{12}=r_{22}, \dots r_{1s}=r_{2s}$) deb, muqobil N_1 faraz sifatida esa kutilayotgan ehtimollarning o'zaro teng emasligi, ya'ni ($r_{11}\neq r_{21}, r_{12}\neq r_{22}, \dots r_{1s}\neq r_{2s}$) qabul qilindi. Ushbu farazlarning haqqoniyligi χ^2 mezoni asosida tekshirildi va quyidagi formuladan foydalanildi:

$$T_{\text{kyzamy6}} = \frac{1}{n_1 n_2} \sum_{i=1}^c \frac{(n_1 O_{2i} - n_2 O_{1i})^2}{O_{1i} + O_{2i}}$$

Bu erda: T – statistik qiymat, n_1 va n_2 – nazorat va tajriba guruhlariga birlashtirilgan respondent-o'quvchilarning soni, O_{1i} va O_{2i} – nazorat va tajriba guruhlarida o'quvchilari tomonidan qayd etilgan baholar soni.

Statistik tahlilga ko'ra T_{kyzamy6} qiymati T_{kr} bilan o'zaro taqqoslanadi.

Agar $T_{\text{kyzamy6}} > T_{\text{kr}}$ bo'lsa N_0 faraz rad etilib, N_1 faraz qabul qilinadi.

Bu erdagi T_{kr} – me'yordagi ishonchli chetlanish ehtimoli p asosida aniqlanadi. Og'ish darajasi esa: $v = S-1$ formulasi orqali topiladi. Bunda S – baholash turlarini anglatadi.

χ^2 mezoni tajriba-sinov ishlari nazorat va tajriba guruhlarida uchta baholash turi bo'yicha olib borilgani uchun $S = 3$ ga teng. Unga ko'ra, $p=0,05$ deb qabul qilinsa, u holda $v = S-1=2$ bo'lib χ^2 mezonining G jadvali asosida olingan $T_{kr}= 6,0$ ga teng.

Innovatsion o'qitish metodikasiga asoslanib olib borilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari akademik litsey o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish samaradorligining ortishida o'z aksini topdi(2-jadval).

2-jadval

Tarix fakulteti mavzu bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni shakllanganlik kurs talabalarini darajasi

Tajriba bosqichlari	Tajriba guruhi: n=47			Nazorat guruhi: n=47		
	yuqori	o'rta	quyi	yuqori	o'rta	Quyi
Asoslovchi bosqich	10	22	15	16	20	11
Yakunlovchi bosqich	20	20	7	21	24	2



2-rasm. TSI asoslovchi va yakunlovchi bosqich natijalari

Natijalardan (2-jadval; 2- rasm) ko‘rinib turibdiki, respondentlardagi kasbiy tayyorgarlikning yuqori darajasi tajriba guruhlarida asoslovchi bosqichda 10 ta (21%), o‘rta daraja 22 ta (47%) va quyi daraja 15 ta (32%) ni tashkil etgan bo‘lsa, yakunlovchi tajriba natijalariga ko‘ra bu ko‘rsatkichlarning yuqori daraja nisbati 20 ta (43%), o‘rta daraja nisbati 20 ta (42%) va quyi daraja nisbati 7 ta (15%) ni tashkil etgan. Nazorat guruhlarida esa mazkur ko‘rsatkichlarning yuqori darajasi asoslovchi bosqichda 16 (34%) yakunlovchi bosqichda 21 (45%)ni, o‘rta darajasi 20/24(43%;51%), quyi darajasi 11/2(23%;4%)ni tashkil etdi.

Matematik-statistik tahlil natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, tarix darslarini o‘tishda taklif etilgan zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashi bo‘yicha tashkillashtirilgan tajriba-sinov ishlaridan so‘ng samaradorlik darajasi tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan 1,15 barobarga ortgan. Bu esa o‘z navbatida tadqiqot ilmiy farazini amalda o‘z isbotini topganligini yana bir bor tasdiqlaydi. Demak, Tarix darslarini tashki etish jarayonida ta’lim texnologiyalari yordamida yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Tajriba-sinov ishlarini umumlashtirishda test, testologiya prinsiplari, funksiyalari, parametrlari, interpretatsiyasi hamda matematik statistika imkoniyatlaridan foydalanilganda o‘quv jarayonining samaradorlik darajasi yaqqol namoyon bo‘lishi aniqlandi. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari ongida tarixiy

bilimlarni shakllantirish va olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishlari uchun pedagogik muhit yaratish zarurligi isbotlandi. Magistrlik dissertatsiyasida tarix fanini metodologik asoslari va barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati yoritib berildi. Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati fanlararo aloqadorlikda tarix o'quv fanini o'qitish jarayoni orqali ta'lim samaradorligiga erishishi bilan belgilanadi. O'quvchilarda o'qitish jarayonida bilim va ko'nikmalari shakllantirish usul va uslublari yaratildi, metodik va amaliy tavsiyalar berildi. Tarix fanini yangi pedagogik va zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilindi.

Eksperiment jarayonida ishtirok etgan a'zolar:

Nizomiz nomidagi TDPU

Tarix fakulteti o'qituvchilari:

_____	D. Karimova
_____	X. Matyoqubov

Eksperiment o'tkazuvchi

Nizomiy nomidagi TDPU, Tarix

o'qitish metodikasi yo'nalishi	_____	U. Ismoilov
--------------------------------	-------	-------------

2-bosqich magistranti:

Tasdiqlayman:	_____	Tarix fakulteti dekani
		V.T. Ishquvvatov

IV bob bo'yicha xulosa

Yuqorida keltirilgan xulosalar oliy o'quv yurtlarida arxeologiya fanini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etishning mavjud holatini aniqlashga va bu jarayon samaradorligini oshirishga qaratilgan quyidagi uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishimizga asos bo'ldi:

1. Pedagogik kuzatishlarimiz va mavjud adabiyotlar tahlili tarix o'quv fanida o'qitishda ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni bilimlarini shakllantirish dolzarb ta'limiy muammolardan biri ekanligini ko'rsatdi.

2. O'qituvchilarning pedagogik faoliyati hamda shaxsiy tajribalarimiz natijasida quyidagilar aniqlandi:

- Arxeologiya fanida talabalarning fan doirasida bilimlarini oshirishda ta'lim texnologiyalari yordamida yuqori samaradorlikka erishish mumkin;

- tajriba-sinov ishlarini umumlashtirishda test, testologiya prinsiplari, funksiyalari, parametrlari, interpretatsiyasi hamda matematik statistika imkoniyatlaridan foydalanilganda o'quv jarayonining samaradorlik darajasi ortadi;

- talabalarda mavzu bo'yicha bilimlarni shakllantirish va olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishlari uchun pedagogik muhit yaratish taqozo qilinadi.

3. Dars o'tish jarayonida hozirgi paytda katta ahamiyat kasb etib borayotgan interfaol usullardan foydalanish, jumladan, kichik guruhlariga bo'linish, ma'lum pozitsiyani egallash, aqliy hujum, rolli o'yinlar kabi usullarni keng qo'llash mashg'ulotlarning samarali bo'lishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

4. Arxeologiya fanini o'rganish talabalarning arxeologik obyektlar, ularni tadqiq etishda uchraydigan muammolar, ularni vujudga keltiruvchi omillar hamda ularni hal qilish usullari haqidagi fikr-mulohazalarni muhokama qilish imkonini yaratadi.

5. Tadqiqot jarayonida "Qadimgi davr madaniyati" mavzusini o'qitishda "hamkorlikda ishlash", "keys study", "loyiha", "kichik guruhlarda ishlash", "mazmunan bir-biriga qo'shib ketgan tushunchalar" singari uslub aniqlandi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ushbu uslublar yakka holda kamdan-kam, bir-biri bilan uyg'unlashgan holda esa ko'proq qo'llanadi.

6. Ushbu mavzuni o'qitishda interfaol usullardan foydalanib, talaba yoshlarni asosiy harakat qiluvchi tizimga aylantirish mumkinligi aniqlandi.

7. Tadqiqot muammosini emperik jihatdan o'rganish va tahlil etish natijasida o'rta maxsus ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning kasbiy mahorat darajasini rivojlantirish kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish jarayonidagi muhim omillardan ekanligi aniqlandi.

8. Yangicha mazmundagi o'quv metodik majmualarning yaratilish, o'qitishning innovatsion shakl va metodlarini o'quv jarayoniga keng tadbiq etish va bunda tizimli monitoring jarayonini yo'lga qo'yish talaba yoshlarning bilish faolligini ta'minlashda, ularning kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda hamda kasbiy tayyorgarlikning shakllanishida muhim ahamiyatga ega ekanligi isbotlandi.

9. "Qadimgi davr madaniyati" mavzusini o'qitish mavzusi mazmunini zamonaviy talablar asosida yanada takomillashtirish.

10. Pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirishda innovatsion malaka oshirish kurslaridan keng va samarali foydalanish.

YAKUNIY XULOSA

Toshkent vohasining Chotqol-Qurama tog' tizmalariga tutashgan Yuqori Ohangaron havzasi qadimdan Qovunchi madaniyatiga xos o'zbek xalqi etnogenezida

muhim o‘rin tutgan hududlardan biri sanaladi. Buni Ertosh-Do‘lana qabristonida olib borilgan tadqiqotlarda qo‘lga kiritilgan moddiy madaniyat materiallari isbotlaydi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishida izlanishlar jarayonida olingan materiallar asosida quyidagi xulosalarni ilgari surishimiz mumkin:

Ertosh-Do‘lana yodgorligining o‘rganilishi o‘zbek xalqining dastlabki etnomadaniy asosini tashkil etgan Qovunchi madaniyati chorvador aholisi vakillarining Ohangaron daryosi yuqori havzalarida keng tarqalgani, o‘troq hayotga o‘tib borishi va arablar bosqinidan keyin islom dinini qabul qilishi, ularning ko‘mish marosimlaridagi o‘zgarishlarda yaqqol namoyon bo‘ladi;

Qovunchi madaniyatining Yuqori Ohangaron havzasidagi chorvador vakillariga tegishli Ertosh-Do‘lana qabrlari katokomba shaklida bo‘lib unga dromos orqali kirilgan;

Katokomba shaklidagi qabrlarga sopol idishlar qo‘yilib, marhumlar asosan oilaviy ko‘milgan;

Ertosh-Do‘lana yodgorlik-qabristonida 3 xil davr qabrlari mavjud;

Qovunchi madaniyati katakomba qabrlarining ust qismida qoraxoniylar davri musulmon qabrlari joylashgan va ular bir-biri bilan o‘zaro qarindoshlik aloqalari orqali bog‘langan;

Ertosh-Do‘lanadan topilgan qabrlar va ulardagi sopol buyumlar ko‘za, xurmacha, qo‘ra-qumg‘on, qo‘ra, varonkasimon sopol suzg‘ich, dastasi ayiq, ot, shoxdor qo‘chqor shaklidagi yog‘lig‘ilardan iborat bo‘lib, ularni II-IV asrlar bilan davrlashtirish mumkin.

Qabrlardan sopol idishlar va bronza zirak, qora serpintin toshidan yasalgan turli xil shakldagi tosh munchoq, geometrik shaklli ilohiylashtirilgan ko‘zmunchoq, ko‘kimtir shishadan bikonik shaklda yasalgan munchoq-bilakuzuk, och zarg‘oldoq rangli toshdan yasalgan silindr shaklli va sirti qabarikli sharsimon pasta munchoq, temirdan yasalgan uzuk, mitti etikchani eslatuvchi toshtumor, oq shisha marjon shodasi, markaziy qismi maxsus teshilgan bronza plastinka, kichik qora toshdan qilingan taqinchoqlarning ishlanish texnikasida ko‘chmanchi chorvador qabilalar va o‘troq aholi madaniyatlari aralashuvi (simbiozi, uyg‘unligi) kuzatiladi;

Qabrlarga dafn marosimlarida qo‘yilgan buyumlar ichida Qovunchi madaniyatiga oid bo‘lgan kulolchilik buyumlari bilan birga Sarmat madaniyatiga oid kulolchilik buyumlari qo‘yilganligi artifaktlar asosida isbotlandi. Bundan kelib chiqadiki, Qovunchi

va Sarmat madaniyatlari o‘zaro yaqin bo‘lgan;

Tub joyli qovunchi madaniyatiga oid Ertosh-Do‘lananing turkiy aholisi qoraxoniylar sulolasi hukmronligi paytlarida musulmon dinini qabul qilgan va islom dini an‘analari asosida marhumlarni dafn etish urfga kirgan.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR.

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сонли Фармони “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” // Халқ сўзи. – 2017. 8 феврал.

2. *Мирзиёев Ш.М.* “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш-давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи // Халқ сўзи. – 2017 йил. 16 июнь.

3. Асқаров А. Мустақиллик йилларида тарих, археология ва этнология // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Т.: 1996. – № 6.
4. Асқаров А. Ўзбек халқи этногенез ва этник тарихининг баъзи бир назарий ва илмий-методологик масалалари. «Ўзбек халқининг келиб чиқиши: илмий-методологик ёндашувлар, этногенетик ва этник тарих» мавзусидаги Республика илмий-назарий семинар материаллари. – Т.: 2004.
5. Асқаров А. Ўзбек халқи этногенези ва этник тарихининг баъзи бир назарий ва илмий-методологик асослари // Ўзбекистон тарихи. – Т.: 2002. – № 4.
6. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Т.: 2015.
7. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. –Т.: 2007.
8. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. Тошкент, 1996. – 40-бет.
9. Ёрматов И. Оҳангарон водийси жой номларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2016. 143-б.
10. Иномов О. Қовунчи маданияти ва унинг ўзбек халқининг шаклланишидаги роли. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори илмий (PhD) даражасини олиш учун ёзилган диссертатсияси. – Тошкент, 2019. 163 бет.
11. Иномов О.У. Сирдарёнинг ўрта ҳавзаларини археологик жиҳатдан тадқиқ этилиши // Ўзбекистон Миллий Университети хабарлари. – 2013. – № 4.
12. Иномов О.У. Чирчиқ ва Оҳангарон водийси қадимги ёзма манбаларда // Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2012. – № 1.
13. Қорайев С. Топонимика: Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2006. – 320 б.
14. Нормуродов Д. Р. Тошкент воҳасининг қадимги ва ўрта асрлар даври моддий маданияти тарихи (мил. Авв XIII- милодий XIII аср бошлари): Диссертация (PhD). - Тошкент, 2020. 1-илова. 306-бет.

15. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8-жилд. – Тошкент, 2004. – 534-535 бетлар.
16. Шониёзов К.Ш. Қанғ давлати ва қанғлилар. – Тошкент: Фан, 1990.
17. Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001.

Рус тилидаги адабиётлар

18. Абрамова М.П. Сарматская культура II в. до н. э. – I в. н. э. (По материалам Нижнего Поволжья. Сусловская этап) // СА. – 1959. – №1. – С. 54-57.
19. Агзамхожаев Т. Погребальные сооружения Чирчик-Ангренской долины 1-VIII вв. н.э. Автореф. Канд. Дисс. Ташкент, 1966.
20. Анарбоев А.А., Баратов С.Р., Буряков Ю.Ф., Вулферт Э.Ф. Археологическая разведка и исследования по железнодорожной трассе Ангрен-Поп // АИУз 2012 год. – Самарканд, 2013. – Вып. 9. – С. 17-20.
21. Байпаков К.М. Древняя и средневековая урбанизация Казахстана (по материалам исследований Южно-Казахстанской комплексной археологической экспедиции). Книга II. Урбанизация Казахстана в IX – начале XIII в. - Алматы, 2013.
22. Бубнова М.А. Добыча серебро-свинцовых руд в Шелджи в IX-XII вв. // Археологические памятники Таласской долины. – Фрунзе, 1963. – С. 233-234.
23. Буряков Ю.Ф, Дадабаев Г. Памятники античного времени в Ташкентском оазисе // ИМКУ. – Т.: 1973. –№ 10. – С. 38-51.
24. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Т.: Фан. 1982.
25. Буряков Ю.Ф. Горное дело и металлургия средневекового Илака. – Ташкент-1974. – С. 12-14.
26. Буряков Ю.Ф. и др. Археологические памятники Ташкентской области. – Ташкент, 1973. – С. 76-84.

27. Буряков Ю.Ф. Из прошлого Чаткало-Кураминского промышленного района (К истории горного дела и металлургии средневекового Илака): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1966.
28. Буряков Ю.Ф. О местонахождении “серебряного рудника Шаша” // ОНУ. № 12. – Ташкент, 1965. – С. 28-30.
29. Буряков Ю.Ф., Алимов К., Бурякова Э.Ю. Исследования в зоне Туябугузского водохранилища. АО 1972 г. – М., 1973.
30. Буряков Ю.Ф., Дадабаев Г. Памятники античного времени в Ташкентском оазисе // ИМКУ. – Т.: – № 10.
31. Буряков Ю.Ф., Касымов М.Р., Ростовцев О.М. Археологические памятники... – С. 76-77.
32. Григорев Г.В. Каунчитепа (раскопки 1935 г.). Ташкент, 1940.
33. Григорев Г.В. Отчет об археологической разведке в Янгиюльском районе Уз.ССР в 1934 г. – Тошкент, 1935.
34. Древности Туябугуза. – Ташкент: Фан, 1978.
35. Книпович Т.Н. Некоторые вопросы датировки среднеазиатской керамики домусулманского периода // КСИИМК. – М., 1948. – № 28. – С. 153.
36. Левина Л.М. Керамика нижней и средней Сырдарьи в I тыс. н.е. – М., 1971.
37. Литвинский Б.А. Среднеазиатский горный промысел в средние века (IX-XII вв.). – С. 52.
38. Рамазонов А., Бурийев С. Тупроқшунослик ва деҳқончилик. – Тошкент: Баркамол фойз медиа, 2018. 43-бет.
39. Тереножкин А.И. Рес. на работу Г.В.Григореву на Каунчитепа. Уз ФАН СССР, -вып. 8. 1940. – С. 81-84.
40. Тереножкин А.И. Согд и Чач // КСИИМК, – М., 1950. – № 33.
41. Толстов С.П. К вопросу о датировке культуры Каунчитепа // ВДИ. – М., 1946. – № 1, – С. 175-176.

42. Филанович М.И. Шаштепа – древнейшее поселение оседлых земледельцев на территории Ташкента // У истоков древней культуры Ташкента. – Ташкент, 1982. – С. 91-124.

43. Хазраткулов О.Х., Абдуназаров Р., Саидов А.. История изучения природы бассейна р. Ахангаран в советской период // Материалы конференции, Стр. 2-5.

44. Литвинский Б.А. Кангюйско-сарматский фарн. – Душанбе, 1968.

45. Литвинский Б.А. Курганы и курумы Западной Ферганы. – М., 1972.

Dissertatsiya va avtoreferatlar

46. Агзамходжаев Т. Погребальные сооружения Чирчико-Ангренской долины I-VIII. Автореф. дис...канд.ист.наук. – Т.: 1966.

47. Буряков Ю.Ф. Из прошлого Чаткало-Кураминского промышленного района (К истории горного дела и металлургии средневекового Илака. Автореф. дис...канд.ист.наук. – Т.: 1966.




2-rasm




Эртөн-Дулона кябр кўрғонлари кябристони







1



2

Шартли белгилар:

- скелет I Қонилик маданияти каброғи
- инвентарь □ - траншея рақамлари



жоска

артық

кучирилган тупроқ

ашы тупроқ

кыскама чатырасы

поясат чатырасы

чир, устакан казылганы катымы (арк. сый)

2-расм. Эртош-Дўлона кабрисони олиб борилган казиш ишлари:

1) Траншеяларнинг тархи (план); 2) Траншеяларнинг кесмаси (разрез).



1



2

7-rasm. 1-qabrning cho'kib qolgan holatdagi ko'rinishi:
2-qabrning ichi tozalangandan keyingi holati.



8-rasm. 2-qabrning tuzilishi




9-rasm. 3-qabr



10-расм. 2-траншеяни казиш пайтидаги 4-кабрнинг усти очилиб қолган ҳолати.
Расм шарқ томондан олинган.



11 -расм. 5-кабрни тупрокдан тозалаш жараёни.



12-расм. 6-кабр. 1) - расми; 2) тархи; 3) кесмаси.



13-rasm



14-rasm. I qabrda skeletlar joylashuvi



15 -расм. 1-кабрдан топилган ашёлар. 1-темир пичок; 2-тош тумор; 3-бронза зирак; 4-қора тош мунчок; 5-мунчок билагузук; 6-шарсимон паста мунчок; 7-темир узук; 8-этикча шаклидаги тош предмет; 9-ёғоч тўка; 10-маржон шодаси. 11-12-13-14-мунчоклар



16-расм. 2-кабр дромос йўлаги оғзи ва уни ёпиш учун тахлаб қўйилган тошларнинг шимол томондан кўриниши



1



2

17 -расм. 1-2 2-кабрнинг ички ҳолати.



18-rasm. II qabrdan topilgan ashyolar. 1-,2-,5- pichoqlar, 3-uzuklar; 4-kamon o'qining uchi; 6-munchoqlar shodasi



3-qabr. Uning shakli va tuzilishi. Skeletlar joylashuvi



20-rasm. 3-qabrdan chiqqan ashyolar



21-расм. 5-кабрдан топилган ашёлар.


1-кўза; 2-,3-,4-хурмача; 5-,6-,7-ёғлиғи; 8-това; 9-коса



21-rasm. III qabrning ichki ko'rinishi va undagi predmetlarning joylashish tartibi



22-rasm. IV qabrning ichki ko'rinishi. Qabrda arxeologik tadqiqot jarayoni



23 -расм. плани ва кесмаси

1) чим , ўсимлик ва илдизли тупроқ катлам; 2) ўртача каттиқликдаги соз тупроқли катлам; 3) юмшоқ соз тупроқ (кўзғатилган тупроқ); 4) Тош.



23-расм. 6-кабрдан топилган сопол идишлар.



24 -расм. 4-кабрдаги скелетларнинг тепадан кўриниша.



25-rasm. V qabrning topilishi



26-рasm. 6-жабр.





22-рasm. 6-хабр.



28-расм. 6-кабрдан топилган сопол идишлар.



29-rasm.

Qabr VII sopollari




30-rasm. Qoraxoniylar davri qabrlarining topilishi



32 -расм. 2-кабрдан топилган сопол идишлар.
1-3 - хурмачилар; 4-5 - ёғлигилар; 6-тувак.



33-расм. 3-қабдан топилган сопол идиш намуналари.



34-расм

Эртош-Дўлона ёдгорлигининг 4-кабридан топилган Қовунчи маданиятига оид сопол буюмлар. 1) кўза; 2-3 - туваклар; 4-5 - дастаси кўчқор кўринишида ишланган ёғлиғилар.

Glossariy

O'zbek	Ingliz	Rus	Izoh
Angob	Angobe	Ангоб	–kulolchilikda ishlatiladigan rang .
Antik	Antique	Античный	–lotincha qadimgi.
Arxeologik davrlashtirish	Archaeological chronology	Археологическая хронология	– Rimlik shoir va faylasuf Lukresiy (mil. avv. I asr) yozuv paydo bo'lgunigacha bo'lgan tarixni ilk bor tosh, mis, bronza va temir davrlariga bo'lgan edi. Lukresiyning ushbu sxemasi arxeologlar tomonidan hozirgacha qo'llanib kelinadi. Arxeologiya fan sifatida XIX asrga kelib uzil-kesil shakllandi. Daniyalik arxeolog X.Tomsen insoniyat tarixining boshlanishi yuqoridagi uchta bosqichdan iborat bo'lganligini 1836 yilda nashr etilgan “Shimol qadimiyatiga yo'riqnoma” kitobida arxeologik jihatdan isbotlab berdi. 1837 yilda E.Larte tosh qurollarini ishlatgan ibtidoiy odamlar mamontlar bilan zamonadosh bo'lganligini aniqladi. 1865 yil ingliz arxeologi J.Lebbok insoniyatning ibtidoiy tarixini ikki davrga <i>paleolit</i> (qadimgi tosh davri) va <i>neolit</i> (yangi tosh davri)ga bo'lishni taklif qildi. Fransuz arxeologi Gabriel de Mortile

			paleolitni yuqori va quyi bosqichga boʻlib, ilk paleolitning oʻzini <i>shel</i>, <i>ashel</i> va <i>muste</i>, quyi (soʻnggi) paleolitni <i>orinyak</i>, <i>solyutre</i>, <i>madlen</i> bosqichlariga boʻlishni taklif qildi. Bu nomlarni u Fransiyadagi tosh davriga oid yodgorliklarning nomidan olgan edi. XIX asr oxirida yana bir fransuz arxeologi E.Pet paleolitdan neolitga oʻtish oraliq bosqichi – <i>mezolit</i>ni kashf qildi. Shu davrda neolitdan <i>bronza</i> davriga oʻtish bosqichi <i>eneolit</i> ham aniqlandi. Temir davri esa ilk temir, <i>antik davr</i> va oʻrta asrlar arxeologiyasiga boʻlindi.
Arxeologik kuzatish	Archaeological observation	Археологическое наблюдение	– arxeologik jihatdan tekshirilmagan joylarda xoʻjalik maqsadlarida ariq chiqarish, bino qurish, yer tekislash, yer oʻzlashtirish va boshqa holatlarda yer osti va ustidagi moddiy madaniyat yodgorliklarining yoʻq boʻlib ketmasligi uchun oʻsha joylarni arxeologlar tomonidan nazorat qilib turilishi.
Arxeologik madaniyat	Archaeological culture	Археологическая культура	– oʻziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan muayyan davrga va hududga doir arxeologik yodgorliklar birligi. Ayrim yoki bir qancha belgilarga, xususan,

			sopol buyumlarining shakli, naqshi, marhumlarni dafn etish tartibi, mehnat qurollari, uy-ro'zg'or anjomlari va boshqalarga ko'ra belgilanadi. Odatda, yodgorlik qaerdan topilsa, shu joyning nomi bilan yuritiladi (masalan: <i>Qovunchi madaniyati</i> , <i>Zamonbobo madaniyati</i>).
Arxeologik Qazish	Archaeological excavations	Археологические раскопки	– maxsus ruxsatnoma asosida yodgorliklar va <i>madaniy qatlamni</i> to'liq o'rganish imkonini beruvchi uslubga (avvalambor stratigrafik uslubga) rioya qilingan xolda <i>arxeologik yodgorliklarni</i> tadqiq etish. A.Q. turli arxeologik tekshiruvning yakunlovchi bosqichi bo'lib, unda sinab ko'rilgan yodgorlik boshdan-oyoq batamom qazib tekshiriladi, tugallangan tarixiy xulosalar chiqariladi.
Arxeologik razvedka	Archaeological intelligence	Археологическая разведка	– arxeologik tadqiqotlar dala va laboratoriya tadqiqotlariga bo'linadi. Dala tadqiqotlari qazishmalar va dala-qidiruv (<i>razvedka</i>) ishlaridan iborat bo'ladi. A.R.ning eng oddiy va ishonchli turi bu o'rganilayotgan hududni piyoda yurib tevarak atrofdagi suv havzalari, tepaliklar va yer yuzasini diqqat bilan kuzatib chiqishdir. Yer

			yuzasidan terib olingan osori-atiqalar (podemnyy material) va qadimgi qurilishlar izlari shu xududda <i>statsionar</i> (turg'un-davomli) arxeologik qazishmalar boshlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.
Arxeologik sanalash	Archaeological enumeration	Археологический перечень	– <i>arxeologik yodgorliklarning</i> yoshini aniqlash. Ularning sanasi yil, yuz yillar, ming yillarda mutlaq, aniq ko'rsatilishi hamda boshqa yodgorliklarga nisbatan nisbiy (ilgari, so'nggi) bo'lishi mumkin. A.S. arxeologik usullar (stratigrafik, tipologik) va tabiiy fanlar usullari (radiouglerod va boshqalar) bilan aniqlanadi.
Arxeologik sinov	Archaeological experiment	Археологический эксперимент	– <i>arxeologik yodgorliklarni</i> qayd qilish (arxeologik xaritalar tuzish) va qazishma ishlari olib borish maqsadida o'tkaziladigan qidiruv ishlari. A.S.da odatda har bir yodgorlik sinov tariqasida qisman qazib ko'rilib, uning bunyod etilgan vaqti, umri, xususiyati kabi tomonlari aniqlanadi.
Arxeologiya	Archeology	Археология	(yun. archaios – qadimgi, logos – fan) – insoniyat o'tmish tarixini moddiy madaniyat yodgorliklari (mehnat qurollari,

			asbob-anjomlari, qurol-yarogʻlari, turar joylari, qurilishlari, qabrlarini) qazishmalar orqali oʻrganuvchi fan. Ushbu terminni birinchi boʻlib qadimgi yunon faylasufi Platon (mil. avv. 427-347 y.) ishlatgan. Inson umrini 3 mln yil deb hisoblaganda shuning 99,998 % ni yozuvgacha boʻlgan davr tarixi tashkil etadiki ushbu katta davrni faqat A. fani orqali tiklash va oʻrganish mumkin.
Burgʻulik madaniyati	culture of Burguluk	культура Бургүлюк	– Qadimgi Toshkent vohasining soʻnggi bronza va ilk temir davrlari (mil. avv.IX-IV-asrlar)ga oid arxeologik madaniyati. Bu madaniyatga tegishli bir guruh yodgorliklar Ohangaron daryosining Toshkent dengizi tomon ketgan Burganlisoy oʻzani sohilidan topib oʻrganilgan. Unga tegishli manzilgohlar Ohangaron daryosining irmoqlari-hozirgi Joʻn va Salor kanallarining shoxobchalari havzalarida ham uchraydi. Bu madaniyatga oid materiallar dastlab (1934 yilda) Qovunchitepaning ostki qatlamlarida ham uchratilgan.
Dromos	Dromos	Дромос	katakomba tarzli qabrlarda qabr kamerasiga kirish

			yo'lagi.
Etnogenez	Ethnogenesis	Этногенез	Xalqlarning kelib chiqishi.
Etnos	Ethnos	Этнос	– bu yunoncha so'z bo'lib, u elat, xalq demakdir. Etnos atamasi, ya'ni xalq juda keng va tor ma'noda ishlatiladi. Masalan, keng ma'noda O'zbekiston xalqi, Rossiya xalqi, dunyo xalqi; Tor ma'noda o'zbek xalqi, rus xalqi, tojik xalqi.
Fetishizm	Fetishism	Фетишизм	Qadimgi odamlarni u yoki bu buyumlarni omad keltirishiga yoxud balo qazodan asrasishiga ishonish
Илоқ	Ilakh	Илак	tarixiy viloyat. Toshkent viloyatining jan. qismida. Ohangaron daryosi (13-a. boshlariga qadar I. deb atalgan) havzasida bo'lgan.
Katakomba	Catacomb	Катакомба	yer tagida yarim oysimon tarzida kovlanib qaziladigan qabr turi.
Kenotaf	Cenotaph	Кенотаф	– (yunoncha. <i>Kenotaphion</i> – murda skeletisiz qabr) – murda qo'yilmagan bo'sh qabr, ya'ni musofirlikda, ovda yoki yov bilan kurashda bedarak yo'qalib, vafot etgan shaxs ruhining qabri). Qadimgi Misr, Yunoniston, Rim, bronza davrida O'rta Osiyoda kenotaf qabrga, uning loydan yoki

			matodan yasalgan mitti haykalchasi, yoki uning chorva mulkidan bitta ko‘zichoq yoki taqachani marxum qanday holatda ko‘milsa, aynan shunday holatda ko‘mish dafn marosimiga aylangan
Keramika	Ceramics	Керамика	–tuproq yoki anorganik moddalarni yuqori tempraturada pishirish yo‘li bilan olinadigan nometal materiallar va buyumlar.
Materik	Mainland	Материк	- bezovta qilinmagan yer,inson faoliyatining izlariz bo‘lmagan yer.
Migratsiya	Migration	Миграция	(lot. migratio — ko‘chaman, joyimni o‘zgartiraman) — aholining bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi.
Mozorqo‘rg‘on	Mazar Kurgan	Мазар курган	chorvador qabila sardorlarining mozori.
Mozor-qo‘rg‘on	The cemetery	Кладбище	– chorvador qabilalarga dahldor bo‘lib, ikki xil ko‘rinishda, ya‘ni tosh uyumli va tuproq qo‘rg‘onli shaklda qad ko‘targan. Ichki tuzilishiga ko‘ra, yorma qabr, dromosli, katakombali lahat shaklida bo‘lib, skelet va qabr ashyolari joylashtirilgan lahat og‘zi tosh plita, tosh bloklari, ba‘zida dev g‘ishtlar bilan berqitilgan bo‘ladi.
Mug‘xona	Mugxana	Мугхана	1) otashparastlar qarorgohi; 2) o‘tov

			shaklida toshdan yasalgan qabr inshooti (mil. av. 3—2 — mil. 5—6-a.lar).
<u>Madaniy qatlam</u>	<u>Cultural layer</u>	<u>Культурный слой</u>	—insoniyatning turmushi, xo'jalik faoliyati izlari saqlanib qolgan tuproq qatlami tushuniladi. Madaniy qatlamlar bir va bir necha o'ntacha gorizontlarga bo'linadi. Ularning qalinligi bir necha santimetrdan 30—35 metrgacha bo'lishi mumkin. Bu esa mazkur joyda odamlarning qancha vaqt yashaganligi bilan bog'liq. Madaniy qatlam u yoki bu qatlamlarga shurf tashlash, keyin keng ko'lamda qazish ishlari natijasida aniqlanadi.
O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i tipi	The race of the Central Asian Mesopotamia	Раса Среднеазиатского Междуречья	– ko'zlari qo'y ko'z, tanasi bug'doy rang, yuz tuzilishi dumaloqroq, yuz chanoqlari biroz bo'rtib chiqqan, iyagi oval shaklda, sochlari qora, bosh chanog'i braxikefal (dumaloqroq), jussasi o'rtacha. Bu tip protoevropeoid tipining mahalliy O'rta Yer dengizi tipi bilan qorishuvidan tarkib topgan. Qorishma tarkibida protoevropeoidlar hissasi kuchliroq.
Platforma	Platform	Платформа	– arxeologik qazishmalardan ma'lumki, o'troq dehqonchilik madaniyati

			yodgorliklarida ilk shaharlar (qal'a, qasrlar) paxsa va xomg'ishtlardan tiklangan baland (7-10 metrgacha) va keng supalar ustida qad ko'targan. Bu bilan qadimgi muxandislar qal'a va qasrlarni mahobatli bo'lishini ta'minlaganlar. Qal'lar fundamenti rolini o'ynagan bunday qurilmalar arxeologiya amaliyotida platforma deb atalgan. Platforma ustida, uning chetlari bo'ylab qal'a mudofaa devorlari tiklanib, devor ichida mitti shahar kvartallari, turli xil ishlab chiqarish ob'ektlari, shahar hokimining monumental saroyi, qal'a darvozasi va undan shahar kvartallariga olib boruvchi yo'llar joylashgan.
Plato	Plateau	Плато	yer yuzasi kam parchalangan yassi yoki to'lqinsimon tekislik.
Prototurk	Proto turkic	Прототюрк	– Qadimgi turklarning ajdodi. Keyingi yillarda qadimgi Xitoy yozma manbalarining tahlili asosida Andronovo madaniyati qabilarini prototurklar edi, degan xulosaga kelingan (A. Asqarov va uning izdoshlarining qarashi).
Qo'rg'on	The castle	Курган	– Arxeologiya amaliyotida qo'rg'onlar ikki xil bo'ladi. Birinchisi mozor

			qo'rg'onlar. Ularning katta-kichikligi uning ostiga ko'milgan shaxsning hayotlik davridagi mavqei, darajasiga bog'liq bo'lgan. Ikkinchisi ilk o'rta asrlardan boshlab katta mulk egalari tegishli bir darvozali qal'a-qo'rg'on. Uning atrofi mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. dorlarga o'rta asrlarda qalin va baland mudofaa devorlari bilan o'rab olingan bo'lib, devorlar osti bo'ylab qo'rg'on qatxudodiga qaram bo'lgan turli toifa xizmatchilarning uy-joylari joylashgan. Qo'rg'on o'rta qismini bog'u-roq'lar, ekin maydonlari egallagan. Hozirgacha nomlari saqlanib kelgan Tepaqo'rg'on, To'raqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Chimqo'rg'on kabi shahar va qishloqlar ana shu qo'rg'onlarning keyingi davrlardagi rivojlanishi asosida tarkib topgan toponimlardir.
Qovunchi madaniyati	Каунчи culture	Культуры Каунчи	– Sirdaryoning o'rta havzalarida (Toshkent vohasi va Janubiy Qozog'iston) miloddan avvalgi II-asr – milodiy VI-asrga oid arxeologik madaniyat. O'rganilgan joy dastlab Qovunchitepa xarobasi bo'lgani uchun shunday

			nom olgan. Uni ilk bor arxeolog G.V. Grigorev 1934-1937 yillarda Toshkent viloyati Yangiyo‘l shahri hududida joylashgan Qovunchitepada arxeologik izlanishlar olib borib, uning xalqi qadimgi Toshkentning chorvador va o‘troq aholisi qorishuvidan hosil bo‘lgan madaniyat, degan xulosaga kelgan.
Qurum	Kurum	Курум	tog‘larning yon bag‘irlari, yassi tepaliklar va daryolar o‘zanlaridagi yalang nuragan tosh uyumlari va sochilmalari.
Riton	Rithon	Ритон	ichimlik ichiladigan shoxsimon kadimgi idish.
Sarmat madaniyati	the culture of the Sarmate	культура Сармат	mil. av. 1ming yillikning 2-yarmi — mil. 1ming yillikning boshlarida Markaziy Osiyoning shim.dan to Dunaygacha bo‘lgan keng dasht hududlarini egallagan ko‘chmanchi chorvador qabilalar tomonidan yaratilgan madaniyat.
Shurf	Pit	Шурф	–yer yuzasiga chiqish yo‘liga ega bo‘lgan vertikal ,ba’zan qiya kon inshooti, chuqurligi 25 metrgacha bo‘ladi .Yer yuzasidan foydali qazilmalarni izlash va razvedka qilish hamda muhandislik va gidrogeologik tadqiqot qilish maqsadida

			o'tkaziladi.
Transheya	Trench	Траншея	–tuproqda odatda trapetsiyasimon kesim bo'yicha va kerakli uzunlikda 10 metrdan 1000 metrgacha qaziladigan chuqurlik.
Zoomorf idishlar	Zoomorphic vessels	Зооморфные сосуды	tashqi qismiga hayvon tasviri ishlangan idishlar.



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ

ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ ДАВЛАТ
МУЗЕЙИ

**«МОДДИЙ-МАЪНАВИЙ МЕРОС ВА
УМУМБАШАРИЙ ҚАДРИЯТЛАР»**

Республика илмий-амалий анжумани материаллари

12-КИТОБ

ТОШКЕНТ – 2020

ERTOSH DO'LANA MOZOR QO'RG'ONIDAGI QABRLAR TUZILISHI VA DAFN MAROSIMLARI

Annotatsiya

Maqolada Ertosh - do'lana yodgorligining topilishi tarixi, mozor-qo'rg'onlarda olib borilgan so'nggi yillardagi tadqiqotlar haqida so'z boradi. Ushbu yodgorlikdan topilgan Qovunchi madaniyati vakillarining katakombalar tarzidagi qabr tuzilishi, ularni o'rganish metodikasi va ko'mish marosimlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada Ertosh do'lana yodgorligidagi qabrlar tuzilishi hamda ko'mish marosimlari boshqa shunga o'xshash yodgorliklar bilan qiyosiy tahlil qilingan.

В статье рассказывается об истории открытия памятника Эртош-Долана, о последних годах исследований, проведенных на кладбище. Освещены структура могил, методы их изучения и погребальные ритуалы в катакомбном строении представителей Каунчинской культуры, найденных в этом памятнике. Также в статье были проанализированы структура могил и погребальные обряды в памятнике Эртуш-Долана в сравнении с аналогичными памятниками.

The article tells about the history of the Ertosh-Dolana monument discovery, about the last years of research conducted at the cemetery. The structure of graves, methods of their study and funeral rituals in the catacomb structure of representatives of the Kaunchin culture found in this monument are highlighted. The article also analyzes the structure of graves and funeral rites in the Ertosh-Dolana monument in comparison with similar monuments.

Yuqori Ohangaron havzasida, Ohangaron daryosiga Ertoshsoy nomli irmoq Chotqol tog' tizmalaridan kelib qo'shiladi. Bu soy suvi Angren-Qo'qon avtomagistral yo'lining taxminan 40-kilometrida Ohangaronga kelib tutashadi. Ushbu joydan shimolda, Ertoshsoyning o'ng va so'l tomonlari bo'ylab 15 km masofagacha aholi istiqomat qiluvchi turar-joylar tarqalgan. Bu hududlar Ertosh qishlog'i nomi bilan ataladi. Bu qishloq har tomonlama tog'lar bilan o'ralgan, sovuq havo oqimlaridan panada joylashgan. Qishloqning qulay iqlim sharoiti tufayli chorvadorlar makoniga aylangan. Keyinchalik turar-joylar atroflari o'zlashtirilib, bog'-u rog'lar bunyod etilgan.

Soy bo'ylab 10 km chamasida yuqoriga ko'tarilib borilganda Ertoshsoyning o'ng tomonida tog'lar yonbag'rlari aholi tomonidan uy-joylar qurilib, bog'lar barpo etilgan. Mahalliy tadbirkorlardan A. Isabekovga tegishli olma daraxtlarni sug'orish vaqtida taxminan diametri 2 metr chamasida maydonda cho'kma hosil bo'lib, uni

o'pirlishi sezilib qoladi. Bog' egasi bu haqda o'z ukasi, ustoz akademik Ahmadali Asqarovning shogirdi, Bekzod Isabekovga yetkazadi.

2018-yilning iyul-avgust oylari davomida arxeolog A. Asqarov shogirdlari ishtirokida cho'kmalarni ochib o'rganadilar. Natijada bu joy qadimgi qabriston bo'lib chiqdi. Ob'ekt joylashgan maydon dengiz sathidan 1600-1700 metr balandlikda. Mozor-qo'rg'on o'rnining tabiiy-geografik holati, tog' yonbag'rida joylashganligi va u yerda do'lana daraxtlari ko'pligi sabab, A. Asqarov tomonidan bu ob'ektga shartli «Ertosh- Do'lana» deb nom berildi.

Yodgorlikni o'rganish natijasida bu yerdan Qovunchi madaniyatining Qovunchi II bosqichiga oid katakomba shaklidagi qabrlar va ularning ichidan esa o'zbek xalqi etnogenez tarixi uchun juda muhim bo'lgan noyob ashyolar, ko'plab sopol idishlar topildi.

Qovunchi madaniyati davrida marhumlarning jasadlari soz tuproqli va tosh uyumli qabr qo'rg'onlariga dafn etilgan [1, 2,3]. Qabrlar o'z tuzilishiga ko'ra, yakka, juft yoki oilaviy xilxonalar bo'lib, ular katakombali bo'lgan. Jumladan, Kindiktepa, Kavardan, Piskent, Apartak, Ertosh-Do'lana kabi yodgorliklardagi mozor-qo'rg'onlardan ko'plab qabrlab topib o'rganilgan. Ular asosan katakomba ko'rinishida bo'lib, jasadlar dromos yo'lakchadan qabr lahadiga joylashtirilgan. Jasadlar lahadga chalangacha yotqizilgan. Qabrga marhum bilan birga idishlar (asosan sopol), mehnat qurollari, temir pichoqlar, kamar halqalari va zeb-ziynat buymlari qo'yilgan. Bu udum nafaqat ko'chmanchilarga, balki bronza davri dehqon jamoalariga ham xos bo'lgan [4, 5,6].

Shuningdek bu qabrlarda marhumlar qo'l va oyoqlari ochiq – «chavandoz ko'rinishida» yotqazib dafn etilgan [7]. Bunday ko'mish odati mil. avv. II-I asrlarga oid «Sarmat madaniyati»ning Proxorov va Suslov madaniyatlarida ham uchratiladi [8]. Bu Qovunchi va Sarmat madaniyatlarining o'zaro yaqinligini ko'rsatadi. Buni Ertosh- Do'lana qabristonida olib borgan tadqiqotlarimizda ham kuzatdik. Qabrlarga dafn marosimlarida qo'yilgan buyumlar ichida Qovunchi madaniyatining dastasi turli hayvon shaklidagi kulolchilik buyumlari bilan birga Sarmat madaniyatiga oid

kulolchilik buyumlari qo'yilganligi ham kuzatildi [9]. Bu esa qadimgi migratsiyalar haqida ma'lumotlar beradi.

Ertosh- Do'lana qabrlarining hammasi oval shaklida. Topilgan 7 ta qabrdan faqat ikkitasidagina mayitlarni tartib asosida qo'yilmagan. Qolgan qabrlardagi er-xotin skeletlari parallel tarzda boshi sharqqa qarab yotqizilgan. Agar qabrda bolalar uchratilsa ular qat'iylik ko'zga tashlanmaydi. Qabrlardan topilgan ashyoviy dalillar ularning hayotlik davrida shug'ullangan kasbi haqida ma'lumot beradi. Agar marhum erkak kishi bo'lsa, yonidan pichoq, o'q uchlari, temir to'qa kabi buyumlari, ayol kishi bo'lsa, uning bo'yin qismida munchoq, tosh taqinchoq, bosh tomonida ham zeb-ziynat buyumlari bilan birga ko'milgan.

Qabrlarning hammasi tog' yonbag'ri nishablik bo'ylab kovlangan. Deyarli hammasining kirish qismi janubga qaragan. Ayrim skeletlarning oyoq tomonida olov izlari saqlangan. Qabrlarning ba'zilarida shag'al to'shalgan. Qabrlar katakomba tarzida qurilganligi va uning tuproqlari tashlab ketmasligi uchun yerning qattiq qatlami tagidan xilxona qazilgan.

Qabr I. Uning razmeri 280x270 sm bo'lib, bu oval shaklidagi qadimgi qabr kamerasi bo'lib chiqdi. Kameraga janubi-g'arb tomondan kirish qismi bo'lgan. Qabr teshigining diametri 65 sm bo'lib, tashqi tomondan yaxlit plita toshi bilan berkitilgan. Unga janubi-g'arbga qarab qiyalanib ko'tarilib boruvchi dromos yo'lagi joylashtirilgan. Dromosning uzunligi 3 metr ekanligi aniqlandi. Qabr teshigining shimoliy orqasida dromosga perpendikulyar qilib lahad qozilgan. Qabr kamerasida 3 ta skelet topildi. Jasadlarning barchasini boshi sharqqa, oyog'i esa g'arbga qaratib qo'yilgan.

1-skelet qabrga kiraverishda joylashgan. U erkak kishiga tegishli bo'lib, bo'yi 190 sm.ni tashkil qiladi. Skeletning bosh tomonida 13 sm. uzunlikdagi temir pichoq va bo'yin qismida qalamsimon tosh tumor topildi. 2-skelet 1-skeletning o'ng tomonida joylashgan. Bu skelet ayol kishiga tegishli bo'lib, uning uzunligi 175 sm.ni tashkil etadi. Uning quloq bo'shlig'i qismidan bronza zirak, skeletning bir qo'l bilagida qora serpentin toshidan yasalgan turli xil shakldagi tosh munchoqlar, ular

orasida geometrik shaklli ilohiylashtirilgan ko'zmunchoq ham mavjud. Ikkinchi bilagida ko'kimtil shishadan bikonik shaklda yasalgan munchoq-bilaguzuk topildi. Bilaguzuk munchoqlari orasida och zarg'oldoq rangli toshdan yasalgan silindr shaklli va sirti qabariqli sharsimon pasta munchoq ham bor . Qo'l panjasida temirdan yasalgan uzuk topildi. Munchoqlar orasida mitti etikchani eslatuvchi tosh predmet ham uchratilgan. 3-skelet 2-skeletdan o'ngda joylashgan. Bu skelet yosh ayol kishiga tegishli bo'lib, uning suyaklari deyarlik chirib, kukunga aylanib ketgan. Uning bel qismida mato belbog'ining daraxtdan yasalgan to'qasi topildi. Yog'och to'qaga ikki tig'li mitti bronza naqshlar yopishtirilgan. Yog'och to'qada mato izlarining qoldiqlari saqlangan. Skeletning bo'yin qismida oq shisha marjon shodasi topildi .

2-qabr. Bu qabr 1-qabrdan shimoli-sharqda, bog'ning sug'orilishi natijasida hosil bo'lgan ikkinchi cho'kma ostidan topildi. Bu joydagi qabr razmeri 3x3 m. li shurf qazish jarayonida aniqlandi. Shurfni yer sathidan 3,5 m. pastga qazib tushilganda qabr kamerasiga kirish teshigini yopgan toshlar ochildi. Shu joydan janub tomonga qiyali ko'tarilib borgan dromos qazilgan. Teshik ikkita yirik yassi va bitta kichik toshlar bilan yopilgan bo'lib, ular bilan kameraga kirish teshigi berkitilgan. Teshikning diametri 75x65 sm. (7-rasm).

Dromos og'zidan shimolga perpendikulyar qilib lahad yasalgan. Uning poli dromos sathidan 20-25 sm pastroqda, yer sathidan esa 3,75 m. chuqurlikda joylashgan. Bu qabr lahadi bo'lib, u oval shaklida, razmeri 2,7 x 3,05 m. ni tashkil etadi .

Qabr soz tuproqlardan tozalangach, uning polida 4 ta skelet qoldiqlari topildi. Skeletlar chirib kukunga aylangan va yer yuzida faqatgina sarg'ish izlar saqlanib qolgan. Skeletlarga qarab ularning jinsini aniqlab bo'lmadi. Ularning boshi sharqqa, oyog'i esa g'arbga uzitilib, chalqanchasiga yotqizilgan.

1-skelet lahadning o'rta qismida joylashgan. Uning izlarini uzunligi 1,8 m. Ushbu skelet erkak kishiga tegishli bo'lsa kerak. Chunki uning yonidan temirdan yasalgan pichoq topildi. 2-skelet 1-skeletdan o'ng tomonda joylashgan. Uning uzunligi 1,7 m. ni tashkil qiladi. Skelet izlari birinchi skeletga nisbatan kichik va

noziqroq bo'lib, bu dafina ayol bo'lishi mumkin. Chunki, har bir jamoaviy qabr oilaviy xilxonadir. Skeletlarning tagiga mayda tosh (shag'al) to'shalgan bo'lib, ushbu skeletning chap tomon qo'l barmoqlari yonida bitta katta tosh uchratildi. Ushbu skeletning bosh tomonidan temirdan yasalgan pichoq topildi. 3-skelet erkak kishiga tegishli bo'lsa kerak. Skelet izining uzunligi 1,8 m. bo'lib, bu skeletning tagiga ham mayda tosh to'shalgan. Skelet qo'l barmoqlarida 2ta uzuk, oyoq tomonidan kamon o'qining uchi, bosh tomonidan temirdan yasalgan pichoq topildi. Skeletning chap qo'li yonida bitta katta tosh uchratildi. 4-skelet yosh qiz bolaga tegishli bo'lsa kerak, chunki uning bo'yin qismidan pastadan yasalgan silindr shaklidagi munchoqlar shodasi topildi. Skeletning kukunga aylangan izlarining uzunligi 1,1 m.ni tashkil etadi.

Qabr III. Bu qabr ham yuqoridagilar kabi olmazor bog' maydonida hosil bo'lgan uchinchi cho'kma ostidan topildi. Uchinchi cho'kma 2-qabrdan g'arbda joylashgan. Cho'kmadan 2 m. chamasi pastroqda 1x2,5 metrli transheya qazilib, uning 2 m. chuqurligida ushbu qabrga olib boruvchi dromos ochildi. Dromos kesmasida qabr kamerasi teshigini berkitgan yaxlit plita tosh ochildi. Keyin shu tosh o'rnatilgan joydan shimol tomonda, cho'kma maydonini qamrab olgan 2x2 m. o'lchamda shurf qazildi. Shurf ostidan qabr lahadi ochildi. Lahad poli yer sathidan 3,85 sm. pastlikda joylashgan. U oval shaklda bo'lib, uning razmeri 2,5x2,3 sm.ni tashkil qiladi. Lahadga g'arbdan gorizantal shaklda pastlashib tushgan dromos bo'lib, uning balandligi 60 sm., eni 75 sm. uzunligi 3 m. bo'lgan. Lahad og'zi 55x74x25 sm. ni yaxlit tosh bilan yopib qo'yilgan. Dromos toshi lahad polidan 25 sm. balandlikda joylashgan. Ushbu qabr o'pirilib tushgan tuproqdan tozalanganda qabr kamerasida chalqanchasiga yotqizilgan 5 kishini skeletlari borligi ma'lum bo'ldi.

Ushbu qabrdagi skeletlarning xilxonada joylashishi har xil, qat'iy Qovunchi madaniyatiga xos anatomik tartib kuzatilmaydi. Masalan, birinchi qabrda bosh chanoq sharqqa qaratilgan bo'lsa, 2 va 3 qabrlarda marhumlar bosh chanog'i g'arbga qaratilgan, to'rtinchi skelet janubi-g'arbga, beshinchisining bosh chanog'i shimolga qaratilgan.

1 va 2 – skeletlar dromos yo‘lagiga perpendikliyar ravishda, lahadning shimoli sharqiga joylashtirilgan. 1-skelet chirib, butkul kukunga aylanib ketgan. Saqlangan suyak parchalariga qaraganda, uning bo‘yi 1 m. atrofida bo‘lgan. 1-skeletning chop tomonida 2-skelet joylashgan. Uning uzunligi 1,8 sm.ni tashkil qiladi. 2-skeletning bosh tomonidan surmatosh shaklidagi toshtumor topildi. Dafina kiyimi qadalgan bronza taqinchoqlar, markaziy qismi maxsus teshilgan bronza plastinka, kichik qora toshdan qilingan taqinchoqlar topildi. 2 skeletdan o‘ngda, bosh chanog‘i dromosga qaratilgan 3- va 4 – skelet joylashgan. 3-skeletning bo‘yi 160 sm., 4-skeletning bo‘yi 150 sm.ni tashkil etadi. 5- skelet kameraning shimoli-sharqiga joylashtirilgan. Uning bo‘yi 1,75 m.ni tashkil qiladi. Qabrdagi 2-skelet bilan 3-skeletning o‘rtasidan singan sopol parchalari, 4-skeletning chap tomoni va 5-skeletning bosh tomonidan bir donadan ko‘zalar, dromos yo‘lagidan singan sopol bo‘laklari topildi.

4-qabr. Qabristonning janubi-g‘arbida joylashgan. Ushbu joyda ikkinchi transheya qazilib, uning kesmasida qabr eshigi (teshigi) uchratildi. Transheyani 1,5 m. chuqurlikkacha qazib tushilganda ushbu qabrning janubi qismi teshilib qoldi. Qabrning qolgan qismini shifti o‘pirilib tushmagan. Qabr teshigiga qarab kelgan dromos janubdan shimolga tomon yo‘naltirilgan bo‘lib, uning uzunligi 3 m., kengligi 70 sm., balandligi 80 sm.ni tashkil qiladi. Dromos yo‘lagi yer sathidan 2,6 m. chuqurlikkacha qiyalanib, lahad tomon pasayib borgan. Lahad dromosga perpendikulyar shaklda qazilgan. Dromosdan lahadga kirish eshigi 60x60 sm. Teshik yaxlit plita toshi bilan berkitilgan.

Qabr kamerasing shifti qubba shaklda. Balandligi 2,8 sm.ni tashkil qiladi. Qabrni tozalash jarayonida lahadda uchta odam skeleti borligi aniqlandi. Ularning bosh tomoni kunchiqar - sharqqa, oyoq tomoni kunbotar - g‘arbga uzatilib, chalqanchasiga yotqizilgan. Boshlari esa chap tomonga (g‘arbga) burilgan. Skeletlar uzoq vaqtlardan beri qor, yomg‘ir suvlarining sizib kirishi, xilxona tomi tuproqlarining uqalanib tushishi va namning yuqori darajada bo‘lganligi sababli chirib, kukunga aylangan. Saqlangan suyaklar ham juda yomon holatga kelib qolgan.

1-skelet yoqib yubirilgan. Yoqilgan suyak kullari va chala quygan suyak parchalari qabr maydonining shimolida saqlanib qolgan. Uning bosh suyagi butkul yonib kukunga aylangan. Saqlangan suyaklarning qoldiqlariga ko'ra skeletning bo'yi 176-178 sm.ni tashkil qiladi. Skeletning chap bilagi yonidan temirdan yasalgan pichoq va kamon o'qining uchi topildi. Ularning yog'och dastalari butkul chirib ketgan. 2-skelet birinchisidan chap tomonda joylashgan. Bu skeletning jag' va kurak tishlarining saqlanishi holatiga qaraganda, u o'rta yoshli erkak kishiga tegishli bo'lgan. Saqlangan suyak qoldiqlariga ko'ra, uning bo'yi 175-176 sm.ni tashkil qilgan. Skelet bosh chanog'i qarshisidan 2ta temir uzuk topildi. O'ng qo'li yonidan temir pichoq, bel suyag'i ustida charm kamarining temirdan ishlangan to'qasi topildi. Chap qo'li yaqinidan parchalanib ketgan qandaydir predmet qoldiqlari uchratildi.

3-skelet ikkinchisidan chapda joylashgan. Uning tizzalari tashqi tomonga biroz bukilgan. Saqlangan skelet suyaklariga qaraganda uning bo'yi 160 sm.ni tashkil qilgan. Bu mayitning jinsini aniqlash qiyin, chunki uning erkak yoki ayolga tegishli ekanligini aniqlash mumkin bo'lgan bosh chanoq va tos suyaklari chirib ketgan. Bundan tashqari, uning jinsini aniqlashda yordam beradigan ashyoviy dalillar ham topilmadi. Uning suyaklari boshqalarga qaraganda nozikroqligi tufayli uni o'spirin yoshdagi ayolga tegishli bo'lsa kerak degan xulosaga kelish mumkin [10].

Bu kichik hududning o'zidan 7 ta qabr topildi. Biz hozir ulardan 4 tasini tahlil qilib chiqdik. Xulosa o'rinda aytish mumkinki, Ertosh-Do'lana mozar-qo'rg'onidagi Qovunchi madaniyati chorvador vakillari qabrlarining hammasi katakombalar tarzidagi oilaviy xilxonalar hisoblanadi. Ulardagi ko'mish marosimlari, dafn etish bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlar, qabrlardan topilgan buyumlar bizga ushbu hududda istiqomat qilgan chorvador ajdodlarimizning, xo'jaligi, turmush-tarzi va diniy marosimlari haqida yetarlicha ma'lumot beradi. Eng muhimi ularni ko'chmanchi chorvador emas, balki o'troq chorvador bo'lganligidan ham dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Агзамходжаев Т. Погребальные сооружения Чирчик-Ангренской долины I – VIII вв. н. э.: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1966.

-
2. Буряков Ю.Ф., Касымов М.Р., Ростовцев О.М. Археологические памятники Ташкентской области. – Ташкент, 1973. – С. 76-84;
 3. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Т.: Фан. 1982. – С. 55-57.
 4. Аскаров А. Сапаллитепа. – Т., Фан, 1973.
 5. Аскаров А. Бронзовый век южного Узбекистана (К проблеме развития локальных очагов древневосточной цивилизации) // Автореф.дисс.докт.ист.науки. – Москва, 1976.
 6. Ионесов В. Новые исследования могильника эпохи бронзы Джаркутан IVa. ИМКУ, вып. 22. Ташкент, 1988.
 7. Буряков Ю.Ф. К исторической топографии средневекового Илака // СА. – М., 1972. – № 2.
 8. Абрамова М.П. Сарматская культура II в. до н. э. – I в. н. э. (По материалам Нижнего Поволжья. Суловская этап) // СА. – 1959. – №1. – С. 54-57.
 9. А.Аскаров. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Тошкент, «O'zbekiston» НМИУ, 2015 - 672 б.
 10. У.Исмоиловнинг дала ёзуви. 2019 йил май-апрель ойларида Эртош-Дўлана ёдгорлигида олиб борган экспедиция кундалигидан.

ISSN 2524-0986



АКТУАЛЬНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ

ЖУРНАЛ

Выпуск 2(58)
Часть 5

Переяслав
2020

**АКТУАЛЬНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ**

ВЫПУСК 2(58)

Часть 5

Февраль 2020 г.

ЖУРНАЛ

Выходит – 12 раз в год (ежемесячно)
Издается с июня 2015 года

Включен в наукометрические базы:

РИНЦ http://elibrary.ru/title_about.asp?id=58411

Google Scholar

<https://scholar.google.com.ua/citations?user=JP57y1kAAAAJ&hl=uk>

Бібліометрика української науки

http://nbuviap.gov.ua/bpnu/index.php?page_sites=journals

Index Copernicus

<http://journals.indexcopernicus.com/++++,p24785301,3.html>

Переяслав

СОДЕРЖАНИЕ

СЕКЦИЯ: АРХИТЕКТУРА

Liubyskyi Roman, Liubyskyi Ostap (Lviv, Ukraine) CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF STREET DESIGN BY IGNACY DREXLER IN THE INTERWAR LVIV	6
Бесжанов Ш. Н., Шляхтич Е. В. (Нур-Султан, Казахстан) ПРИРОДНО-КЛИМАТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ В ПОСТРОЕНИИ АРХИТЕКТУРНОГО ПРОСТРАНСТВА.....	11
Габдулрахимова Айгерим Ардаковна (Нур-Султан, Республика Казахстан) ВЛИЯНИЕ ЦВЕТА НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВОСПРИЯТИЕ В ИНТЕРЬЕРАХ ОБЩЕСТВЕННЫХ ЗДАНИЙ.....	16
Келмагамбетов Нурлыбек Кишпанулы, Турсынкожа Нурболат Оразханулы (Кызылорда, Казахстан) ФОРМИРОВАНИЕ ЦВЕТОВЫХ РЕШЕНИЙ ФАСАДОВ ЗДАНИЙ	21
Садыков Темирлан Куанышевич, Шляхтич Елена Владимировна (Нур-Султан, Казахстан) ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ ОРГАНИЗАЦИИ АРХИТЕКТУРНО - ПРОСТРАНСТВЕННОЙ СРЕДЫ ДОСУГОВЫХ ЦЕНТРОВ.....	24

СЕКЦИЯ: ИСКУССТВОВЕДЕНИЕ

Гупало Татьяна Ивановна (Белгород, Россия) О НЕКОТОРЫХ ОСНОВНЫХ ПРИНЦИПАХ СОВЕТСКОЙ ПИАНИСТИЧЕСКОЙ ШКОЛЫ.....	30
Стефіна Надія Василівна (Суми, Україна) ФОРМУВАННЯ ВОКАЛЬНО – ВИКОНАВСЬКОЇ КУЛЬТУРИ У АРТИСТА-ВОКАЛІСТА В ПРОЦЕСІ ФАХОВОЇ ПІДГОТОВКИ.....	34

СЕКЦИЯ: ИСТОРИЧЕСКИЕ НАУКИ

Safarli Hajifakhraddin Yahya oglu (Nakhchivan, Azerbaijan) THE ICE HOUSES (BUZKHANAS) OF NAKHCHIVAN	38
Абразумова Олена Миколаївна, Захарченко Марина Василівна (Черкаси, Україна) УКРАЇНСЬКИЙ СЕЛЬБУД 1920-Х РОКІВ ЯК ЗАСІБ ФОРМУВАННЯ РАДЯНСЬКИХ ПОЛІТИЧНИХ ОРІЄНТАЦІЙ	43
Абразумова Олена Миколаївна (Черкаси, Україна) МОРАЛЬНО-ПСИХОЛОГІЧНА СПАДЩИНА БІЛЬШОВИЦЬКОГО ТЕРОРУ	49
Баймаханов Нұрбек Бақтиярұлы, Айтимбаев Махсат Тореханович (Шымкент, Казахстан) РОЖДЕННЫЙ ДЛЯ АЛАШ	53
Исмоилов Убайдулла Мамат ўғли (Тошкент, Ўзбекистон) ЭРТОШ-ДЎЛАНА - ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ НОЁБ АРХЕОЛОГИК ЁДГОРЛИГИ.....	58
Капбарова Гаухар Шермухамедовна, Батырбекқызы Гаухар (Шымкент, Казахстан) ОБ АЛАШСКОЙ АВТОНОМНОЙ РЕСПУБЛИКЕ.....	66

УДК 94

Исмоилов Убайдулла Мамат ўгли
(Тошкент, Ўзбекистон)

ЭРТОШ-ДУЛАНА - ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ НОЁБ АРХЕОЛОГИК ЁДГОРЛИГИ

Резюме: Мақолада Ўзбек халқининг этник шаклланиши, Қовунчи маданиятининг ўзига хос томонлари, милодий II-IV асрларда туркий қабилаларнинг ўтроқ турмуш тарзига ўтиб бориши, қўмиш маросимлари, урф-одатлари, фойдаланган буюмлари, уларнинг ўрта асрларда ислом динини қабул қилишларидан сўнг дафн маросимларидаги ўзгаришлар Эртош-дулана ёдгорлиги мисолида баён этилган. Шунингдек, Ўзбекистонда сўнгги йилларда олиб борилаётган археологик тадқиқотлар мақолада ўз аксини топган.

Калит сўзлар: Эртошсой, катакомба қабрлар, зооморф идишлар, Қовунчи маданияти, дромос йўлаги, мусулмончилик қабрлари, тош тақинчоқлар, этногенез.

ЭРТАШ - ДУЛАНА - УНИКАЛЬНЫЙ АРХЕОЛОГИЧЕСКИЙ ПАМЯТНИК УЗБЕКСКОГО НАРОДА

В статье Этническое образование узбекского народа, особенности культуры Кувунчи, переход тюркских племен к оседлому образу жизни во II и IV веках нашей эры, обряды погребения, обычаи, предметы обихода, изменения в погребениях после их обращения в средневековый ислам. В случае записей. В статье также отражены археологические исследования, проведенные в последние годы в Узбекистане.

Ключевые слова: Эрташсай, катакомбные гробницы, зооморфные блюда, культура Каунчи, тропа дромосов, мусульманские могилы, каменные украшения, этногенез.

Ismoilov Ubaydulla
(Tashkent, Uzbekistan)

ERTASH - DULANA - A UNIQUE ARCHAEOLOGICAL MONUMENT OF UZBEK PEOPLE

Abstract: The article describes the ethnic formation of the Uzbek people, the peculiarities of the melancholy culture, the transition of the Turkic tribes to the settled way of life in the II and IV centuries, their burial ceremonies, customs, and their used items, changes in the burials following the adoption of Islam in the Middle Ages are described in the example of the Ertosh-dolana monument. Archeological researches carried out in the country in recent years are also reflected in the article.

Key words: Ertoshsay, catacomb tombs, zomorphic dishes, Kaunchi culture, dromos corridor, Muslim tombs, stone jewelry, ethnogenesis.

Юқори Оҳангарон ҳавзасида, Оҳангарон дарёсига Эртошсой номли ирмоқ Чотқол тоғ тизмаларидан келиб қўшилади. Бу сой суви Ангрен-Қўқон

автомагистрал йўлининг тахминан 40-километрида Оҳангаронга келиб туташади. Ушбу жойдан шимолда, Эртошсойнинг ўнг ва сўл томонлари бўйлаб 15 км масофагача аҳоли истиқомат қилувчи турар жойлар тарқалган. Бу ҳудудлар Эртош қишлоғи номи билан аталади. Бу қишлоқ ҳар томонлама тоғлар билан ўралган, совуқ ҳаво оқимларидан панада жойлашган. Қишлоқнинг қулай иқлим шароити туфайли чорвадорлар маконига айланган. Кейинчалик турар-жойлар атрофлари ўзлаштирилиб боғ-у роғлар бунёд этилган.

Меҳмондўст қишлоқ аҳолисининг деярли ҳаммаси бир-бирига қариндош, ҳар бир инсон ўз макондошини, ҳаттоки, чорва молигача танийди. Сўлим табиати туфайли йилнинг май-сентябрь ойларида қишлоққа келувчиларнинг кети узилмайди.

Эртошсой топоними ҳақида турлича қарашлар мавжуд бўлиб, улардан бирида бу ердаги қаттиқ тошли қоялар отнинг эгарига ўхшатилиб, маҳаллий қурама халқлари тилида "егар" "ияр" тарзида талаффуз қилиниши, Эртошнинг номи ҳам Ияртошдан келиб чиққанлиги ҳақида мўлоҳаза қилинади [1. 69-б]. Яна бир фикрга кўра Эртош топонимининг пайдо бўлиши бир ривоят билан асосланиб, унга Тошен исмли шахс ерининг тошли эканлиги туфайли Эртош деб ном берганлиги айтиб ўтилади [2. 143-б].

Сой бўйлаб 10 км чамаси юқорига кўтарилиб борилганда Эртошсойнинг ўнг томонида тоғлар ёнбағрлари аҳоли томонидан уй-жойлар қурилиб, боғлар бунёд этилган. Маҳаллий тадбиркорлардан А. Исабековга тегишли олма дарахтларига сув қуйилиши натижасида тахминан диаметри 2метр бўлган айлана шаклидаги ер ўпирилишлари сезилиб қолади. Боғ эгаси бу ҳақда ўз укаси, устоз Академик Аҳмадали Асқаровнинг шогирди, Бекзод Исабековга билдиради.

2018 йилнинг июль-август ойлари давомида устоз А. Асқаров ва шогирдлари иштирокида чўкмалар таги очиб ўрганилди. Объект денгиз сатҳидан 1600-1700 метр баландликда жойлашган. Мозор қўрғон ўрнининг табиий-географик ҳолати, тоғ ёнбағрида жойлашганлиги ва у ерда дўлана дарахтлари кўплиги сабаб, Академик Аҳмадали Асқаров томонидан Эртош дўлана деб ном берилди.

Ўрганиш натижасида бу ердан Қовунчи маданиятининг Қовунчи II босқичига оид катакомба тарзидаги қабрлар ва уларнинг ичидан эса ўзбек халқи этногенез тарихи учун жуда муҳим бўлган оригинал буюмлар, сопол идишлар топилди.

Худди шунга ўхшаш мозор қўрғонлар Тошкент воҳасининг Пискент, Кавардан, Тайпан, Юқори Чинор, Дўналабулоқ, Турқушин каби ёдгорликлардан аниқланган. Бу қабрлардаги топилган ашёларда ҳам Эртош дўлана қабристонидан топилган ашёларга ўхшашлик кузатилади. Қовунчи маданияти кулолчилик буюмларини таҳлил қилган Й.Ф. Буряков [3. 70-71-б], Л. Левина каби археолог тадқиқотчилар бундай буюмларни Қовунчи маданиятининг иккинчи босқичи билан белгиланган [4. 182-184-б]. Юқоридаги ёдгорликлардан иккитасида Академик Аҳмадали Асқаров бошчилигида 2009-йилда Оҳангарон дарёсининг юқори оқимидаги Чинор қишлоғининг юқори қисмида, Қўқон-Ангрен йўли ёқасида Тайпан қишлоғида (2010 й.) бир мозор очиб ўрганилган

Эртош-дўлана ёдгорлигини кенг кўламда қазиш ва ўрганиш академик Аҳмадали Асқаров илмий раҳбарлигидаги Инновацион Ривожланиш вазирлиги гранти доирасида 2019 йилнинг июнь ойлари бошларидан амалга оширилди. Бу лойиҳа Низомий номидаги ТДПУ Ўзбекистон тарихи кафедраси ўқитувчиси, тарих фанлари номзоди Халил Матёкубов томонидан тайёрланиб, Вазирликка топширилди ва лойиҳа ютиб чиқилди. Бу ёдгорликдаги қабрларнинг қувонарли томони шунда эдики, улар ўз вақтида қабр ўғрилари томонидан ичидаги буюмлари ўғирланмаган ва шунинг учун скелетлар, сополлар, тақинчоқлар ўрни ва жойи яхши сақланган.


Эртош-дўлана мазор кўрғонлари қабрларининг чўкма ҳосил бўлган учтасидан ташқари қолганларини аниқлаш жараёни жуда қийинчилик билан борди. Қовунчи маданиятининг катакомба тарзидаги қабрларида майитлар жамоавий тарзда қўйилган бўлиб, скелетлар ўзаро қариндошлик алоқалари билан боғланган. Агар қабрга биринчи қўйилган одамдан сўнг, орадан маълум йиллар ўтиб қайсидур оила аъзоси вафот этса, у кўмилган жойни таниб олиш учун қабрнинг устки қисмига тошлар териб чиқилган. Бу белги тошлари эса маҳаллий аҳоли томонидан ташиб кетилиб, хўжалик мақсадларида ишлатиб юборилганлиги бизга мушкуллик туғдирди.

Ёдгорликда қабрларни аниқлаш қийинлиги сабабли кесма(траншея)лар қазилди. Траншеялар ёдгорликнинг жануби-шарқидан шимоли-ғарбига томон узунликда қазилди.

Бу мазор кўрғондан жами 7 донга қабр аниқланган бўлиб, уларни аниқлаш учун узунлиги 15-20 метр, эни 1 метр ва чуқурлиги 4-4,5 метрлик жами 15 траншеялар қазилди. Улардан ташқари яна битта 3X4 ўлчамли шурф ташланди. Ёдгорликнинг ўрганилаётган қисми жанубдан шимолга қараб 21 метрга қияланиб кўтарилиб борган.

Траншеялар қазилиши жараёнида шу нарса маълум бўлдики, қабрлар жойлашган ернинг 20-30-сантиметрини чим ва томир қатлам, тахминан 40-50-сантиметрини майда тош аралаш соғ тупроқ қатлами ва ундан пастга қараб 4-4,5 метргача қисми соф тупроқ қатлампидан иборат.





Қабрлар ер сатҳидан 4-4,5 метр чуқурликда жойлашган бўлиб, уларнинг ҳаммаси овал шаклида. Катакомба тарзида қўмилганлиги сабаб, ер тагида баландлиги 1,5 м, эни ва узунлиги ўртача 2,80Х3 метрни ташкил этувчи хилхоналар қовланган. Уларга дромос йўлаги орқали кирилган. Киравериш жойига иккита ялпоқ тош бўлагидан иборат қабр эшиклари қўйилган. Йўлақдан жанубга томон юқорига кўтарилиб бориб, ташқарига чиқилади. Мозор-Қўрғондаги дромос йўлақларининг узунлиги ўртача 3-5 метрни ташкил этади.

Қазишма ишлари жараёнида Эртош дўлана қабристонида майитлар жамоавий тартибда қўмилганлиги аниқланди. Айрим скелетларнинг оёқ томонида олов излари сақланган. Қабрларнинг баъзиларида шағал тўшалган.

Қабрларнинг барчаси тоғ ёнбағри нишаблиги бўйлаб қовланган. Деярли ҳаммасининг оғиз томони жанубга қараган. Қабрлар катакомба тарзида қўрилганлиги, унинг тупроқлари ташлаб кетмаслиги учун ернинг айнан қаттиқ, шўх(тошли) қатламнинг тагидан хилхона қазилган.

Топилган 7 та қабрдан фақат иккитасидагина майитларни тартиб асосида қўйилмаган. Қолган ҳамма қабрларда скелетлар параллел тарзда оёғи шарққа қараб узатилган. Скелетлар ёнида ёки устида топилган буюмларга қараб унинг ҳаётлик даврида шуғулланган машғулоти ҳам маълум даражада

аниқлаштириш мумкин. Агар скелет эркак киши бўлса, ёнидан пичоқ, ўқ учлари, темир тўқа каби буюмлар топилди. Аёл киши бўлса, унинг бўйин қисмида мунчоқ, тош тақинчоқ, бош томонида ҳам зеб зийнат буюмлари топилди.

Топилган предметлар ичида бронза зирак, қора серпентин тошдан ясалган турли хил шаклдаги тош мунчоқ, геометрик шаклли илоҳийлаштирилган кўзмунчоқ, кўкимтил шишадан биконик шаклда ясалган мунчоқ-билакузук, оч зарғолдоқ рангли тошдан ясалган цилиндр шаклли ва сирти қабарикли шарсимон паста мунчоқ, темирдан ясалган узук, митти этикчани эслатувчи тош, оқ шиша маржон шодаси, марказий қисми махсус тешилган бронза пластинка, кичик қора тошдан қилинган тақинчоқ ва бошқалар ҳам топилди.

Эртош дўлана мазор қўрғонининг оригинал томони шундаки бу қабристонда уч тарихий даврга оид бўлган қабрларни учратиш мумкин. Булар: Қовунчи II маданиятига оид катакомба шаклли, Қорахонийлар даврига оид тошлардан териб чиқилган тобутли қабрлар ҳамда ҳеч қандай қурилмасиз ерга кўмилган қабрлардир. Бундан ҳам қизиқ томони, Қовунчи маданияти қабрларининг уст қисмида айнан қорахонийлар даври қабрлари жойлашган. Бундан аجدодлари қабрлари устига қўйиш анъанаси деб ҳам хулоса чиқариш мумкин.



Қабрлардан топилган хунармандчилик буюмлари

Агар Қовунчи қабрлари майитлари катакомба тарзида, фойдаланган буюмлари ва идишлари билан кўмилган бўлса, қорахонийлар даври қабрлари эса текис ялпоқ тўртбурчак шаклдаги тошлардан терилган тобутлар ичига жойлаштирилган. Қорахонийлар даври қабрларида бирор предмет билан қўшиб кўмиш ҳолатлари учрамайди, бу ҳолат мусулмон дини талаблари билан боғлиқ. Мусулмон дини кўмиш анъаналарига кўра майит ювилиб, ҳеч қандай қўшимча кийим ва буюмларсиз, қиблага қаратилган ҳолатда қабрга қўйилади.

Бундай қорахонийлар даври қабрлари Қозоғистон Республикаси жанубий қисми, Арслонбоб ёдгорлигидан [5. 455-459-б], Самарқандда Афросиёб ёдгорлигидан ҳам топиб ўрганилган.

Қозоғистон ҳудудида Кедер шаҳри (Қўйриқтобе посёлкаси) ва Боба-Ата шаҳарчаси яқинидан бир нечта мусулмон қабрлари топиб ўрганилган.

Қозоғистон ҳудудидаги қорахонийлар даври қабрлари атрофи пишган гиштдан қилинган тобутсимон яшик билан ўраб чиқилган. Тобут шаклини ясада бузилган иморатларнинг гиштлиридан фойдаланишган.

Майитнинг бошини жанубга ёки жануби-ғарбга қаратган ҳолда шимоли-ғарбий томон тирсаклари кўкрагига букилган ҳолатда кўмилган [5. 455-459-б].

Юқорида номи келтирилган ҳудудлардаги қабрлар шаҳар маданиятига оид бўлиб, майит қўйилган тобутлар гиштлардан терилиб ясалиши билан Эртош дўлана ёдгорлигидаги мусулмон қабрларидан фарқ қилади. Айрим қабрларда тош тобутнинг устки қисми ҳам япалоқ тошлар билан беркитилган.

Бу ёдгорликнинг яна бир оригиналлиги шундаки, Қовунчи II маданиятининг чорвадор вакиллари милодий II-IV асрларда Юқори Оҳангароннинг энг юқори ҳавзасини ўзлаштирганлиги ва бу жойда ўзларининг қабр-кўргонларида дафн этилганлигини исбот қилувчи муҳим манба ҳисобланади.

Қабрларга дафн маросимларида қўйилган буюмлар ичида қовунчи маданияти дастаси зооморф шаклидаги кулолчилик буюмлари билан бирга Сармат маданиятига оид кулолчилик буюмлари қўйилганлиги кузатилади [6. 302-303-б]. Бу ҳам Эртош дўлана мазор кўргонининг ноёблигини белгилайди.


Бу ёдгорликдаги қабрлар ичидан кўза, хурмача, кўра- кумғон, кўра, варанкасимон сопол сузғич, айиқ, от, шохдор кўчқор тасвири тушурилган ёглиғилар каби сопол идишларнинг топилиши унинг қимматини янада оширади.

Қабр I ва Қабр II дан топилган кўзалардан икkitасининг елка айланаси бўйлаб кулолчилик пичоғи ёрдамида чизиқча ва унинг остидан бир дона хочсимон чизиқ тортилган. Кўзалардан бирининг оғзи сув қуйишга мўлжаллаб тарновсимон жумрак қилиб ишланган. Бу белги Қовунчи II босқичининг асосий белгиларидан бири ҳисобланади.

Топилган ёглиғилардан кўпчилигининг дастасига бурама шохли кўчқор шакли берилган. Айримларида айиқ ва от тасвири ҳам учратилди.

Қабрларда топилган ҳунармандчилик буюмларига қараганда Қовунчи маданиятининг қадимда Эртош қишлоғи ҳудудига келиб ўтrockлаша бошлаган чорвадор вакиллари ҳунармандчиликнинг темирчилик, кулолчилик, тоштарошлик соҳалари билан ҳам юксак даражада шуғулланишганлигини кўрсатади.

Хулоса қилиб айтганда, Эртош-дўлана ёдгорлигининг ўрганилиши ўзбек халқининг дастлабки этномаданий асосини ташкил этган Қовунчи маданияти чорвадор аҳолиси вакилларининг Оҳангарон дарёси юқори ҳавзаларида ҳам тарқалгани, ўтроқ ҳаётга ўтиб бориши ва араблар босқинидан кейин ислом динини қабул қилиши, бундан уларда кўмиш маросимларидаги ўзгаришларни янада яққол тасаввур этиш имконини беради.



Эртош дўлана ёдгорлигидан топилган сопол идишлар

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ

1. Qorayev, Toponimika: O'quv qo'llanma. «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti», 2006. - 320 b.
2. Ёрматов И. "Оҳангарон водийси жой номларининг изоҳли луғати" Тошкент. 2016. 6. 143.
3. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Т.: Фан. 1982.
4. Левина Л.М. Керамика нижней и средней Сырдарьи в I тыс. н.э. – М., 1971. – 242 с.
5. Байпаков К.М. Древняя и средневековая урбанизация Казахстана (по материалам исследований Южно-Казахстанской комплексной археологической экспедиции). Книга II. Урбанизация Казахстана в IX – начале XIII в. - Алматы, 2013. - 514 с.
6. Асқаров. А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. - Тошкент: "O'zbekiston" НМИУ, 2015 - 672 б.

IX
 НТИ
 23
 асини

 органи
 низ энг
 яшаши
 тарихи,
 н ёзма
 аҳлили
 и.Улар
 и тилга

 асосан
 ан ҳам
 адимги
 аёнини
 ологик

 ertiaция
 олигида
 У ўзи
 рда ва
 урмуш-
 таҳлил

 биётлар
 борат.

Ишнинг биринчи бобида Юқори Охангарон ҳавзасининг табиий-географик шароити ва археологик жihatдан ўрганилиши ёритилган.

Иккинчи бобда Эртош-Дўлана мазор-қўргонларида олиб борилган археологик қазишмалар натижасида очилган қабрлар ва улардан чиққан ашёлар таҳлил қилинган.

Учинчи бобда антик давр қабрларидан топилган ашёлар тавсифланган ва даврий санасига аниқлик киритилган. Бунинг натижасида ушбу қабрлар Қовунчи маданиятининг бир бўғини эканлиги асосланган.

Ишнинг энг муҳим жихати Эртош-Дўлана ёдгорлиги илк бор археологик жихатдан аниқланди, уларнинг дафн маросимлари таҳлил этилди. Қовунчи маданиятига тегишли ушбу қабрларнинг устки катламидан мусулмон дини анъаналари асосида дафн этилган қабрлар борлиги аниқланиб, уларнинг даври Қорахонийлар даври билан белгиланди.

Ушбу янгиликларнинг ўзи магистрлик даражасидан ҳам юқори илмий даража беришга асос бўла олади.

У. Исмоилов томонидан ушбу мавзунинг янгиликларини камраб олган, 2 та макола халқаро ва республика миқёсидаги илмий анжуманда нашр этилган.

Диссертацияда маълум камчиликлар ҳам мавжуд. Матннинг баъзи саҳифаларида ва иктибос қисмида имловий хатоликлар мавжуд. Лекин бу камчиликлар ишнинг қийматига таъсир кўрсатмайди.

Хулоса қилиб айтганда У. Исмоилов томонидан бажарилган “Эртош-Дўлана – ўзбек халқи этногенез тарихининг ноёб археологик обидаси” мавзусидаги магистрлик даражасини олиш учун ёзган диссертацияси магистрлик даражасини олиш учун қўйилган талабларга тўлиқ жавоб беради. У.Исмоилов магистрлик даражасини олишга лойиқ. Ишни очиқ ҳимояга тавсия этаман.

Ўзбекистон тарихи кафедраси ўқитувчиси
Тарих фанлари бўлими фалсафа доктори (PhD)



Д.О.Каримова

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети магистранти Исмоилов Убайдулла Мамат ўғлининг “Эртош-Дўлана ўзбек халқи этногенез тарихининг ноёб археологик обидаси” мавзусидаги магистр даражасини олиш учун ёзилган диссертациясига

Такриз

Марказий Осиё халқларининг ўтмиш тарихи ғоятта ранг-баранг бўлиб, унинг асосий қисмини ўтроқ деҳқон ва кўчманчи чарвадорлар маданияти ташкил қилади. Сўнги чорак аср мобайнида Ўзбекистон археологиясида асосий бош мавзулар ўтроқ деҳқон маданиятининг шаҳарсозлик, давлатчилик тизимларини ўрганишга қаратилган ҳолда, чорвадорлар турмуш тарзи ва моддий маданиятини тадқиқ қилиш деярли тўхтаб қолди. Сирдарё ўрта оқимининг Тошкент воҳаси (Чирчиқ, Оҳангарон водийси)даги ёдгорликлар М.Е. Массон, М.Э. Воронец, Г.В. Григорьев, А.И. Тереножкин, Т.Г. Оболюева, Б.А. Литвинский, Х. Дуке, Ю.Ф. Буряков, М.И. Филанович, Л.М. Левина ва бошқа археологлар томонидан мақсадли равишда илмий ўрганилган ва айни пайтда ҳам бу изланишлар олимларимиз томонидан изчил давом эттирилмоқда. Кейинги пайтда академик А.А. Аскарлов бошчилигида археологик изланишлар изчил давом эттирилиб, шу мавзу доирасида бир қанча диссертация ҳимоялари бўлиб ўтди. Ушбу магистрлик диссертация ишини ҳам юқоридаги илмий изланишларнинг узвий давоми деб ҳисоблаш мумкин.

Ушбу тадқиқотда Юқори Оҳангарон ҳавзасидаги ўтроқлаша бошлаган чорвадор ва ўрта асрларда мусулмон динини қабул қилган аҳолидан қолган Эртош-Дўлана ёдгорлигининг илк ўрганилиши билан боғлиқ изланишлар ёритилган. Иш расмий жиҳатдан тўғри тузилган. Унинг кириш қисмида мавзунинг долзарблиги, уни ўрганишнинг зарурияти, манбавий асослари, тадқиқотнинг ўрганилганлик даражаси, мақсад ва вазифалари, тадқиқот юритишнинг усуллари қисқача баён қилинган.

Илмий янгилиги сифатида Юқори Оҳангарон ҳавзасидан Қовунчи маданиятининг 2 босқичи тегишли Эртош-Дўлана ёдгорлиги қабрлари илк бор археологик жиҳатдан аниқланганлиги, Эртош-Дўлана қабристонида очиб ўрганилган 7 та қабр кўрғонларини таҳлиliga кўра бу жойдаги қадимий аҳоли дафн анъаналарида оилавий тартибда кўмиш удуми тарқалганлиги, чорвадор қабилаларнинг келиб чиқиш тарихий илдизлари ва уларнинг ўтроқлашиш жараёнлари, қабрларга дафн маросимларида қўйилган буюмлар ичида Сармат маданиятига оид кулолчилик буюмлари қўйилганлиги, қабристонда Қовунчи маданияти қабрларининг уст қисмида мусулмон диний анъаналарига кўра дафн этилган қабристон борлиги баён қилинган.

Диссертациянинг асосий қисми 4 бобдан иборат бўлиб, унинг биринчи боби “Юқори Оҳангарон ҳавзасининг табиий-географик ҳолати


(диссертацияда бандда Юқори кинчи бандда, пи ёритилган. ан археологик на қабристони Эртош-Дўлана афияси ҳамда аври қабрлари, оби антик давр икатсияси ва ининг тавсифи нинг турлари иссертациянинг ва натижалар нинг қабрлари аси катакомба овал шаклида, анлиги демак, бўлган дафн ланган. Айнан изга ўша давр андай даражада ади. ан масалалар диссертантнинг мотлар асосли а таклифларни юнага Қовунчи хши бўларди. пади. Матни ва бор эътибор виясига таъсир ининг “Эртош-мологик обидаси” ган Ўзбекистон магистри илмий беради. Муаллиф

магистр илмий даражасини олишга лойиқ.

Жиззах давлат педагогика институти

тарих ўқитиш методикаси кафедраси муdiri:

доц. Ф.Э. Тошбоев



Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети
магистранти Исмоилов Убайдулла Мамат ўғлининг “Эртош-Дўлана ўзбек
халқи этногенез тарихининг ноёб археологик обидаси” мавзусидаги магистр
даражасини олиш учун ёзилган диссертациясига илмий раҳбар

ХУЛОСАСИ

Исмоилов Убайдулла Мамат ўғлининг “Эртош-Дўлана ўзбек халқи
этногенез тарихининг ноёб археологик обидаси” мавзусидаги магистр
даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси қадимги даврга оид ҳисобланиб,
унда Тошкент воҳасининг қадимдан ўзига хос моддий маданиятга эга
бўлганлиги, тарихий ва этногеографик ҳудуд эканлиги кўрсатиб берилган.
Тадқиқотда деҳқончилик маданиятининг тарихий илдишлари илк темир давriga
бориб тақалиши, ушбу ҳудуд бронза даврдан бошлаб шимол қўчманчи
қабилалари билан жануб ўтроқ зироаткор аҳолини ўзаро боғлаб турувчи
минтақа сифатида бутун Ўрта Осиё халқлари сиёсий ва этник тарихида муҳим
ўрин эгаллаганлиги таъкидлаб ўтилган.

Тошкент воҳасининг археологик жиҳатдан ўрганилиши, ҳудуд тарихининг
турли тарихий босқичларини тадқиқ қилиниши, воҳа тарихига оид қатор
мақола, диссертация ва монографиялар таҳлил қилинган. Ушбу магистрлик
диссертация ишини ҳам юқоридаги илмий изланишларнинг узвий давоми деб
ҳисоблаш мумкин.

Диссертация умумий ҳажми 160 саҳифадан иборат бўлиб, унга асосий
матндан ташқари ишнинг методик қисми ва альбом иллюстрацияси илова
қилинган.

Тадқиқотнинг кириш қисмида мавзунинг долзарблиги, манбавий асослари
ва ўрганилганлик даражаси, мақсад-вазифалари, ишнинг илмий-амалий
аҳамияти батафсил ёритиб берилган.

Ушбу тадқиқотда Юқори Оҳангарон ҳавзасидаги ўтроқлаша бошлаган
чорвадор ва ўрта асрларда мусулмон динини қабул қилган аҳолидан қолган
Эртош-Дўлана ёдгорлигининг илк ўрганилиши билан боғлиқ изланишлар
ёритилган.

Илмий янгилиги сифатида Юқори Оҳангарон ҳавзасидан Қовунчи
маданиятининг 2 босқичи тегишли Эртош-Дўлана ёдгорлиги қабрлари илк бор

археологик жиҳатдан аниқланганлиги, Эртош-Дўлана қабристонинда очиб ўрганилган 7 та қабр қўрғонларини таҳлиliga кўра бу жойдаги қадимий аҳоли дафн анъаналарида оилавий тартибда кўмиш удуми тарқалганлиги, чорвадор қабилаларнинг келиб чиқиш тарихий илдизлари ва уларнинг ўтроклашиш жараёнлари, Қабрларга дафн маросимларида қўйилган буюмлар ичида Сармат маданиятига оид кулолчилик буюмлари қўйилганлиги, қабристонда Қовунчи маданияти қабрларининг уст қисмида мусулмон диний анъаналарига кўра дафн этилган қабристон борлиги баён қилинган.

Диссертациянинг асосий қисми 4 бобдан иборат бўлиб, унинг биринчи боби „Юқори оҳангарон ҳавзасининг табиий-географик ҳолати ва унинг археологик жиҳатдан ўрганилиши“ деб номланган (диссертацияда 10–49 бетлар). Ушбу боб уч банддан иборат. Биринчи бандда Юқори Оҳангарон ҳавзасининг табиий-географик шароити иккинчи бандда, Юқори Оҳангарон водийсининг археологик ўрганилиши ёритилган. Иккинчи боби, „Эртош-Дўлана қабристонинда олиб борилган археологик казинималар“ деб номланган бўлиб, унда Эртош-Дўлана қабристони Қовунчи маданиятининг ноёб ёдгорлиги эканлиги, Эртош-Дўлана қабристонини ўрганиш методикаси ва унинг стратиграфияси ҳамда Эртош-Дўлана қабристонинда антик давр ва Қорахонийлар даври қабрлари, уларнинг дафн маросимлари таҳлил қилинган. Учинчи боби антик давр қабрларидан топилган ашёвий далиллар классификацияси ва хронологиясига оид бўлиб, унда кулолчилик маҳсулотларининг тавсифи ва даврий санаси, ҳунармандчилик маҳсулотларининг турлари ўрганилган материаллар тавсифи орқали очиб берилган. Диссертациянинг тўртинчи бобида эса тажриба-синов ишларини ўтказиш ва натижалар таҳлили баён қилинган.

Ишни ёзиш мобайнида Эртош-Дўлана ёдгорлигининг қабрлари Қовунчи маданияти чорвадор вакиллари қабрлари ҳаммаси катакомба тарзидаги оилавий хилхоналар ҳисобланиши, барчаси овал шаклида, ҳаммасида мархумлар буюмлар билан қўшиб кўмилганлиги демак, бизнинг ҳудудларда бронза давридан мавжуд бўлган дафн маросимларидаги анъананинг давом этиб келганлиги аниқланган. Айнан шу қабрга қўйилган ашёлар, дафн этиш усуллари бизга ўша давр ўтроклашаётган чорвадор аҳолининг диний эътиқодлари қандай даражада бўлганлигини кўрсатиб бера оладиган ноёб манба ҳисобланади.

Умуман олганда диссертация ишида қўйилган масалалар муваффақиятли тарзда очиб берилган. Тадқиқот юзасидан диссертантнинг кунт билан ишлаганлиги сезилиб турибди. Барча маълумотлар асосли тарзда келтирилган. Диссертацияда орфографик ва стилистик хатолар кузатилади. Матни ва адабиётларни расмийлаштириш жиҳатларига яна бир бор эътибор қаратиш керак. Бироқ, бу камчиликлар ишнинг илмий савиясига таъсир қилмайди.

Мен Исмоилов Убайдулланинг ушбу илмий тадқиқот иши бугунги ҳолатга келгунигача бўлган кўп йиллик машаққатли изланишининг самараси бўлиб, диссертант Эртош-Дўлана ёдгорлигининг очилишидан бошлаб то бугунги кунга қадар бўлиб борилган археологик қазилмаларнинг бевосита иштирокчисиدير. Тадқиқотнинг ҳар бир боби якунида диссертант томонидан чиқарилган хулосалар илмий асосланган. Бу эса Исмоилов Убайдулланинг ўз илмий позициясига эга, истиқболли тадқиқотчи бўлиб етишганлигидан далолат беради.

Диссертация матнида баъзи бир техник хатолар бор. Аммо ушбу камчиликлар ишнинг умумий мазмуни ва унинг илмий аҳамиятига дахлдор эмас. Диссертант ўз ишида ватанимиз тарихининг проблематик масалаларидан бири бўлган ўзбек халқининг этногенези муаммоси илмий таҳлиliga қўл урган ва ўз олдига қўйган вазифаларни бажаришда катта масъулият билан ёндошган.

Мен, илмий раҳбар сифатида Исмоилов Убайдулланинг ушбу илмий ишини ҳар томонлама пухта ишланган тадқиқот ҳисоблаб, диссертант ўз олдига қўйган мақсад ва вазифалар илмий ечимини топишга эришган деб ҳисоблайман ва ишни тугалланган тадқиқот сифатида ҳимояга тавсия этаман.

Низомий номидаги ТДПУ

“Тарих ва уни ўқитиш методикаси”

кафедраси мудири



т.ф.и. С.Тилаев